

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.I.17.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ABDIRAXMONOV AZIMJON TOXIR O'G'LI

TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI
OSHIRISH YO'LLARI

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

Toshkent shahri - 2025 yil

MUNDARIJA

	KIRISH.....	3
I BOB.	TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-IQTISODIY ASOSLARI.....	12
1.1 §	Korxonalar investitsion jozibadorligi haqida tushuncha va tijorat banklari investitsion jozibadorligini oshirishning nazariy-iqtisodiy asoslari	12
1.2 §	Tijorat banklari investitsion jozibadorligini oshirishda dividend siyosatining ahamiyati	22
1.3 §	Kapital bozori orqali tijorat banklari investitsion jozibadorligini oshirishning o‘ziga xos jihatlari.....	41
	Birinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	60
II BOB.	TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISHGA QARATILGAN FAOLIYATLARI TAHLILI.....	62
2.1 §	Tijorat banklarida investitsion jozibadorlikni oshirishga ta’sir qiluvchi omillar tahlili.....	62
2.2 §	Tijorat banklarida dividend siyosati tahlili.....	74
2.3 §	Kapital bozorida tijorat banklari faoliyati tahlili.....	91
	Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	102
III BOB.	TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO‘NALISHLARI.....	104
3.1 §	Tijorat banklari investitsion jozibadorligini oshirishning xorij tajribasi.....	104
3.2 §	O‘zbekistonda tijorat banklari investitsion jozibadorligini oshirishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari.....	119
	Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	138
	XULOSA.....	140
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	142

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda tijorat banklari iqtisodiyotni moliyalashtiruvchi muhim tuzilmalardan hisoblanadi. Shu sababli tijorat banklari investitsion jozibadorligini oshirishda bank aktivlarini diversifikatsiyalashga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, "an'anaviy banklar tomonidan kreditlash hajmi bo'yicha raqamli banklar ko'rsatkichlaridan ancha yuqori hisoblanadi. 2024-yilda an'anaviy banklar tomonidan 200 trillion AQSh dollari atrofida kreditlar ajratilgan, raqamli banklar esa 13 trillion AQSh dollari hajmida kredit ajratgan bo'lib, an'anaviy banklarning ko'rsatkichi raqamli banklar ko'rsatkichidan 15 baravarga ko'p hisoblanadi"¹. Mazkur holat raqamli banklarning hali to'liq rivojlanmaganini yoki mijozlar orasida hali keng ishonch qozonmaganini ko'rsatadi. Biroq, raqamli banklar bozorda o'z o'rnini kengaytirayotganini ham alohida qayd etish lozim. Qolaversa, tijorat banklarining investitsion jozibadorligi nafaqat bank xizmatlari bozori, balki kapital bozori orqali ham amalga oshirilmoqda. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar operatsiyalaridagi ishtirokining samarali tashkil etilishi hamda oqilona dividend siyosatining yuritilishi tijorat banklarining investitsion jozibadorligini oshirishda kapital bozori imkoniyatlaridan foydalanishga xizmat qiladi.

Jahon amaliyotida tijorat banklari investitsion jozibadorligini oshirishga qaratilgan ko'plab tadqiqotlar o'tkazilgan. Mazkur tadqiqotlarda, asosan, tijorat banklari investitsion jozibadorligini oshirishda bank xizmatlari bozorini samarali tashkil etish, bank aktivlaridan samarali foydalanish, bank risklarini samarali boshqarish, bank xizmatlari portfelini diversifikatsiyalash, kapital bozori imkoniyatlaridan foydalanish kabilar tadqiq etilgan. Biroq mazkur tadqiqotlarning aksariyatida rivojlanayotgan mamlakatlar amaliyoti uchun berilgan alohida ilmiy yechimlar kuzatilavermaydi. Shuningdek, tijorat banklarining dividend siyosatini samarali tashkil etish masalalari yetarlicha o'rganilmaganligi, kapital bozoridan tijorat banklari kredit resurslarini shakllantirishda foydalanish yo'llari taklif

¹ <https://www.statista.com/statistics/1537819/loans-digital-traditional-banks-forecast/#statisticContainer> – Statista rasmiy sayti ma'lumotlari

etilmaganligi, rivojlanayotgan mamlakatlar kapital bozorida tijorat banklarining investitsion faolligi past darajada saqlanib qolayotganligi, tijorat banklari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar likvidligi pastligi, tijorat banklarida korporativ boshqaruv darajasini qoniqarli emasligi, tijorat banklari rivojlanish strategiyalarida dividend siyosatiga yetarlicha e'tibor qaratilmayotganligi kabi muammolar o'zining ijobiy yechimini topmagan. Mazkur masalalar, o'z navbatida, tijorat banklari investitsion jozibadorligini oshirish bo'yicha mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini ko'rsatadi.

O'zbekistonda tijorat banklari investitsion jozibadorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, milliy amaliyotda tijorat banklari iqtisodiyotni moliyalashtiruvchi asosiy tuzilmaga aylanib ulgurgan. Shu boisdan "moliyaviy resurslarga talabni qondirish uchun kapital bozorini rivojlantirish bo'yicha yondashuvlar qayta ko'rib chiqilmoqda. O'zbekistonda xalqaro moliyalashtirish instrumentlarini rivojlantirish ustida ish olib borilmoqda. Xorijiy sarmoyalar oqimi bir necha barobar ortishi, korporativ boshqaruv sifati oshishi, yangi yetakchi bank-moliya institutlari kirib kelishi"²ga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur chora-tadbirlarning amalga oshirilishi tijorat banklari investitsion jozibadorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlash joiz. Mamlakatimizda tijorat banklari dividend siyosatining samarasiz tashkil etilganligi, tijorat banklarida davlat ishtiroki yuqori ekanligi, tijorat banklarining kapital bozorida faol emasligi, tijorat banklari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar likvidligi pastligi, tijorat banklari orasida sof raqobat muhiti shakllanmaganligi, tijorat banklari tomonidan investorlarni qiziqtiruvchi ko'rsatkichlarni yaxshilashga e'tibor qaratilmayotganligi kabi jihatlar tijorat banklari investitsion jozibadorligini oshirishga to'sqinlik qilmoqda. Shu sababli tijorat banklari investitsion jozibadorligini oshirishda mazkur jihatlariga e'tibor qaratish hamda ilmiy yechimlar ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumidagi nutqi, 02.05.2024. <https://president.uz/oz/lists/view/7194>

O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 6 maydagi 370-son “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”, 2019 yil 5 noyabrda 580-son “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilning 29-yanvardagi PF-60-son “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yilning 8-yanvardagi PF-5614-son “Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 12-maydagi 5992-son “2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida” Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-martdagi PQ-168-son “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini yanada qisqartirish va xususiylashtirishni jadallashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2023-yil 18-avgustdagi PQ-283-son “Davlat ishtirokidagi korxonalar va tijorat banklarini isloh qilish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi “2021-2025 yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Qarori va tijorat banklari investitsion jozibadorligini oshirishga qaratilgan boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Hozirda tijorat banklari investitsion jozibadorligini oshirish bo‘yicha keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, xorijlik iqtisodchi olimlardan V. Pahomov, Y. Rolik, I. Glotova, E.Tomilina, B. Doronin, Y. Klishina, O. Uglitskikh, A. Zelezinskii, O. Arhipova, D.Hodos, V. Burko, Y. Sevryugin, T. Matveev, T. Guskova, E. Krilov, V. Vlasov,

I. Juravkova, I. Grishina, A. Shakhnazarov, I. Roizman, W. Li, Z. Shen, X. Wen, E. Johari, D. Chronopoulos, B. Scholtens, A. Sobiech, J. Wilson, L. Allen, A. Gottesman, A. Saunders, Y. Tang, T. Rice, P. Strahan, T. Basse, S. Reddemann, J. Riegler, J. Schulenburg, N. Bhattacharyya³ va boshqalar tijorat banklari investitsion jozibadorligini oshirish bo'yicha qator tadqiqotlar olib borgan.

Mahalliy olimlardan Sh. Abdullayeva, A. Omonov, B. Berdiyarov, U. Xalikov, Z. Ashurov, S. Elmirzayev, S. Omonov, X. Xudoyqulov, J. Qurbonov, M. Shukurullayev, Sh. Atabayev, N. Sherkuziyeva, R. Axmedov⁴ va boshqalar

³ Pahomov, V.A., Factors of investment attractiveness of enterprises - the contractor, Problems of entrepreneurship in Russia's economy, Interuniversity collection of proceedings, Issue No. 8, Moscow, Strategic management Technology, 2005. – pp. 116-125.; Yuri A. Rolik. A Complex Approach to Evaluating the Innovation Strategy of a Company to Determine its Investment Attractiveness. // Procedia - Social and Behavioral Sciences, Volume 99, 6 November 2013, Pages 562-571.; I.I. Glotova, E.P. Tomilina, B.A. Doronin, Yu.E. Klishina, O.N. Uglitskikh. Investment Attractiveness of the Company: Definition Approaches and Assessment Methods. // Proceedings of the International Conference on "Humanities and Social Sciences: Novations, Problems, Prospects" (HSSNPP 2019).; A.L. Zelezinskii, O.V. Arhipova, D.V. Hodos, V.S. Burko. MODERN APPROACHES TO DETERMINING THE INVESTMENT ATTRACTIVENESS OF A COMPANY FOR THE PURPOSE OF ITS ACQUISITION. // Экономический вектор №1(32) 2023.; Севрюгин, Ю.В. Оценка инвестиционной привлекательности промышленного предприятия [Текст]: автореф. Дис. канд. экон. наук. Ижевск, 2004. 27с.; Матвеев, Т.Н. Оценка инвестиционной привлекательности предприятия [Электронный ресурс] / Т.Н. Матвеев. Труды МГТА: электронный журнал. 26.09.11.; Гуськова Т.Н. Методология статистического исследования инвестиционной привлекательности объектов: Автореф. дис. канд. экон. наук. Ростов-на-Дону: 2014.- с.9; Крылов Э.И., Власов В.М., Журавкова И.В. Анализ эффективности инвестиционной и инновационной деятельности субъекта хозяйствования. Учебник. – 2-е изд. – М.: Финансы и статистика, 2016. – 326 с.; Grishina I., Shakhnazarov A., Roizman I. A Comprehensive Assessment of Investment Attractiveness and Investment Activity in Russian Regions: a Methodology for Determining and Analyzing Relationships // Investments in Russia. 2001. No. 4. Pp. 5-16.; Wanli Li, Zhixuan Shen, Xi Wen. Access to banking and corporate dividend policy: Evidence from the distribution of bank branches in China. // Research in International Business and Finance, Volume 75, March 2025. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0275531924005245>; Edie Erman Che Johari, Dimitris K. Chronopoulos, Bert Scholtens, Anna L. Sobiech, John O.S. Wilson. Deposit insurance and bank dividend policy. // Journal of Financial Stability, Volume 48, June 2020; L. Allen, A. Gottesman, A. Saunders, Y. Tang. The role of banks in dividend policy. // Financ. Manag., 41 (3) (2012), pp. 591-613.; T. Rice, P.E. Strahan. Does credit competition affect small-firm finance? J. Financ., 65 (3) (2010), pp. 861-889.; Tobias Basse, Sebastian Reddemann, Johannes-Jörg Riegler, J.-Matthias Graf von der Schulenburg. Bank dividend policy and the global financial crisis: Empirical evidence from Europe. // European Journal of Political Economy, Volume 34, Supplement, June 2014, Pages S25-S31.; N. Bhattacharyya. Dividend policy: a review. // Manag. Finance, 2007

⁴ Ш.Абдуллаева, А.Омонов. Тижорат банклари капитали ва уни бошқариш. // Ўқув қўлланма. – Т.: “ИҚТИСОД-МОЛИЯ”, 2006. – 120 б.; Б.Т. Берdiyarov. ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ ЛИКВИДЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ НАЗАРИЙ МАСАЛАЛАРИ. // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журналы. № 4, июль-август, 2016 йил. – 6 бет.; У.Р.Халиков. Ўзбекистонда фонд бозори орқали инвестицион фаолиятни молиялаштиришни такомиллаштириш. // Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати, Тошкент, 2017. – 15 бет.; Ашуров Зуфар Абдуллаевич. КОРПОРАТИВ БОШҚАРУВНИНГ ТАШКИЛИЙ-ИҚТИСОДИЙ МЕХАНИЗМИ ВА УНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журналы. № 4, июль-август, 2017 йил. – 18-19 бетлар.; Elmirzayev, S. and Omonov, S. (2020) "DIVIDEND POLICY ANALYSIS IN DEVELOPED COUNTRIES AND DIVIDEND ARISTOCRATS," International Finance and Accounting: Vol. 2020 : Iss. 2 , Article 22.; X.X.Худойкулов. МУЛЬТИПЛИКАТОР КОЭФФИЦИЕНТЛАР ОРҚАЛИ АКЦИЯДОРЛИК ЖАМИЯТЛАРНИ КАПИТАЛ ҚИЙМАТИНИ БАҲОЛАШ. // “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журналы. № 6, декабрь, 2019 йил.; Kurbonov, J. PhD; Kholikov, U. PhD; Shukurullaev, M.; and Atabayev, Sh. (2021) "INCREASING BUSINESS VALUE AND PROFIT DISTRIBUTION MECHANISM: ANALYSIS OF GLOBAL PRACTICE," International Finance and Accounting: Vol. 2021 : Iss. 1 , Article 3.;

tijorat banklari investitsion jozibadorligi, uni oshirishda dividend siyosati va kapital bozorining o'rnini tadqiq qilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliya, bank va hisob tizimini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Mamlakatimizda tijorat banklari investitsion jozibadorligini oshirish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish dissertatsiya ishining maqsadi hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

korxonalar investitsion jozibadorligi haqida tushuncha va tijorat banklari investitsion jozibadorligini oshirishning nazariy-iqtisodiy asoslarini o'rganish;

tijorat banklari investitsion jozibadorligini oshirishda dividend siyosatining ahamiyatini yoritish;

kapital bozori orqali tijorat banklari investitsion jozibadorligini oshirishning o'ziga xos jihatlarini tadqiq qilish;

tijorat banklarida investitsion jozibadorlikni oshirishga ta'sir qiluvchi omillar tahlilini amalga oshirish;

tijorat banklarida dividend siyosatini tahlil qilish;

kapital bozorida tijorat banklari faoliyatini tadqiq qilish;

tijorat banklari investitsion jozibadorligini oshirishning xorij tajribasini o'rganish;

O'zbekistonda tijorat banklari investitsion jozibadorligini oshirishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatuvchi tijorat banklari olingan.

Tadqiqotning predmeti. Tijorat banklari investitsion jozibadorligini oshirishda yuzaga keladigan iqtisodiy-moliyaviy munosabatlar majmui mazkur tadqiqot ishining predmeti hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ilmiy abstraksiyalash, qiyoslash, guruhlash, ilmiy tafakkur, analiz, sintez, kuzatish, tanlanma tahlil, taqqoslama tahlil, statistik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tijorat banklarining kapital bozoridagi faolligini ta'minlash va investitsion portfel diversifikatsiyasini samarali tashkil etish maqsadida tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarga investitsiyalari hajmini bosqichma-bosqich oshirib borish taklif qilingan;

tijorat banklarining investitsion jozibadorligini oshirishda emissiya qilinadigan aksiyalarda imtiyozli aksiyalarning ulushi kamida 5 foiz bo'lishini taminlash orqali optimallashtirish taklif etilgan;

zamonaviy yashil bank mahsulotlarini joriy etish orqali xalqaro kredit tashkilotlari hamda "yashil investorlar"dan moliyaviy resurslarni jalb etish imkoniyatlarini 20 foizgacha oshirish orqali bank tizimining ekologik barqarorlikni ta'minlashdagi rolini kuchaytirish taklif etilgan;

tijorat banklarining kapital bozori orqali investitsion jozibadorligini oshirish maqsadida qo'shimcha oddiy aksiyalar emissiyasini tashkil etish taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Tijorat banklari investitsion jozibadorligini oshirishda dividend siyosatidan foydalanish imkoniyatlari asoslangan;

Tijorat banklarida kapital bozori imkoniyatlaridan foydalanish orqali investorlarni jalb qilish asoslangan;

Tijorat banklari investitsion jozibadorligini oshirishda IPO amaliyotidan foydalanish yo'nalishlari va bosqichlari ilmiy asoslangan;

Tijorat banklarida aksiyalar va obligatsiyalar emissiyasi orqali investitsion jozibadorlikni oshirish yo'llari amaliy jihatdan asoslanagan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot doirasida olingan ilmiy va amaliy natijalarning ishonchliligi nazariy va statistik ma'lumotlarning xalqaro hamda mahalliy rasmiy manbalar orqali olinganligi, keltirilgan tahlillar va prognozlar ilmiy tadqiqot usullari orqali aniqlanganligi hamda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy va moliya vazirligi, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi, "Toshkent" RFB AJ, "Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi" AJ, tijorat banklarining ma'lumotlari va hisobotlariga, shuningdek, Bank of America, Morgan Stanley, JP Morgan Chase, NYSE, London fond birjasi kabi xalqaro tashkilotlarning amaliy ma'lumotlariga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy xulosa, taklif va tavsiyalarni tijorat banklari investitsion jozibadorligini oshirishning nazariy jihatlarini rivojlantirish, tijorat banklarida dividend siyosatini takomillashtirish hamda tijorat banklarining kapital bozoridagi faolligini oshirishga oid ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan tavsiyalardan tijorat banklari investitsion jozibadorligini oshirish konsepsiyasini ishlab chiqish, tijorat banklarida dividend siyosatini takomillashtirish hamda tijorat banklarining kapital bozoridagi faolligini oshirish maqsadida qabul qilinadigan qonun va qonunosti hujjatlarini ishlab chiqishda, oliy ta'limning bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'qitiladigan "Korporativ moliya", "Moliyaviy menejment", "Moliya bozori" fanlarining mavzularini takomillashtirishda qo'llash mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tijorat banklari investitsion jozibadorligini oshirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tijorat banklarining kapital bozoridagi faolligini ta'minlash va investitsion portfel diversifikatsiyasini samarali tashkil etish maqsadida tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarga investitsiyalari hajmini oshirish taklifi AT Aloqabankning yillik moliyaviy rejalar ijrosini amalga oshirishda foydalanilgan (AT Aloqabankning 2025-yil 13-fevraldagi 05-041683-son ma'lumotnomasi). Natijada 2023-yil yanvar holatiga ko'ra AT "Aloqabank"ning bank aktivlari tarkibida

investitsiyalar va qimmatli qogʻozlar oldi-sotdisi ulushi avvalgi moliya yiliga nisbatan 1,5 foizga oshgan va 2022-yil yanvardagi 4,0 foizdan 2023-yil yanvarda 5,5 foizga oʻsgan;

tijorat banklarining investitsion jozibadorligini oshirishda emissiya qilinadigan aksiyalarda imtiyozli aksiyalarning ulushi kamida 5 foiz boʻlishini taminlash orqali optimallashtirish taklifi AT Aloqabank tomonidan bankning emission siyosatida foydalanilgan (AT Aloqabankning 2025-yil 13-fevraldagi 05-041683-son maʼlumotnomasi). Natijada 2024-yil 26-avgustda AT “Aloqabank” Kuzatuv kengashi tomonidan hamda 2024-yil 26-sentyabrda Oʻzbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi tomonidan tasdiqlangan qarorga muvofiq oddiy aksiyalar bilan birga nominal qiymati 1 soʻm boʻlgan jami 1 512 000 000 (bir milliard besh yuz oʻn ikki million) dona imtiyozli aksiyalar emissiya qilingan hamda bankning fond birjadagi imtiyozli aksiyalar savdosi kengaytirilgan;

zamonaviy yashil bank mahsulotlarini joriy etish orqali xalqaro kredit tashkilotlari hamda “yashil investorlar”dan moliyaviy resurslarni jalb etish imkoniyatlarini 20 foizgacha oshirish orqali bank tizimining ekologik barqarorlikni taʼminlashdagi rolini kuchaytirish taklifi AT Aloqabank tomonidan investitsion jozibadorlikni oshirishda kredit siyosatidan foydalanishda qoʻllangan (AT Aloqabankning 2025-yil 13-fevraldagi 05-041683-son maʼlumotnomasi). Natijada AT Aloqabankda “Muqobil energiya uchun” modulli kredit, “Pro-tok energy” modulli kredit kabi zamonaviy yashil bank mahsulotlari joriy etilgan hamda mazkur kredit mahsulotlariga kapital bozoridan moliyaviy resurs jalb qilishda yashil obligatsiyalardan foydalanish imkoniyatlari yaratilgan;

tijorat banklarining kapital bozori orqali investitsion jozibadorligini oshirish maqsadida qoʻshimcha oddiy aksiyalar emissiyasini tashkil etish taklifi AT Aloqabank tomonidan bankning emission siyosatida foydalanilgan (AT Aloqabankning 2025-yil 13-fevraldagi 05-041683-son maʼlumotnomasi). Natijada 2024-yil 3-dekabrda AT “Aloqabank” Kuzatuv kengashi tomonidan hamda 2024-yil 11-dekabrda Oʻzbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi

tomonidan tasdiqlangan qarorga muvofiq nominal qiymati 1 so'm bo'lgan jami 500 000 000 000 (besh yuz milliard) dona qo'shimcha oddiy aksiyalar chiqarilgan hamda oddiy aksiyalar orqali mazkur bankning investitsion jozibadorligini oshirish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan 2 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Natijalarning e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, shundan 2 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tarkib topgan. Dissertatsiya hajmi 148 betni tashkil etadi.

I BOB. TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-IQTISODIY ASOSLARI

1.1 §. Korxonalar investitsion jozibadorligi haqida tushuncha va tijorat banklari investitsion jozibadorligini oshirishning nazariy-iqtisodiy asoslari

Investitsion faoliyat iqtisodiy o'sish va taraqqiyotning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. U yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, texnologiyalarni modernizatsiya qilish va innovatsiyalarni joriy etishda muhim rol o'ynaydi. Investitsiyalar korxonalarning samaradorligini oshirish va raqobatbardoshligini mustahkamlashga yordam beradi. Mamlakat miqyosida investitsion faoliyat ish o'rinlarini yaratish va aholi turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi. Investitsiyalar infratuzilmani rivojlantirish hamda strategik tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi. Ular kapital oqimini jalb qilish va xalqaro bozorda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Innovatsion investitsiyalar ilm-fan va texnologiyalar rivojlanishiga turtki beradi. Samarali investitsion siyosat mamlakatning global iqtisodiyotdagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi. Investitsion faoliyat xususiy sektorni rivojlantirish va tadbirkorlik muhitini yaxshilashga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun investitsiyalarni rag'batlantirish, ularning samaradorligini oshirish, shuningdek, investitsion jozibadorlikni oshirish har bir iqtisodiyot uchun muhim vazifalardan hisoblanadi.

Umuman olganda investitsion jozibadorlik bu mamlakat, tarmoq yoki korxonaning investorlar uchun qanchalik maqbul va foydali ekanligini ifodalovchi tushuncha hisoblanadi. Bu ko'rsatkich iqtisodiy barqarorlik, qulay huquqiy muhit, soliqlar, infratuzilma va kapitalni himoya qilish darajasiga bog'liq. Mamlakatning investitsion jozibadorligi yuqori bo'lishi uchun mamlakatda barqaror siyosat yuritilishi va tadbirkorlik uchun qulay shart-sharoit yaratilishi lozim. Soliqlarning pastligi va qonunlarning aniq ishlashi investorlarni jalb etishda muhim omillardan hisoblanadi. Bundan tashqari, infratuzilmaning rivojlanganligi va malakali ishchi

kuchi mavjudligi ham muhimdir. Kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash investitsion muhitni yaxshilaydi. Raqobatbardosh bozor va ochiq iqtisodiyot xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga yordam beradi. Kredit resurslarining mavjudligi va foydali shartlari investorlarga qo'shimcha rag'bat yaratadi. Shu sababli har bir mamlakat investitsion jozibadorligini oshirish uchun izchil islohotlarni amalga oshirishi zarur. Mazkur jarayonda alohida kompaniyalarning o'z investitsion jozibadorligini oshirish bo'yicha amalga oshiradigan samarali choralari mamlakatning umumiy investitsion jozibadorligini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan quyida korxonalar investitsion jozibadorligining nazariy-iqtisodiy jihatlariga atroflicha to'xtalib o'tamiz.

Kompaniyaning investitsion jozibadorligi – bu uning investorlar uchun qanchalik foydali va istiqbolli ekanligini ifodalovchi mezon. Ushbu jozibadorlik moliyaviy barqarorlik, rentabellik va aktivlarning samarali boshqarilishiga bog'liq. Kompaniyaning daromadliligi va qarz yuklamasining pastligi investorlar uchun muhim omillardan biridir. Shuningdek, kompaniyaning bozordagi mavqei va raqobatbardoshligi ham uning investitsion jozibadorligini oshiradi. Shaffof moliyaviy hisobot yuritish va korporativ boshqaruvning samaradorligi investorlarning ishonchini mustahkamlaydi. Innovatsion rivojlanish va texnologik yangilanishlar kompaniyaning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlaydi. Dividend siyosati va kapitalni oshirish strategiyalari investorlarni jalb qilishda muhim rol o'ynaydi. Bozor sharoitlariga tez moslashish va risklarni samarali boshqarish investitsion jozibadorlikni oshiradi. Yaxshi tashkil etilgan biznes modeli va barqaror o'sish dinamikasi kompaniyaning investitsion qiymatini oshiradi. Shu sababli, kompaniyalar investorlar uchun jozibador bo'lish uchun strategik rejalashtirish va innovatsion yondashuvga e'tibor qaratishlari lozim.

Korxonalar tomonidan amalga oshiriladigan investitsiyalar kompaniyaning investitsion jozibadorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Moliyaviy sarmoyalar kompaniyaning ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va yangi texnologiyalarni joriy etish imkonini beradi. Innovatsion investitsiyalar mahsulot va xizmatlarning sifatini oshirib, raqobatbardoshlikni mustahkamlashga yordam

beradi. Investitsiyalar tufayli kompaniya infratuzilmasini rivojlantirib, samaradorlikni oshirishi mumkin. Uzoq muddatli sarmoyalar kompaniyaning barqarorligini ta'minlab, investorlar uchun jozibadorligini kuchaytiradi. Kapital qo'yilmalar kompaniyaning moliyaviy holatini yaxshilash va qarzдорlik darajasini kamaytirishga xizmat qiladi. Investitsiyalar kiritilgan kompaniyalarning aksiyalari bozorda yuqori baholanadi va investorlarning qiziqishini oshiradi. Korporativ boshqaruv va biznes jarayonlarining takomillashuvi ham investitsiyalar evaziga amalga oshiriladi. Investitsion loyihalar kompaniyaning daromadlarini oshirish va yangi bozor segmentlariga kirish imkonini beradi. Shu sababli kompaniyalarda investitsiyalarni jalb etish va samarali boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish muhim masalalardan ekanligini qayd etish lozim.

“Investitsion jozibadorlik bu potensial investorga mavjud mablag'larni investitsiya qilish maqsadida ma'lum bir investitsiya obyekti boshqalarga qaraganda qanchalik jozibadorligini baholashga imkon beradigan xususiyatlar to'plami hisoblanadi. Potensial investor investitsiyalar uchun kompaniya obyektlarini tanlashda va investitsion jozibadorligini baholashda e'tiborga oladigan asosiy omillar: ishlab chiqarishning texnologik omillari, resurslari, institutsional, normativ-huquqiy, infratuzilma omillari, eksport salohiyati, ishbilarmonlik obro'si va boshqalar. Yuqorida sanab o'tilgan omillarning har biri turli ko'rsatkichlar bilan tavsiflanishi mumkin”⁵. Investitsion jozibadorlik investorlar uchun muhim mezon bo'lib, kapitalni jalb qilish jarayonida katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu tushuncha investitsiya obyektining boshqa variantlarga nisbatan qanchalik foydali ekanligini aniqlash imkonini beradi. Investorlar sarmoya kiritishda ishlab chiqarish texnologiyasi va resurslar kabi muhim omillarni hisobga oladi. Shuningdek, infratuzilmaning rivojlanganligi va normativ-huquqiy sharoitlarning barqarorligi ham katta ta'sir ko'rsatadi. Kompaniyaning eksport salohiyati uning bozor imkoniyatlarini kengaytirib, investitsiyalar jozibadorligini oshiradi. Ishbilarmonlik obro'si va korporativ boshqaruvning shaffofligi investorlar ishonchini

⁵ Pahomov, V.A. (2005), Factors of investment attractiveness of enterprises - the contractor, Problems of entrepreneurship in Russia's economy, Interuniversity collection of proceedings, Issue No. 8, Moscow, Strategic management Technology, pp. 116-125

mustahkamlashga xizmat qiladi. Investitsion jozibadorlikni baholashda turli ko'rsatkichlar qo'llanilib, har bir omil alohida tahlil qilinadi. Samarali investitsiya muhitini yaratish kompaniyalarning kapital oqimini jalb qilish imkoniyatlarini oshiradi. Investorlar uzoq muddatli barqarorlik va daromadlilikka e'tibor qaratib, o'z qarorlarini qabul qiladi.

“Hozirgi sharoitda kompaniyaning investitsion jozibadorligini tavsiflovchi barcha parametrlar ichida innovatsion faoliyatni belgilaydigan asosiy parametrlar hisoblanadi. Bunday parametrlardan biri kompaniyaning innovatsion strategiyasidir”⁶. Innovatsion faoliyat kompaniyaning investitsion jozibadorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Innovatsion strategiya kompaniyaning raqobatbardoshligini mustahkamlash va bozor sharoitlariga moslashishiga yordam beradi. Texnologik yangiliklarni joriy etish investorlar uchun kompaniyaning istiqbolli ekanligini ko'rsatadi. Innovatsiyalarga yo'naltirilgan kompaniyalar kapital jalb qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

“Investitsion jozibadorlikni baholash muammosi uzoq vaqt davomida turli kompaniyalarning ko'plab tahlilchilarining ishini o'z ichiga oladi. Shu munosabat bilan “investitsion jozibadorlik” atamasini ta'riflashda ko'plab yondashuvlar mavjud. Korxonalar investitsion jozibadorligini belgilashda investorning turini, kompaniyaning profilini va ma'lum vaqtdagi investitsiya maqsadlarini hisobga olinishi lozim. Xo'jalik yurituvchi subyektlarni baholash usullari, shu jumladan, klassik va mualliflik usullarining investitsion jozibadorligi tahlil qilinadi. Zamonaviy ilmiy ishlarda mualliflar kompaniya faoliyat ko'rsatadigan iqtisodiyot tarmoqlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oladi. O'tkazilgan tadqiqotda mavjud baholash usullari investitsiya loyihasi samarasini o'lchashga qaratilganligi va ichki investorlar uchun uni oshirish vositalarini aniqlashga imkon berishi aniqlangan. Korxonalarning investitsion jozibadorligining bir qator muhim nazariy jihatlarini mazkur tushuncha bo'yicha tadqiqotlarni yanada rivojlantirishni talab qiladi. Xususan, sohadagi nodavlat kompaniyalar, xizmat ko'rsatuvchi

⁶ Yurii A. Rolik. A Complex Approach to Evaluating the Innovation Strategy of a Company to Determine its Investment Attractiveness. // Procedia - Social and Behavioral Sciences, Volume 99, 6 November 2013, Pages 562-571

kompaniyalar uchun korxonaning investitsion jozibadorligi atamasini ta'riflashda yagona yondashuv mavjud emas. Muayyan investorlar guruhi uchun investitsion jozibadorligini aniqlashga e'tibor yetarli emas"⁷. Korxonalarning investitsion jozibadorligini chuqur tadqiq etish ushbu tushunchaning yanada rivojlanishini talab qiladi. Xizmat ko'rsatuvchi va nodavlat kompaniyalar uchun yagona ta'rifning yo'qligi investitsion baholash jarayonini murakkablashtiradi. Turli investorlar guruhlari uchun investitsion jozibadorlik mezonlarini aniqlash muhim masalalardan biridir. Shu sababli, bu sohada yagona yondashuv va tizimli baholash metodikasini ishlab chiqish zarur. Investitsion jozibadorlikni aniqlashdagi ilmiy yondashuvlar kelajakda yanada takomillashtirilishi lozim.

“Kompaniyani sotib olayotganda, har qanday investor sotib olingan kompaniyaning barqaror moliyaviy holatiga, uning istiqbollari va kelajakdagi rivojlanishiga ishonishi kerak. Ushbu parametrlarning barchasini aniqlash, o'z navbatida, kompaniyaning investitsion jozibadorligi ko'rsatkichiga ta'sir qiladi. Shuning uchun kompaniyani sotib olish maqsadida uning investitsion jozibadorligini aniqlash hozirgi vaqtda dolzarb hisoblanadi”⁸. Investorlar kompaniyani sotib olishdan oldin uning moliyaviy barqarorligi va rivojlanish istiqbollarini chuqur tahlil qiladi. Kompaniyaning investitsion jozibadorligi yuqoridagi omillar asosida shakllanadi va qaror qabul qilishda muhim rol o'ynaydi. Investitsion jozibadorlikni aniqlash kompaniyaning kelajakdagi muvaffaqiyatini baholash imkonini beradi.

Guskova T.N., Krilov E.I., Roizman I.I. va boshqalar o'z ishlarini kompaniyaning investitsion jozibadorligini o'rganishga bag'ishlagan va bu atamaning ta'rifini tushunishga harakat qilishgan. “Hozirda investitsion jozibadorligi bo'yicha yagona ta'rif mavjud emas, chunki bu atamaning ta'rifi investitsion jozibadorlikni baholashdagi asosiy omillarga bog'liq”⁹. Investitsion

⁷ I.I. Glotova, E.P. Tomilina, B.A. Doronin, Yu.E. Klishina, O.N. Uglitskikh. Investment Attractiveness of the Company: Definition Approaches and Assessment Methods. // Proceedings of the International Conference on "Humanities and Social Sciences: Novations, Problems, Prospects" (HSSNPP 2019)

⁸ A.L.Zelezinskii, O.V.Arhipova, D.V.Hodos, V.S.Burko. MODERN APPROACHES TO DETERMINING THE INVESTMENT ATTRACTIVENESS OF A COMPANY FOR THE PURPOSE OF ITS ACQUISITION. // Экономический вектор №1(32) 2023

⁹ <https://www.unipo.sk/public/media/3831/ZBORNIK%202012.pdf>

jozibadorlikning yagona ta'rifi yo'qligi uning baholash mezonlarining turlicha ekanligini ko'rsatadi. Turli investorlar uchun muhim bo'lgan omillar har xil bo'lib, bu tushunchaning noaniqligiga sabab bo'ladi. Investitsion jozibadorlik iqtisodiy, moliyaviy va institutsional omillarga bog'liq holda o'zgarishi mumkin. Shuning uchun bu tushunchani aniqlash va baholashda moslashuvchan yondashuv talab etiladi. Kelajakda yagona va universal ta'rif ishlab chiqish investitsiya jarayonlarini aniqroq baholashga yordam berishi mumkin.

“Investitsion jozibadorlik - bu kompaniyaning investitsiyalar uchun to'lovga qodir talabini tavsiflovchi sifat va miqdoriy omillar tizimi”¹⁰. Investitsion jozibadorlik kompaniyaning sarmoya jalb etish qobiliyatini belgilovchi muhim ko'rsatkichdir. Bu tushuncha kompaniyaning moliyaviy barqarorligi va rentabelligiga bevosita bog'liq. Sifat va miqdoriy omillar tizimi investorlarga kompaniyaning ishonchliligi haqida aniq tasavvur beradi. Ushbu omillar to'g'ri baholansa, kompaniya uchun yangi investitsiya imkoniyatlari kengayadi. Shu sababli, investitsion jozibadorlikni oshirish kompaniyaning strategik maqsadlaridan biri bo'lishi kerak.

“Investitsion jozibadorlik - bu ma'lum bir kompaniyaga pul investitsiya qilishning maqsadga muvofiqligini tavsiflovchi keng qamrovli ko'rsatkich”¹¹. Investitsion jozibadorlik kompaniyaga sarmoya kiritishning samaradorligini baholashga yordam beruvchi asosiy ko'rsatkichdir. Ushbu ko'rsatkich moliyaviy barqarorlik, rentabellik va rivojlanish istiqbollari kabi omillarni o'z ichiga oladi. Kompaniyaning investitsion jozibadorligini aniqlash investorlar uchun muhim qarorlarni qabul qilishda asos bo'ladi. Bu ko'rsatkichni baholash kompaniyaning bozordagi mavqeini va potensial o'sishini aniqlashga yordam beradi. Shuning uchun investitsion jozibadorlik kompaniya uchun sarmoya jalb qilishda kalit omil hisoblanadi.

¹⁰ Севрюгин, Ю.В. Оценка инвестиционной привлекательности промышленного предприятия [Текст]: автореф. дис.... канд. экон. наук. Ижевск, 2004. 27с.

¹¹ Матвеев, Т.Н. Оценка инвестиционной привлекательности предприятия [Электронный ресурс] / Т.Н. Матвеев. Труды МГТА: электронный журнал. 26.09.11.

“Investitsion jozibadorlik - bu investor uchun yuqori ehtimollik bilan va tegishli vaqt ichida investitsiyalar orqali ijobiy foyda yoki boshqa ijobiy natija berishi mumkin bo‘lgan tashkilotning iqtisodiy rivojlanishining ma’lum bir holati”¹². Investitsion jozibadorlik kompaniyaning kelajakdagi foyda va o‘shish imkoniyatlarini baholashda muhim rol o‘ynaydi. Bu tushuncha investorlar uchun potensial daromad va xavf omillarini hisobga olishni talab etadi. Kompaniyaning ijobiy rivojlanish istiqbollari sarmoya kiritishga bo‘lgan ishonchni oshiradi. Investitsion jozibadorlik ko‘rsatkichlari kompaniyaning iqtisodiy barqarorligi va bozor sharoitlariga moslashuvchanligini ko‘rsatadi.

“Investitsion jozibadorlik - bu va’da va jozibadorlikning umumiy tavsifi, daromadlilik va investorlar yordamida tashkilotni rivojlantirishga investitsiya qilish xavfini minimallashtirish”¹³. Investitsion jozibadorlik kompaniyaning daromadlilik va rivojlanish potentsialini investorlar uchun jozibador qilishga yordam beradi. Bu tushuncha investitsiyalarni jalb qilishda xavflarni kamaytirish va foyda olish imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan. Investorlar uchun kompaniyaning barqaror o‘shishi va risklarni samarali boshqarish muhimdir. Investitsion jozibadorlikni baholash, shuningdek, sarmoya kiritish jarayonini aniqroq va ishonchli qilish imkonini beradi. Shu tarzda, investitsion jozibadorlik kompaniyaning rivojlanish istiqbollarini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

“Kompaniyaning investitsion jozibadorligi - asosiy kapitalga investitsiyalar shaklida namoyon bo‘ladigan mumkin bo‘lgan to‘lovga layoqatli talabni belgilaydigan turli xil obyektiv xususiyatlar to‘plami”¹⁴. Kompaniyaning investitsion jozibadorligi uning asosiy kapitaliga sarmoya kiritish imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Ushbu jozibadorlik turli obyektiv xususiyatlar, masalan, moliyaviy barqarorlik va rentabellik bilan tavsiflanadi. Investorlar kompaniyaning potentsial daromadlarini baholashda bu xususiyatlarga e’tibor qaratadi. Sarmoya kiritish

¹² Гуськова Т.Н. Методология статистического исследования инвестиционной привлекательности объектов: Автореф. дис. канд. экон. наук. Ростов-на-Дону: 2014.- с.9

¹³ Крылов Э.И., Власов В.М., Журавкова И.В. Анализ эффективности инвестиционной и инновационной деятельности субъекта хозяйствования. Учебник. – 2-е изд. – М.: Финансы и статистика, 2016. – 326 с.

¹⁴ Grishina I., Shakhnazarov A., Roizman I. A Comprehensive Assessment of Investment Attractiveness and Investment Activity in Russian Regions: a Methodology for Determining and Analyzing Relationships // Investments in Russia. 2001. No. 4. Pp. 5-16.

qarorlarini qabul qilishda kompaniyaning investitsion jozibadorligi asosiy mezonlardan biridir. Shunday boisdan investitsion jozibadorlik kompaniyaning raqobatbardoshligini va bozor imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi.

Tijorat banklarini rivojlantirishda investitsion jozibadorlikning roli katta ahamiyatga ega. Bankning investitsion jozibadorligi uning moliyaviy barqarorligi va o'sish potensialini aks ettiradi. Tijorat banklarida investitsion jozibadorlikni oshirish bankning moliyaviy barqarorligi va o'sishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Yuqori investitsion jozibadorlik bankni investorlar uchun jozibador qiladi, bu esa yangi kapitalni jalb qilish imkoniyatlarini oshiradi. Investorlar yuqori rentabellik va xavfsizlik darajasiga qiziqadi, shuning uchun banklar bu ko'rsatkichlarni ta'minlashga harakat qiladi. Shuningdek, investitsion jozibadorlikni oshirish bankning raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Innovatsion xizmatlar, samarali boshqaruv va yuqori sifatli mijozlarga xizmat ko'rsatish bankning bozor pozitsiyasini mustahkamlashga yordam beradi. Barqaror moliyaviy holat investorlar va mijozlar uchun ishonchni oshiradi. Banklar o'zining investitsion jozibadorligini oshirish orqali o'z kapitalini ko'paytirishlari mumkin, bu esa rivojlanish strategiyalarini amalga oshirishga yordam beradi. Xalqaro bozorga chiqish va diversifikatsiya qilish bankning investitsion jozibadorligini yanada oshiradi, yangi sarmoya oqimlarini jalb qiladi. Mijozlar uchun ishonchli va xavfsiz moliyaviy muhit yaratish bankning uzoq muddatli muvaffaqiyatiga hissa qo'shadi. Shuning uchun tijorat banklari investitsion jozibadorlikni oshirishga alohida e'tibor qaratishi lozim.

Tijorat banklarining investitsion jozibadorligini oshirish uchun bir nechta muhim strategiyalarni amalga oshirish zarur. Birinchi navbatda, banklar o'zining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratishlari lozim, chunki investorlar ishonchli va barqaror moliyaviy muhitni qidiradi. Ikkinchidan, tijorat banklari innovatsion xizmatlar va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali o'z mijozlari va investorlariga yangi imkoniyatlar yaratishlari kerak. Shuningdek, banklar samarali risk boshqaruvi tizimini ishlab chiqish orqali potensial investorlar uchun xavflarni minimallashtirishlari lozim. Uchinchidan, banklar raqobatbardosh

foiz stavkalari, shaffof moliyaviy hisobotlar va yaxshi tashkil etilgan mijozlarga xizmat ko'rsatish tizimini taqdim etishlari kerak. Qolaversa, tijorat banklari o'zlarining xalqaro va mahalliy bozorlardagi pozitsiyalarini mustahkamlash uchun strategik hamkorliklar o'rnatishi va diversifikatsiya qilishlari muhimdir. Bu omillar banklarning investitsion jozibadorligini oshirishga va yangi sarmoyalarni jalb qilishga yordam beradi.



1.1-rasm. Tijorat banklarining investitsion jozibadorligini oshirishdagi muhim ahamiyatga ega yo'nalishlar¹⁵

Tijorat banklarining investitsion jozibadorligini oshirishda quyidagi yo'nalishlar muhim ahamiyatga ega (1.1-rasm):

1. Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash. Banklar o'zining moliyaviy holatini mustahkamlashga va kapital salohiyatini oshirishga e'tibor qaratishlari zarur. Barqaror moliyaviy ko'rsatkichlar investorlar uchun muhim mezon hisoblanadi.

2. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish. Banklar raqamli banking va innovatsion xizmatlar (masalan, mobil banking, onlayn kreditlash) orqali mijozlar

¹⁵ Muallif tomonidan tayyorlangan

va investorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratishlari kerak. Bu o'z navbatida mijozlar bazasini kengaytiradi va bankning raqobatbardoshligini oshiradi.

3. Xizmat sifatini yaxshilash. Mijozlarga yuqori sifatli xizmat ko'rsatish, xususan, moliyaviy maslahatlar va tezkor xizmatlar investitsiyalarning ko'payishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, mijozlar bilan munosabatlarni yaxshilash bankning obro'sini oshiradi.

4. Risklarni boshqarish. Banklar samarali risk boshqaruvi tizimlarini yaratish orqali investitsiyalarning xavfini minimallashtirishlari kerak. Xavfsiz va barqaror muhit yaratish investorlar uchun muhimdir.

5. Diversifikatsiya va strategik hamkorliklar. Banklar o'z faoliyatini diversifikatsiya qilish, yangi bozorlar va segmentlarga kirish va xalqaro hamkorliklarni rivojlantirish orqali investitsion jozibadorlikni oshirishi mumkin. Bu nafaqat risklarni kamaytiradi, balki yangi sarmoya oqimlarini jalb etadi.

6. Moliyaviy shaffoflikni ta'minlash. Banklar o'z moliyaviy hisobotlarini shaffof va aniq taqdim etishlari kerak. Investorlar aniq va to'g'ri ma'lumotga asoslanib qarorlar qabul qilishadi.

7. Jahon bozorlariga integratsiya. Banklar xalqaro moliya bozorlariga kirish va global investorlarni jalb qilish uchun o'z xizmatlarini va mahsulotlarini optimallashtirishlari lozim. Bu global investitsiya oqimlarini jalb etishga yordam beradi.

8. Barqarorlik va ijtimoiy mas'uliyat. Barqaror moliyaviy mahsulotlar va ekologik, ijtimoiy mas'uliyatli loyihalarni moliyalashtirish orqali banklar o'zining investitsion jozibadorligini oshirishlari mumkin. Bu holat, ayniqsa, mas'uliyatli investitsiyalarni izlayotgan investorlar uchun muhimdir.

Tijorat banklari investitsion jozibadorligini oshirishda dividend siyosati va bankning kapital bozoridagi ishtiroki ham muhim rol o'ynaydi. Dividend siyosati investorlar uchun bankning rentabelligi va moliyaviy barqarorligini ko'rsatuvchi asosiy ko'rsatkichlardan biridir. Banklar dividendlarni yuqori darajada taqsimlash orqali investorlarni jalb qilishi mumkin, chunki bu ularning daromad olish istagini qondiradi. Biroq, dividend siyosatini belgilashda banklar o'z kapitalini oshirish va

investitsiya qilish imkoniyatlarini saqlab qolish uchun ehtiyotkorlik bilan yondashishlari lozim bo'ladi. Yuqori dividendlar investorlar uchun jozibador bo'lsa-da, ular bankning o'sish imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Kapital bozori esa tijorat banklarining investitsion jozibadorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Banklar kapital bozoridan sarmoya jalb qilish orqali o'zining rivojlanish strategiyalarini amalga oshirishlari mumkin. Bu bozor orqali chiqariladigan aksiyalar va obligatsiyalar orqali banklar yangi kapital oqimlarini jalb qilishadi. Shuningdek, kapital bozorida faoliyat yuritish bankning obro'sini oshiradi, bu esa investorlar uchun uning jozibadorligini oshiradi. Investorlar bankning kapital bozori faoliyati orqali uning barqarorligini va o'sish potensialini baholashadi. Shu sababli keying paragraflarda tijorat banklari investitsion jozibadorligini oshirishda dividend siyosati va kapital bozorining o'rnini va ahamiyatiga to'xtalib o'tamiz.

1.2 §. Tijorat banklari investitsion jozibadorligini oshirishda dividend siyosatining ahamiyati

Tijorat banklari investitsion jozibadorligini oshirishda dividend siyosatining roli muhim ahamiyat kasb etadi. Dividend siyosati bankning moliyaviy barqarorligi va rentabelligini ko'rsatuvchi muhim ko'rsatkichdir. Yuqori dividendlar investorlar uchun jozibador bo'lib, ular bankka sarmoya kiritish istagini oshiradi. Dividend siyosati bankning o'z kapitalini boshqarish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Banklar dividendlar to'lash orqali investorlarning ishonchini oshiradi va uzoq muddatli sarmoyalarni jalb qilish imkoniyatlarini yaratadi. Shu bilan birga, banklar dividend siyosatini ehtiyotkorlik bilan belgilashlari kerak, chunki yuqori dividendlar bankning o'sish strategiyalarini cheklashi mumkin. Samarali dividend siyosati bankning raqobatbardoshligini oshiradi va bozor pozitsiyasini mustahkamlaydi. Bundan tashqari, dividend siyosati mijozlar va sarmoyadorlar orasida ishonchni mustahkamlaydi, bu esa bankning imijini yaxshilaydi. Banklar dividend siyosatini

maqsadga muvofiq belgilash orqali o'z rentabelligini oshirish va investitsion jozibadorligini kuchaytirishlari mumkin.

“Korporativ dividend siyosati nafaqat aksiyadorlar uchun investitsiya daromadlarini olishning muhim vositasi, balki erkin pul oqimlarini cheklash va boshqaruvning shaxsiy imtiyozlarini cheklash uchun korporativ boshqaruv mexanizmi sifatida ham xizmat qiladi. Kreditorlar va korporativ insayderlar o'rtasidagi agentlik muammosi keng tarqalganligi sababli banklar aktivlar bo'yicha o'z da'volarini himoya qilish maqsadida dividendlar to'lashni cheklash uchun kredit shartnomalarida cheklovchi shartlarni qo'yishadi”¹⁶. Korporativ dividend siyosati aksiyadorlar uchun daromad manbai bo'lishi bilan birga boshqaruv faoliyatini tartibga soluvchi muhim vositadir. Bu siyosat kompaniyaning erkin pul oqimlarini samarali boshqarishga va boshqaruvchilarning shaxsiy manfaatlarini cheklashga yordam beradi. Kreditorlar, o'z manfaatlarini himoya qilish maqsadida, kompaniyaning dividend to'lovlarini cheklovchi shartlarni kredit bitimlariga kiritadi. Bu cheklovlar kompaniyaning qarz majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishini ta'minlashga xizmat qiladi. Natijada, dividend siyosati aksiyadorlar, kreditorlar va korporativ boshqaruv o'rtasidagi manfaatlar muvozanatini saqlashga yordam beradi.

“Global moliyaviy inqiroz davrida ko'plab banklar zarar ko'rganiga qaramay dividendlar to'lashda davom etdi, ba'zi banklar bankrot bo'lishdi yoki bankrotlikning oldini olish uchun davlat tomonidan moliyalashtirildi. Shu bilan birga bir qator mamlakatlar alohida banklarning omonatlarini tartibga solish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash maqsadida depozitlarni sug'urtalashning amaldagi sxemalarini kengaytirdi. Depozitlarni sug'urtalashning maksimal darajasining oshishi bank dividendlarining ko'payishiga yoki kamayishiga olib kelishi bo'yicha munozarali holatlar mavjud. Omonatlarni sug'urtalash banklarning omonatchilarga bankning moliyaviy ijobiy holati haqida ma'lumotlarni yetkazish uchun dividendlardan foydalanishga bo'lgan ehtiyojini

¹⁶ Wanli Li, Zhixuan Shen, Xi Wen. Access to banking and corporate dividend policy: Evidence from the distribution of bank branches in China. // Research in International Business and Finance, Volume 75, March 2025. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0275531924005245>

kamaytirish orqali dividend to'lovlarini kamaytirishga olib kelishi mumkin"¹⁷. Omonatlarni sug'urtalash bank mijozlarining omonatlari xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu jarayon banklarning o'z moliyaviy barqarorligini isbotlash uchun dividend to'lovlariga bog'liqligini kamaytiradi. Natijada, banklar dividend to'lovlarini qisqartirib, kapitalni ichki ehtiyojlarga yo'naltirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu holat bankning likvidlik va barqarorlik darajasini oshirishga yordam beradi. Shu sababli omonatlarni sug'urtalash banklarning dividend siyosatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Bank filiallari sonining ko'payishi va qamrovining kengayishi firmalarning bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytiradi, bu esa banklar o'rtasida raqobatni keltirib chiqaradi va ikkita asosiy mexanizm orqali korporativ dividendlar bo'yicha qarorlarga ta'sir qiladi. "Birinchidan, banklar naqd pul oqimining kamayib ketishining oldini olish uchun firmalarning dividendlarini to'lashni cheklash uchun imtiyozlarga ega bo'lsa-da, ularning dividendlarni cheklash qobiliyati ularning savdolashish qobiliyatiga bog'liq"¹⁸. "Ikkinchidan, bank filiallarining kengayishi korporativ kredit olish imkoniyatini oshiradi va firmalarning moliyaviy cheklovlarini yengillashtiradi. Deregulyatsiya banklarga firmalar yaqinida ko'proq filiallar ochish imkonini berganligi sababli banklar kredit taklifini ko'paytirishga va raqobatdosh ustunlikka erishish uchun yaxshiroq shartlarni taklif qilishga moyilligi yuqori hisoblanadi"¹⁹. Tashqi moliyalashtirishning yuqori imkoniyatlari korporativ daromadning katta qismini saqlab qolishga bog'liqligini kamaytiradi, bu esa banklarning aksiyadorlarga dividendlarni taqsimlash ehtimolini oshiradi. Shu sababli bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarining ortishi bank raqobatining kuchayishi orqali korporativ dividendlar to'lashning oshishiga olib keladi.

¹⁷ Edie Erman Che Johari, Dimitris K. Chronopoulos, Bert Scholtens, Anna L. Sobiech, John O.S. Wilson. Deposit insurance and bank dividend policy. // Journal of Financial Stability, Volume 48, June 2020; <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1572308920300231>

¹⁸ L. Allen, A. Gottesman, A. Saunders, Y. Tang. The role of banks in dividend policy. // Financ. Manag., 41 (3) (2012), pp. 591-613

¹⁹ T. Rice, P.E. Strahan. Does credit competition affect small-firm finance? J. Financ., 65 (3) (2010), pp. 861-889.

“Ko‘p sonli tadqiqotlarda dividend siyosatining asosiy ko‘rsatkichlari korporativ boshqaruv va tashqi institutsional muhit nuqtai nazaridan o‘rganib chiqilgan. Biroq, bank raqobatining kuchayishi natijasida yuzaga kelgan kredit ta‘minoti korporativ dividend siyosatiga qanday ta‘sir qilishi hozirgacha o‘rganilmagan. Bank kreditidan foydalanish imkoniyati va korporativ dividend to‘lov darajasi o‘rtasidagi salbiy munosabatlar haqidagi oldingi xulosalardan farqli o‘laroq hozirda bank faoliyatini tartibga solish sharoitida bank raqobatining kuchayganligini inobatga olish orqali bank xizmatlaridan ko‘proq foydalanish korporativ dividend to‘lov darajasini oshirishi haqida yangi tushuncha shakllanmoqda”²⁰. Dividend siyosati korporativ boshqaruv va tashqi institutsional muhit nuqtai nazaridan keng o‘rganilgan. Biroq, bank raqobatining ortishi natijasida yuzaga kelgan kredit ta‘minotining dividend siyosatiga ta‘siri hali yetarli darajada tahlil qilinmagan. Ilgari bank kreditlarining mavjudligi dividend to‘lovlarini kamaytirishi mumkinligi ta‘kidlangan. Ammo hozirgi tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, kuchaygan bank raqobati kompaniyalarning dividend to‘lovlarini oshirishiga turtki bo‘lishi mumkin. Bu holat moliyaviy qarorlarni shakllantirishda bank xizmatlarining rolini yanada muhimlashtiradi.

“Islom banklari agentlik muammolarini va insayderlar tomonidan ekspropriatsiya qilish xavfini yengillashtirishda dividend siyosatidan muqobil mexanizm sifatida foydalanadi. Ushbu bozorlarda an‘anaviy banklar ko‘proq raqobat muhitida ishlaydi va agentlik muammolari nisbatan kamroq ahamiyatga ega. Islom banklaridan farqli o‘laroq an‘anaviy banklar dividendlarning yakuniy agentlik modeliga amal qiladi. Umuman olganda moliyaviy kompaniyalarning, xususan, an‘anaviy va islom banklarining dividend siyosati ilmiy adabiyotlarda yetarlicha o‘rganilmagan”²¹. Islom banklari dividend siyosatini agentlik muammolarini kamaytirish vositasi sifatida qo‘llaydi. An‘anaviy banklar esa ko‘proq raqobat sharoitida faoliyat yuritib, agentlik muammolariga kamroq duch keladi. Islom banklaridan farqli ravishda an‘anaviy banklar dividendlarning

²⁰ Saunders, A., Allen, L., Gottesman, A., Tang, Y. The role of banks in dividend policy. // Working Papers, 2009.

²¹ Seyed Alireza Athari, Cahit Adaoglu, Eralp Bektas. Investor protection and dividend policy: The case of Islamic and conventional banks. // Emerging Markets Review, Volume 27, June 2016, Pages 100-117.

agentlik modeliga amal qiladi. Shu sababli ularning dividend siyosati farqli yondashuvlarga asoslanadi. Umuman olganda, an'anaviy va islom banklarining dividend siyosati ilmiy jihatdan yetarlicha tadqiq qilinmagan.

“Jahon moliyaviy inqirozi Yevropada bank sanoatining kapital bazasi haqida munozaralarga sabab bo'ldi. Dividendlarni qisqartirish va o'tkazib yuborish daromadlarni ushlab turish orqali banklarning moliyaviy mustahkamligini yaxshilash imkoniyatlaridan biri sifatida taklif qilingan. Biroq, investorlar dividendlarning qisqarishini kelajakdagi muammolar belgisi sifatida talqin qilishlari mumkinligidan xavotirlar mavjud. Dividend to'lovlari bo'yicha signallar va dividendlarni yumshatish gipotezalari mavjudligi mazkur xavotirlar uchun nazariy asos vazifasini bajaradi”²². Investorlar uchun dividendlarning qisqarishi kompaniyaning moliyaviy barqarorligiga shubha tug'dirishi mumkin. Ushbu holat kelajakdagi muammolar belgisi sifatida talqin qilinishi va aksiyadorlarning ishonchini pasaytirishi ehtimoli bor. Korporativ boshqaruv dividend siyosatini shaffof yuritish orqali bunday xavotirlarni kamaytirishi mumkin. Barqaror va prognoz qilinadigan dividend strategiyasi investorlar ishonchini mustahkamlashga yordam beradi. Shu boisdan kompaniyalar dividendlar bo'yicha qarorlar qabul qilayotganda bozor reaksiyasini ham hisobga olishi lozim.

Bhattacharyya “to'g'ri olib borilgan kelajakdagi empirik tadqiqotlar dividend siyosatining asosiy iqtisodiy nazariyalarining barcha oqibatlarini hisobga olishi zarur”²³ deya ta'kidlagan. Kelajakdagi empirik tadqiqotlar dividend siyosatini chuqur tahlil qilish uchun asosiy iqtisodiy nazariyalarni keng qamrab olishi kerak. Barcha oqibatlarni hisobga olish natijasida dividend qarorlariga ta'sir etuvchi omillar yaxshiroq tushuniladi. Bu yondashuv korporativ moliyaviy strategiyalarni shakllantirishda ilmiy asoslangan tavsiyalar berishga yordam beradi. Shuningdek, turli bozor sharoitlari va institutsional omillarning dividend siyosatiga ta'siri chuqurroq o'rganilishi lozim. Natijada, kompaniyalar dividend

²² Tobias Basse, Sebastian Reddemann, Johannes-Jörg Riegler, J.-Matthias Graf von der Schulenburg. Bank dividend policy and the global financial crisis: Empirical evidence from Europe. // European Journal of Political Economy, Volume 34, Supplement, June 2014, Pages S25-S31

²³ N. Bhattacharyya. Dividend policy: a review. // Manag. Finance, 2007

strategiyalarini yanada samarali rejalashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. T. Basse “muhim makroiqtisodiy o‘zgaruvchi dividendlar o‘shining asosiy omili ekanligi, inflyatsiya tegishli bo‘lishi mumkinligi, bu odatda, dividendlarni aniqlash nazariyalarining empirik testlarida e‘tiborga olinmasligi”²⁴ni qayd etgan.

“Dividendlarni to‘lash siyosati eng ko‘p muhokama qilinadigan mavzulardan biri va korporativ moliyaning asosiy nazariyasi bo‘lib, u hanuzgacha o‘z ahamiyatini saqlab qoladi. Ko‘pgina tadqiqotchilar turli nazariyalar va empirik dalillarni taqdim etdi, ammo bu muammo haligacha hal etilmagan va keyingi muhokama uchun ochiq. Iqtisodiy adabiyotlarda hal qilinmagan muammolar o‘ntaligiga kiradi va firmalarning kuzatilgan dividend xatti-harakatlari uchun adekvat izohga ega emas”²⁵. Dividend siyosati korporativ moliyaning eng muhim va ko‘p muhokama qilinadigan yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Turli tadqiqotchilar bu borada nazariy va empirik dalillar taqdim etgan bo‘lsalar ham masala hanuz to‘liq hal etilmagan. Ushbu mavzu iqtisodiy adabiyotlarda hal qilinmagan asosiy muammolar qatoriga kiradi. Mavjud nazariyalar firmalarning dividend xatti-harakatlarini to‘liq tushuntirish uchun yetarlicha asos bermaydi. Shu sababli dividend siyosati bo‘yicha ilmiy izlanishlar davom etishi zarur.

“Dividendning roli hali ham muammoli holatlardan hisoblanadi. Korxonalar dividendlar to‘lashining bir nechta sabablar mavjud. Odatda, kompaniya foydani taqsimlashda, aksiyadorlar o‘rtasida taqsimlash yoki qayta investitsiya uchun saqlab qolish muammosiga duch keladi. Taqsimlanmagan foyda moliyalashtirishning asosiy ichki manbasidir, ammo taqsimlanmagan foydaning yuqoriligi dividendlarni kamaytirish ehtimolini anglatadi. Firmalarda qanchalik foyda yuqori bo‘lsa, ular shunchalik ko‘p ichki moliyalashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Deyarli har bir korxona dividend siyosatini qabul qiladi, bunda sof foydaning bir qismi dividendlar to‘lash uchun xavf tug‘dirmaydigan tarzda saqlanib qoladi”²⁶. Firmalarning foydasi oshgan sari ular ichki moliyalashtirish

²⁴ T. Basse. Dividend policy and inflation in Australia: results from cointegration tests. // Int. J. Bus. Manag., 2009.

²⁵ Franklin Allen, Roni Michaely. Payout Policy. // Handbook of the Economics of Finance, Volume 1, Part A, 2003, Pages 337-429

²⁶ F. Black. The dividend puzzle. // Journal of Portfolio Management, 1976

manbalaridan ko‘proq foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ko‘plab kompaniyalar dividend siyosatini qabul qilib, bu siyosatni foyda taqsimotini boshqarishda muhim vosita sifatida ishlatadi. Dividend to‘lovlari kompaniyaning sof foydasining bir qismini tashkil qiladi va shu bilan birga uning moliyaviy barqarorligini saqlashga yordam beradi. Bu jarayon, odatda, xavf tug‘dirmasdan amalga oshiriladi, chunki kompaniyalar avval mablag‘larni boshqa zarur ehtiyojlar uchun ajratadi. Natijada dividend siyosati firmalarning moliyaviy holatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

“Dividend siyosati masalasi bir necha sabablarga ko‘ra muhim ahamiyatga ega. Birinchidan, bank tashqi potensial investorlarga firma barqarorligi va o‘shish istiqbollari to‘g‘risida moliyaviy signal berish vositasi sifatida foydalanishi mumkin. Ikkinchidan, dividend bank kapitali tarkibida asosiy rol o‘ynaydi. “Qoldiq dividend” nazariyasiga ko‘ra, agar kompaniya foydali investitsiya qilish imkoniyati bo‘lmasa, dividend to‘laydi. Shu sababli turli tadqiqotchilar dividend va investitsiya qarorlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’kidlaydi”²⁷.

“Dividend siyosati firma yoki bank moliyaviy boshqaruvining hal qiluvchi jihati bo‘lib, kapitalni jalb qilish, tashqi investitsiyalar va kapital bozorini rivojlantirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Majoritar va minoritar aksiyadorlar o‘rtasida yoki aksiyadorlar va kreditorlar o‘rtasida nizolar mavjud bo‘lganda kompaniyalar naqd dividendlarni to‘lashdan risklarni o‘zgartirish vositasi sifatida foydalanishlari mumkin”²⁸. Majoritar va minoritar aksiyadorlar yoki aksiyadorlar va kreditorlar o‘rtasida nizolar yuzaga kelganda, kompaniyalar naqd dividendlarni to‘lash orqali risklarni boshqarish vositasi sifatida foydalanishi mumkin. Dividend to‘lovlari naqd pul oqimini aksiyadorlarga qaytarish orqali majoritar aksiyadorlarning mablag‘larni o‘z manfaatlariga yo‘naltirish ehtimolini kamaytiradi. Shu bilan birga, kreditorlar uchun dividend siyosati kompaniyaning moliyaviy intizomiga ishora bo‘lib, qarz xizmatlarini ta’minlash qobiliyatini aks

²⁷ Kashif Imran, Muhammad Usman, Muhammad Nishat. Banks dividend policy: Evidence from Pakistan. // *Economic Modelling*, Volume 32, May 2013, Pages 88-90.

²⁸ V.V. Acharya, H.T. Le, H.S. Shin. Bank capital and dividend externalities. // *Rev. Financ. Stud.*, 30 (3) (2013), pp. 988-1018

ettirishi mumkin. Bunday sharoitda dividend to'lovlari agentlik muammolarini kamaytirishga yordam beradi.

“Menejerlar, odatda, aksiyadorlarga qaraganda firma haqida ko‘proq ichki ma’lumotlarga ega, chunki ular kundalik operatsiyalarni nazorat qilishadi. Ushbu ma’lumotlarning assimetriyasi menejerlarga aksiyadorlar hisobidan o‘zlariga foyda keltiradigan faoliyat bilan shug‘ullanish imkonini beradi. Shuning uchun dividendlarni to‘lash ichki bo‘sh pul oqimlarini cheklash va menejerlarni kapital bozori intizomiga bo‘ysundirish orqali agentlik xarajatlarini kamaytirishda foydali vosita bo‘lishi mumkin”²⁹.

Sh.Abdullayeva va A.Omonovlar fikricha, “tijorat banklari yilni sof foyda bilan yakunlaganligini bank aksiyadorlariga to‘lagan dividendlar miqdori, bank kapitalini kapitalizatsiya qilinayotgan mablag‘lar hajmidan ham aniqlash mumkin... Bank aksiyadorlarining nuqtai nazaridan olib qaraganda bankning oddiy aksiyalarini sotib olishga sarflangan mablag‘lar aksiyadorlar uchun yuqori riskli hisoblanadi. Chunki aksiyadorlar oddiy aksiya uchun faqat dividend oladilar. Dividend esa bankning sof foydasi hisobidan to‘lanadi. Holbuki, bankning istalgan majburiy to‘lovlari va zaxiralari miqdori moliyaviy yil davomida keskin o‘zgarishi mumkin”³⁰. Tijorat banklarining yil yakunidagi moliyaviy natijalarini baholashda ularning to‘lagan dividendlari va kapitalizatsiya qilingan foydasi muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Aksiyadorlar nuqtai nazaridan oddiy aksiyalarni sotib olish riskli hisoblanadi. Shu sababli aksiyadorlar uchun dividend siyosati va bankning umumiy barqarorligi katta ahamiyatga ega.

B.T.Berdiyarov banklarda dividend to‘lovlari darajasi bo‘yicha bir qator fikrlar bildirgan bo‘lib, “bank kapitalining tannarxida ta’sischilarning dividendlari va joriy inflyatsiya darajasi mavjud. Amaldagi qonun talablariga ko‘ra aksionerlarga to‘lanishi lozim bo‘lgan dividend miqdori iqtisodiyotdagi inflyatsiya

²⁹ H. DeAngelo, L. DeAngelo, D.J. Skinner. Corporate payout policy. // Found. Trends Finance, 3 (2–3) (2009), pp. 95-287

³⁰ Ш.Абдуллаева, А.Омонов. Тижорат банклари капитали ва уни бошқариш. // Ўқув қўлланма. – Т.: “ИҚТИСОД-МОЛИЯ”, 2006. – 120 б.

darajasidan kam bo'lmisligi kerak"³¹. Bank kapitalining shakllanishida ta'sischi'larga to'lanadigan dividendlar va inflyatsiya darajasi muhim rol o'ynaydi. Kapital tannarxiga ushbu omillar bevosita ta'sir qiladi. Aksiyadorlarga to'lanadigan dividend miqdori inflyatsiya darajasidan kam bo'lmisligi lozim. Chunki aksiyadorlarning real daromadini saqlab qolish muhim hisoblanadi.

U. Xalikov "dividendlardan olinadigan daromadlarning soliqqa tortilishi, o'z navbatida, aholi real daromadlarining nisbatan kamayishiga olib kelishi"³²ga e'tibor qaratgan. Dividendlardan olinadigan daromadlar soliqqa tortilishi belgilangan tartibga muvofiq amalga oshiriladi. Bu holat aksiyadorlar oladigan sof daromad miqdorini kamaytiradi. Natijada, aholining investitsiyadan olinadigan real daromadi pasayadi. Bu esa aksiyadorlikka bo'lgan qiziqishni susaytirishi mumkin. Shu bois hozirda mamlakatimizda aksiyador jismoniy shaxslarning dividend ko'rinishidagi daromadi daromad solig'idan vaqtinchalik ozod qilingan.

Z. Ashurov "aksiyadorlik kapitali samaradorligini oshirishda dividend siyosatining aniq tamoyillari va tartibotini belgilash hamda aksiyadorlarga dividendlar to'liq va o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash"³³ zarurligini ta'kidlagan. Aksiyadorlik kapitali samaradorligini oshirish uchun dividend siyosatining aniq va shaffof tamoyillarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Bu siyosat asosida aksiyadorlar o'z huquqlari va daromad manbalariga nisbatan ishonch hosil qiladi.

"Aksariyat kompaniyalar yuqori dividend to'lash orqali barqaror dividend siyosatiga amal qilishadi va bu orqali aksiyalarning bozor qiymatini oshirishi mumkin, deb hisoblashadi. Bundan tashqari, bozorda bunday kompaniyalarning obro'si yaxshilanmoqda va investorlar ham bunday kompaniyalarni ma'qul ko'rmoqda. Shunday qilib, ushbu siyosatni olib boradigan kompaniyalar zarur bo'lganda kompaniya faoliyatini kengaytirish va rivojlantirish uchun qo'shimcha

³¹ Б.Т. Бердияров. ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ ЛИКВИДЛИЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ НАЗАРИЙ МАСАЛАЛАРИ. // "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 4, июль-август, 2016 йил. – 6 бет

³² У.Р.Халиков. Ўзбекистонда фонд бозори орқали инвестицион фаолиятни молиялаштиришни такомиллаштириш. // Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати, Тошкент, 2017. – 15 бет

³³ Ашуров Зуфар Абдуллаевич. КОРПОРАТИВ БОШҚАРУВНИНГ ТАШКИЛИЙ-ИҚТИСОДИЙ МЕХАНИЗМИ ВА УНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. // "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 4, июль-август, 2017 йил. – 18-19 бетлар

mablagʻ toʻplash uchun bozorga muvaffaqiyatli murojaat qilishlari mumkin³⁴. Koʻplab kompaniyalar yuqori dividend toʻlash orqali barqaror dividend siyosatini yuritishga intiladi. Bunday yondashuv aksiyalarning bozor qiymatini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, bu kompaniyalarning bozordagi obroʻsini oshirib, investorlar orasida ishonch uygʻotadi. Natijada kompaniyalar zarurat tugʻilganda qoʻshimcha mablagʻ jalb qilish imkoniyatiga ega boʻladi.

X.Xudoyqulov fikricha, “aksiyadorlik jamiyatining kapital qiymatini baholashda toʻlanadigan dividendlar miqdori hamda dividendlarning foizlar orqali kapital qiymatini baholash eng maqbul yoʻl³⁵ hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyatining kapital qiymatini aniqlashda dividendlar miqdori muhim koʻrsatkich hisoblanadi. Dividendlar asosida kapital qiymatini baholash usuli investorlar uchun qulay va tushunarli hisoblanadi. Ayniqsa, dividendlarning foiz daromadlari orqali kapital qiymatini aniqlash eng maqbul yoʻllardan biri sanaladi. Bu yondashuv kompaniyaning investorlar oldidagi moliyaviy jozibadorligini koʻrsatadi.

Bir guruh tadqiqotchilar oqilona dividend siyosati aksiya narxiga ijobiy taʼsir koʻrsatishiga, shuningdek, raqobatchi kompaniyalar tomonidan kompaniyalarning qoʻshib olinishining oldini olishga yordam berishini ham taʼkidlab oʻtishgan³⁶.

“Bozor iqtisodiyoti sharoitida aksiyadorlik jamiyatida dividend siyosatini ishlab chiqish korporativ boshqaruvning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Dividend siyosatining asosiy maqsadi mulkdorlar tomonidan foydaning joriy isteʼmol qilinishi va uning kelajakdagi oʻsishi oʻrtasida optimal mutanosiblikni oʻrnatishdan iborat. Shuningdek, yuridik va jismoniy shaxslarning aksiyalarni xarid qilishlaridan asosiy maqsad dividend orqali daromadga ega boʻlish hisoblanadi. Bu esa, oʻz navbatida, dividend siyosatining ahamiyatini ochib

³⁴ Elmirzayev, S. and Omonov, S. (2020) "DIVIDEND POLICY ANALYSIS IN DEVELOPED COUNTRIES AND DIVIDEND ARISTOCRATS," International Finance and Accounting: Vol. 2020 : Iss. 2 , Article 22.

Available at: <https://uzjournals.edu.uz/interfinance/vol2020/iss2/22>

³⁵ X.X.Худойқулов. МУЛЬТИПЛИКАТОР КОЭФФИЦИЕНТЛАР ОРҚАЛИ АКЦИЯДОРЛИК ЖАМИЯТЛАРНИ КАПИТАЛ ҚИЙМАТИНИ БАҲОЛАШ. // “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали. № 6, декабрь, 2019 йил

³⁶ Kurbonov, J. PhD; Kholikov, U. PhD; Shukurullaev, M.; and Atabaev, Sh. (2021) "INCREASING BUSINESS VALUE AND PROFIT DISTRIBUTION MECHANISM: ANALYSIS OF GLOBAL PRACTICE," International Finance and Accounting: Vol. 2021 : Iss. 1 , Article 3. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/interfinance/vol2021/iss1/3>

beradi”³⁷. Mazkur siyosat mulkdorlar foydasining hozirgi iste'moli va kelajakdagi o'sishini muvozanatlashtirishga xizmat qiladi. Aksiyalarni sotib oluvchi yuridik va jismoniy shaxslarning asosiy maqsadi – dividend tarzida daromad olishdir. Shu sababli dividend siyosati aksiyadorlar uchun katta ahamiyat kasb etadi.

“Oqilona dividend siyosati aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilishda va qimmatli qog'ozlar bozorida kompaniyaning aksiyalarini jozibadorligini oshirishga yordam beradi. Agar dividendlar o'z vaqtida to'lansa va moliyaviy menejerlar kompaniyani samarali nazorat qilsa, bu aksiyalar narxini va investitsion jozibadorlikni oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu jihatlar kompaniyaning xalqaro imidjini shakllantirish va kapital jalb qilishda IPO (Initial Public Offering) va SPO (Secondary Public Offering)ni samarali tashkil etish imkoniyatini beradi. Aksiyalarni ommaviy joylashtirishda dividendlarni muntazam to'lash juda muhim, chunki bu potesial investorlarni jalb qilishda muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Investorlar esa dividendlarni to'lash va reinvestitsiyalash o'rtasidagi nisbatga alohida e'tibor qaratishini ta'kidlab o'tishimiz lozim”³⁸. Oqilona dividend siyosati aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilishda muhim vosita hisoblanadi. Dividend siyosati kompaniya aksiyalarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi jozibadorligini oshirishga yordam beradi. Dividendlarning o'z vaqtida to'lanishi investorlar ishonchini mustahkamlaydi. Moliyaviy menejerlarning samarali nazorati esa kompaniyaning umumiy qiymatini oshiradi.

Dividend siyosatining nazariy asoslari korporativ moliya sohasida muhim o'rinni egallaydi va turli yondashuvlar orqali izohlanadi. Ushbu nazariyalar firmalarning dividend to'lash qarorlarini tushuntirishga yordam beradi.

Quyida dividend siyosatining asosiy nazariyalari keltirilgan (1.2-rasm):

1. Modigliani va Miller (M&M) nazariyasi

Modigliani va Miller o'z nazariyasida mukammal bozor sharoitida dividend siyosati firmalarning qiymatiga ta'sir qilmasligini ta'kidlaydi. Ularning fikricha,

³⁷ Sherquziyeva, N. and Akhmedov, R. (2019) "THE MECHANISM OF DISTRIBUTING THE PROFIT AND DIVIDEND POLICY," International Finance and Accounting: Vol. 2019: Iss. 6, Article 4. <https://uzjournals.edu.uz/interfinance/vol2019/iss6/4>

³⁸ Sherkuzieva, N. and Omonov, S. (2020) "THE CURRENT STATE OF DIVIDEND POLICY IN JOINT-STOCK COMPANIES IN UZBEKISTAN AND ITS DEVELOPMENT WAYS, "International Finance and Accounting": Vol. 2020 : Iss. 5 , Article 16. – P.8. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/interfinance/vol2020/iss5/16>

aksiyadorlar dividend olish yoki kompaniyaning ichki investitsiyalar orqali o'sishidan foyda ko'rish o'rtasida indifferent bo'ladi. Ushbu nazariya quyidagi shartlar asosida amal qiladi:

- Soliq va tranzaksiya xarajatlari mavjud emas;
- Bozor mukammal ishlaydi va barcha investorlar bir xil axborotga ega.
- Dividend siyosati kapital tuzilishiga ta'sir qilmaydi.

Reallikda esa, soliq va tranzaksiya xarajatlari mavjud bo'lgani sababli bu nazariya cheklolarga ega.

2. "Qo'ldagi qush" nazariyasi (Lintner va Gordon Modeli)

Bu nazariyaga ko'ra, investorlar kelajakdagi kapital o'sishiga qaraganda darhol olinadigan dividendlarni afzal ko'radi. Chunki kelajakdagi foyda noaniq va xavfli bo'lishi mumkin. Shuning uchun yuqori dividend siyosati aksiyadorlar uchun ijobiy signal bo'lib, kompaniya aksiyalarining narxini oshirishga yordam beradi.

3. Soliq differensial nazariyasi

Ba'zi mamlakatlarda dividendlarga nisbatan kapital o'sishiga pastroq soliq solinadi. Bu holat firmalarni dividend to'lashdan ko'ra, foydani ichki investitsiyalarga yo'naltirishga undaydi. Ushbu nazariyaga ko'ra, aksiyadorlar kamroq dividend to'lovlarini afzal ko'rishi mumkin, chunki kapital o'sishdan olinadigan foyda soliq jihatdan foydaliroq bo'lishi mumkin.

4. Agentlik nazariyasi

Jensen va Meckling tomonidan ilgari surilgan agentlik nazariyasiga ko'ra, kompaniya boshqaruvchilari va aksiyadorlari o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lishi mumkin. Dividend to'lovlari erkin pul oqimlarini kamaytirish orqali boshqaruvchilarning resurslardan noto'g'ri foydalanish xavfini pasaytiradi. Shu bois, dividend to'lovlari aksiyadorlar va boshqaruvchilar o'rtasidagi agentlik muammolarini yumshatishga yordam beradi.

5. Signallash nazariyasi

Dividend siyosati investorlarga kompaniyaning moliyaviy holati haqida muhim signal bo'lishi mumkin. Agar kompaniya dividendlarni oshirsa, bu uning


kelajakda barqaror daromad olishiga ishonch bildirishi mumkin. Aksincha, dividendlarning qisqarishi kompaniyaning moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelganligidan darak berishi mumkin.

6. Hayot sikli nazariyasi

Bu nazariyaga ko'ra, kompaniyaning dividend siyosati uning rivojlanish bosqichiga bog'liq. O'sish bosqichidagi firmalar kapitalni investitsiyalarga yo'naltirgan holda kamroq dividend to'laydi yoki umuman dividend bermaydi. Biroq, yetuk kompaniyalar barqaror daromad oqimiga ega bo'lib, aksiyadorlarga muntazam dividend to'lashga moyil bo'ladi.

7. Erkin pul oqimi nazariyasi

Bu nazariya dividend siyosatini boshqaruvchilarning ixtiyoridagi erkin pul oqimi nuqtai nazaridan tushuntiradi. Agar kompaniyaning erkin pul oqimi ko'p bo'lsa va foydali investitsiya imkoniyatlari cheklangan bo'lsa, u dividend to'lovlarini oshiradi. Aksincha, o'sish imkoniyatlari yuqori bo'lgan kompaniyalar dividend to'lovlarini cheklashga harakat qiladi.



1.2-rasm. Dividend siyosatining asosiy nazariyalari³⁹

³⁹ Muallif tomonidan tayyorlangan

Yuqoridagilar asosida ta'kidlash mumkinki, dividend siyosati bo'yicha turli nazariyalar mavjud bo'lib, har biri ma'lum sharoitlarda muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliyotda kompaniyalar, shu jumladan, banklar ushbu nazariyalarning kombinatsiyasidan foydalanib, o'ziga mos dividend strategiyasini ishlab chiqadi.

Tijorat banklarining dividend siyosati ularning moliyaviy holatini, rentabelligini va investorlar bilan munosabatlarini aks ettiruvchi muhim omildir. Dividend siyosatining o'ziga xos jihatlarini tushunishda tarixiy misollar katta ahamiyatga ega. Masalan, 2008-yilgi global moliyaviy inqirozdan so'ng, ko'plab tijorat banklari dividendlarni kamaytirishga yoki umuman to'lashni to'xtatishga qaror qilishdi. Bu qaror banklar uchun moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va kapitalni saqlab qolish uchun zarur bo'lgan choralar edi. Dividend siyosatining o'ziga xos jihatlar bankning moliyaviy holatiga, uning o'sish strategiyasiga va bozor sharoitlariga qarab o'zgaradi.

2015-yilda Deutsche Bank o'z dividendlarini kamaytirganini e'lon qildi. Bu qaror bankning kapital ehtiyojlarini qoplash va kelajakdagi o'sish imkoniyatlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida qabul qilindi. Bunday o'zgarishlar bankning moliyaviy holatiga qarab amalga oshiriladi. Dividend siyosati orqali banklar investorlarga yuqori rentabellik va barqarorlikni ta'minlashni istashadi. Biroq, ba'zi hollarda, dividend to'lovlarini vaqtincha kamaytirish yoki to'lamaslik bankning o'zining moliyaviy ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi. Misol tariqasida, 2020-yilda, COVID-19 pandemiyasi davrida ko'plab tijorat banklari dividend to'lovlarini to'xtatdi yoki kamaytirdi, chunki ular o'z kapital bazasini mustahkamlash va iqtisodiy inqirozga qarshi kurashish zaruratini his qilishdi.

Tijorat banklarining dividend siyosati, odatda, ularning moliyaviy mustahkamligini saqlashga qaratilgan. Dividendlarni to'lash miqdori va ularning muntazamligi bankning umumiy iqtisodiy holatiga bog'liq bo'ladi. 2019-yilda JPMorgan Chase o'zining dividend siyosatini kuchaytirgan holda investorlar uchun jozibador bo'lishga erishdi. Bank bu yil dividendlarni oshirdi va bu investorlar uchun yaxshi daromad manbaiga aylantirdi. Dividendlar bankning raqobatbardoshligini oshiradi va bozor imidjini mustahkamlashga yordam beradi. Shu bilan birga, yuqori

dividendlar bankning o'sish imkoniyatlarini cheklashi mumkin, chunki ular o'z kapitalini tezda oshira olmaydi.

Dividend siyosatining o'ziga xos jihatlari moliyaviy boshqaruvni o'z ichiga oladi. Banklar dividendlarni to'lashda o'zining uzoq muddatli o'sish va rivojlanish strategiyalarini hisobga olishlari kerak. Masalan, Bank of America 2021-yilda dividendlarni oshirishni rejalashtirgan edi, bu esa bankning moliyaviy barqarorligini va investorlar ishonchini mustahkamladi. Dividend siyosati bankning bozor pozitsiyasini mustahkamlashda va sarmoyalarni jalb qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shunday qilib, tijorat banklarining dividend siyosati ularning moliyaviy holati, barqarorlik, o'sish strategiyalari va iqtisodiy sharoitlariga qarab o'zgaradi. Ularni o'rganish investorlar uchun bankning jozibadorligini baholashda asosiy omil hisoblanadi. Dividend siyosati samarali amalga oshirilganda, bankning moliyaviy holati mustahkamlanadi va uzoq muddatli barqaror o'sish ta'minlanadi.

Tijorat banklarida dividend siyosatini tashkil etish mohiyatan bankning moliyaviy strategiyasining muhim jihatlari o'z ichiga oladi. Dividend siyosati bankning foydasini qanday taqsimlashini va investorlar uchun qanday daromad manbai yaratishini belgilaydi. Tijorat banklarida dividend siyosati kompaniyaning moliyaviy holatini mustahkamlash va uzoq muddatli rivojlanishni qo'llab-quvvatlash uchun muhim vosita hisoblanadi. Banklar dividend to'lovlarini o'z faoliyatini davom ettirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni jalb qilish uchun belgilaydi. Dividend siyosati nafaqat investorlar, balki bankning o'zining iqtisodiy holatini yaxshilash uchun ham xizmat qiladi. Dividendlarni to'lash investorlar uchun jozibadorlikni oshiradi va bankning bozor qiymatini oshiradi. Dividendlar bankning rentabelligi va moliyaviy barqarorligi haqida signal beradi. Tijorat banklarida dividend siyosati ishlab chiqish jarayonida bankning umumiy strategiyasi va moliyaviy holati hisobga olinishi kerak. Banklarning dividend siyosati o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, har bir bank o'zining rivojlanish maqsadlariga va investorlar ehtiyojlariga moslashtiradi. Dividend to'lovlarining miqdori bankning foydasi va uning kapital bazasiga ta'sir qiladi. Shuningdek, dividend siyosatining to'g'ri yo'nalishi bankning investorlar bilan aloqalarini mustahkamlashga yordam beradi.

Samarali dividend siyosati bankning bozor pozitsiyasini yaxshilashga yordam beradi. Tijorat banklarining dividend siyosatini tashkil etishda, odatda, ikki asosiy omilni hisobga olishadi: bankning rentabelligi va moliyaviy ehtiyojlari. Dividend siyosatining asosiy maqsadi bankning investorlar uchun barqaror daromad manbaiga aylanishini ta'minlashdir. Bankning dividend siyosati, shuningdek, uning bozor imidjini yaratishda va investorlar ishonchini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Banklar dividend to'lashda ehtiyotkorlik bilan yondashishlari kerak, chunki yuqori dividendlar bankning o'sish va rivojlanish imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Biroq, dividendlarni to'lash bankning ijobiy imijini yaratadi va investorlar orasida ishonchni oshiradi.

Tijorat banklarida dividend siyosatini tashkil etish bosqichlari bankning moliyaviy barqarorligini saqlash va investorlar ishonchini oshirish uchun muhim jarayonlardir. Dividend siyosatini belgilashning birinchi bosqichi bankning umumiy moliyaviy holatini tahlil qilishdir. Bank o'zining foydasini, kapital bazasini va moliyaviy ehtiyojlarini aniqlashi kerak. Bu bosqichda bankning iqtisodiy holatini baholash uchun moliyaviy ko'rsatkichlar, shu jumladan rentabellik, likvidlik va kapital tuzilishi o'rganiladi. Keyingi bosqichda dividend siyosatining asosiy maqsadlari belgilanadi. Banklar dividend to'lashni davom ettirishni yoki kamaytirishni qaror qilishlari kerak. Bu qaror investorlar va bankning uzoq muddatli strategiyasiga mos bo'lishi lozim.

Dividend siyosatining ikkinchi bosqichi — dividendlarni to'lash miqdorini aniqlashdir. Bu miqdor bankning foydasidan va moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqadi. Banklar yuqori dividendlarni to'lash orqali investorlar uchun jozibador bo'lishni maqsad qilishadi, biroq bu bankning o'sish imkoniyatlarini cheklamasligi kerak. Dividend to'lovlari ko'p hollarda bankning moliyaviy strategiyasiga qarab belgilanishi lozim.

Keyingi bosqichda dividend siyosatini tasdiqlash jarayoni boshlanadi. Bu bosqichda bankning boshqaruv organlari, masalan, direktorlar kengashi dividend siyosatini tasdiqlashadi va uni amalga oshirishga tayyor bo'lishadi. Tasdiqlangan dividend siyosati investorlar va bozor uchun ochiq bo'ladi, shunda ular bankning dividend siyosatini bilishadi va o'z investitsiyalari haqida xabardor bo'ladi. Dividend

siyosatini belgilashda shuningdek, investorlarning qisqa va uzoq muddatli manfaatlari ham hisobga olinadi. Dividend siyosati nafaqat investorlar, balki bankning moliyaviy barqarorligini ham ta'minlashi kerak. Dividend to'lash miqdori va chastotasi bankning o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlari va moliyaviy ehtiyojlariga qarab o'zgarishi mumkin. Masalan, krizis yoki moliyaviy notekislik davrida bank dividendlarini to'lashni vaqtincha to'xtatishi mumkin. Dividend siyosatini to'g'ri tashkil etish bankning investorlar bilan ishonchli munosabatlar o'rnatishiga yordam beradi. Dividendlar bankning foydasini taqsimlashning asosiy vositasi hisoblanadi va investorlar uchun mustahkam daromad manbaiga aylanishi mumkin. Dividend siyosatini to'g'ri tashkil etish bankning bozor qiymatini oshirishga yordam beradi. Agar bank dividend siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirsa, u o'zining investitsion jozibadorligini oshiradi. Dividend siyosati orqali banklar o'z moliyaviy holatini barqarorlashtiradi va o'zining uzoq muddatli rivojlanish imkoniyatlarini yaratadi. Dividend to'lovlari investorlar uchun bankning iqtisodiy holatini va moliyaviy mustahkamligini aks ettiradi.


Keyinchalik, dividend siyosatini doimiy ravishda tahlil qilish va yangilab turish zarur. Banklar iqtisodiy sharoitlar va moliyaviy ehtiyojlarga qarab dividend siyosatini o'zgartirishi yoki yangilashi mumkin. Dividend siyosatini yangilash bankning bozor pozitsiyasini yaxshilash va investorlar bilan aloqalarni mustahkamlash uchun zarur. Dividend siyosatini tahlil qilishda banklar o'zning foyda olish imkoniyatlarini va moliyaviy resurslarini to'g'ri baholashlari kerak. Har bir bankning dividend siyosati uning moliyaviy holatiga va strategiyasiga qarab farq qilishi mumkin.

Dividend siyosatining yakuniy bosqichi — investorlar bilan aloqalarni mustahkamlashdir. Dividendlar bankning investorlar bilan ishonchli aloqalar o'rnatishiga yordam beradi. Shuningdek, banklar dividend siyosatining tasdiqlangan versiyasini ommaga e'lon qilishlari kerak. Bu jarayon investorlar uchun shaffoflikni ta'minlashga yordam beradi. Dividend siyosatini muvaffaqiyatli tashkil etgan banklar bozorning yuqori o'sish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Shunday qilib, tijorat banklarida dividend siyosatini tashkil etish bosqichlari bankning moliyaviy barqarorligini saqlash, investorlar ishonchini oshirish va uzoq muddatli rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Tijorat banklarida dividend siyosatini tashkil etish bosqichlari quyidagi asosiy jarayonlarni o'z ichiga oladi (1.3-rasm):

1. Moliyaviy holatni tahlil qilish: Dividend siyosatini tashkil etishning birinchi bosqichi bankning moliyaviy holatini tahlil qilishdir. Bu bosqichda bankning rentabellik, likvidlik va kapital bazasi kabi asosiy ko'rsatkichlari baholanadi. Bank o'zining mavjud foydasini, aktiv va passivlarni ko'rib chiqadi.

2. Dividend siyosatining maqsadlarini belgilash: Dividend siyosatining ikkinchi bosqichida bank o'zining maqsadlarini belgilaydi. Bu maqsadlar investorlar bilan aloqalarni mustahkamlash, bankning bozor qiymatini oshirish, shuningdek, bankning o'z faoliyatini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni saqlashni o'z ichiga oladi.



1.3-rasm. Tijorat banklarida dividend siyosatini tashkil etish bosqichlari⁴⁰

⁴⁰ Muallif tomonidan tayyorlangan

3. Dividend miqdorini belgilash: Bankning foydasidan qaysi miqdorda dividend to'lanishi kerakligini aniqlash. Dividend to'lovlarining miqdori bankning rentabelligi, moliyaviy ehtiyojlari va investorlar uchun maqbul bo'lgan daromad miqdoriga asoslanadi. Shuningdek, bankning o'sish strategiyalari va kapital ehtiyojlari ham bu qarorga ta'sir qiladi.

4. Dividend siyosatini tasdiqlash: Dividend siyosati tasdiqlanishi kerak. Buning uchun bankning direktorlar kengashi dividend siyosatini ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi. Tasdiqlangan siyosat investorlar uchun e'lon qilinadi.

5. Dividend to'lovlarini amalga oshirish: Tasdiqlangan dividend siyosatiga asosan dividend to'lovlari amalga oshiriladi. Bank bu to'lovlarni o'z vaqtida va adolatli ravishda amalga oshirishni ta'minlashi kerak. Dividend to'lash muddati va miqdori bankning faoliyatiga qarab belgilangan bo'ladi.

6. Dividend siyosatini monitoring qilish va tahlil qilish: Dividend siyosatining muvaffaqiyatini baholash va uning samaradorligini o'lchash uchun bank doimiy ravishda tahlil qiladi. Iqtisodiy sharoitlar, bozor holati va bankning moliyaviy holati o'zgarishi bilan dividend siyosatini yangilash zarur bo'lishi mumkin.

7. Investorlar bilan muloqot: Dividend siyosatining qabul qilinishi va amalga oshirilishi jarayonida investorlar bilan doimiy ravishda muloqot qilish zarur. Banklar investorlarni dividend siyosati haqida xabardor qilishlari va ularning fikrlarini inobatga olishlari kerak.

8. Dividend siyosatining moslashuvchanligi: Iqtisodiy o'zgarishlarga qarab dividend siyosati qattiq emas, balki moslashuvchan bo'lishi lozim. Banklar muayyan sharoitlarda dividend miqdorini o'zgartirish yoki vaqtincha to'lashni to'xtatish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Shu tarzda, tijorat banklarida dividend siyosatini tashkil etish bosqichlari bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, investorlar ishonchini oshirish va o'z strategiyasiga mos keladigan investitsion jozibadorlikni yaratish maqsadida amalga oshiriladi.

1.3 §. Kapital bozori orqali tijorat banklari investitsion jozibadorligini oshirishning o'ziga xos jihatlari

Tijorat banklarining investitsion jozibadorligini oshirishda kapital bozori imkoniyatlarining ahamiyati ko'plab fundamental nazariyalar va asoslar bilan ta'kidlanadi. "Samarali bozor gipotezasi aktivlar narxlari barcha mavjud ma'lumotlarni aks ettirishi, banklar kapital bozori imkoniyatlaridan samarali foydalanib, o'z operatsion kuchlari va o'sish yo'nalishlarini prognoz qilish orqali baholanishlarini yaxshilashlari mumkinligini ko'rsatadi. Bu bog'liqlik kapital bozorining ustuvor tendensiyalariga mos keladigan banklarning yaxshilangan baholanishlari va investorlarning katta qiziqishini ko'rsatadigan empirik natijalar bilan tasdiqlanadi"⁴¹. Bu muvofiqlik turli strategik tashabbuslar, jumladan, kapital takliflari, obligatsiyalar emissiyasi va innovatsion moliyaviy mahsulotlar orqali namoyon bo'ladi, bu esa likvidlikni oshirishi va investorlar uchun kengroq xatarlarni diversifikatsiya qilishni osonlashtiradi.

Bundan tashqari, kapital aktivlari narxlari modeli kapital bozori ulushi kontekstida xavf va samaradorlikni baholash uchun asos yaratadi. Ushbu modelga ko'ra, "tijorat banklariga investitsiyalar bilan bog'liq tavakkalchilik banklar kapital bozorida faol ishtirok etganda pasayadi va shu bilan ularning jozibadorligi oshadi. Bu, ayniqsa, banklar duch kelayotgan dinamik tartibga solish muhitida dolzarbdir, chunki kapital moslashuvi standartlariga rioya qilish va moliyaviy resurslarni qat'iy boshqarish ko'pincha qulay risk profiliga aylanadi. Kapital bozoridagi qulay sharoitlardan foydalanishda banklar barqarorlik va o'sish salohiyatini namoyish etishlari mumkin, bu esa investorlarning ishonchini mustahkamlaydi"⁴².

Moliyaviy innovatsiyalar banklarning kapital bozorining yangi imkoniyatlaridan foydalanish qobiliyatining harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Yangi moliyaviy texnologiyalar va vositalarning joriy etilishi banklarga xizmat ko'rsatish takliflarini kengaytirish, risklarni boshqarish amaliyotini

⁴¹ Mügge, D. Widen the market, narrow the competition: banker interests and the making of a European capital market. // ECPR press, 2024

⁴² Pernell, K. Market governance, financial innovation, and financial instability: lessons from banks' adoption of shareholder value management. // Theory and Society, 49(2), 2020. – pp. 277-306.

takomillashtirish va umumiy operatsion samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Qimmatli qog'ozlashtirish, derivativlar va fintex yechimlari kabi innovatsiyalar nafaqat banklarning raqobatbardoshligini oshiradi, balki yanada jozibador investitsiya takliflarini taqdim etish imkonini beradi. Ushbu innovatsiyalar ko'pincha investorlar tomonidan ijobiy baholanadi, chunki ular ko'proq shaffoflik va xavfni baholash imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin.

Bundan tashqari, tijorat banklarining kapital bozori bilan strategik muvofiqlashuvi korporativ boshqaruv amaliyotini takomillashtirishga yordam beradi. Kapital bozorida faol ishtirok etish ko'pincha qat'iy hisobot va javobgarlik standartlariga rioya qilishni talab qiladi, bu esa investorlarda katta ishonch uyg'otadi. Investorlar, odatda, mustahkam boshqaruv tuzilmalari va shaffof operatsiyalarga ega banklarga ko'proq ishonch bildiradi. Ushbu munosabatlar kapital bozorining banklarda mustahkam institutsional tuzilmalarni rivojlantirish uchun katalizator bo'lib xizmat qilishini ko'rsatadi, bu esa uzoq muddatli istiqbolda ularning barqarorligi va jozibadorligiga ta'sir ko'rsatadi.

Yuqorida keltirilgan nazariy asoslardan ko'rinib turibdiki, banklarning kapital bozori imkoniyatlaridan foydalanishi ularning investitsion jozibadorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. "Banklarning kengroq moliyaviy tizimlar bilan o'zaro bog'liqligini hisobga olgan holda moliyaviy barqarorlikka potensial ta'sirlarni baholash tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli kapital bozori strategiyalari va bank investitsion jozibadorligi o'rtasidagi bog'liqlik zamonaviy moliyaviy ekotizimlar nuqtai nazaridan chuqurroq o'rganishga loyiq bo'lgan murakkab va ko'p qirrali dinamikani o'zida mujassam etadi. Istiqbolli yondashuv yetti omil modeli kabi samaradorlikni o'lchashning ilg'or tuzilmalarini joriy etishni o'z ichiga oladi. Ushbu model moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlarning keng qamrovli tahlilini taqdim etadi, bu esa bank faoliyatini yanada nozikroq tushunishga yordam beradi"⁴³. An'anaviy samaradorlik ko'rsatkichlarini kengaytirish orqali banklar kapital bozorida yuzaga kelayotgan

⁴³ Phuong, N. T. T., Huy, D. T. N., & Van Tuan, P. The evaluation of impacts of a seven factor model on nvb stock price in commercial banking industry in vietnam-and roles of Disclosure of Accounting Policy In Risk Management. // International Journal of Entrepreneurship, 24, 2020. – pp. 1-13.

imkoniyatlarni samarali aniqlashi va baholashi mumkin. Yuqorida ta’kidlangan model daromadlilik, operatsion samaradorlik, xatarlarni boshqarish va bozor sharoitlari kabi bir qator elementlarni o’z ichiga oladi, bu esa muassasaning investorlar kutgan natijalarga muvofiqligini yaxlit tarzda ko‘rish imkonini beradi.

“Samaradorlikni o‘lchash bilan bir qatorda risklarni boshqarishda shaffof ma’lumotlarni oshkor qilish amaliyoti investorlar ishonchini oshirish uchun juda muhimdir. Tartibga soluvchi tuzilmalar o‘z vaqtida va aniq ma’lumotlarni oshkor qilishning ahamiyatini tobora ko‘proq ta’kidlab, banklarni risk ta’siri bo‘yicha muloqot va boshqaruv strategiyalarining ilg‘or tajribalarini qo‘llashga undamoqda”⁴⁴. Kapital yetarliligi, aktivlar sifati va likvidlik holati to‘g‘risidagi shaffof hisobotlar nafaqat me’yoriy talablarga javob beradi, balki o‘z sarmoyalarining barqarorligi va chidamliligi kafolatini izlayotgan investorlar bilan ishonch o‘rnatishga xizmat qiladi. Investorlar o‘zlarining risk profillari va boshqaruv tuzilmalari haqida aniq ma’lumot berishga ustuvor ahamiyat qaratadigan muassasalar bilan hamkorlik qilishga ko‘proq moyil bo‘ladi.

Risk va daromadlilik o‘rtasidagi to‘g‘ri muvozanat uzoq muddatli investorlarning ishonchini ta’minlash uchun asosiy omil bo‘lib qolmoqda. Tijorat banklari ushbu strategiyalarni amalga oshirar ekan, o‘z operatsion tuzilmalarini va kengroq moliyaviy tizimni beqarorlashtirishi mumkin bo‘lgan ehtimoliy xavflardan qochishi lozim. Ilg‘or samaradorlik ko‘rsatkichlari, shaffof ma’lumot tarqatish amaliyoti, kuchli boshqaruv va texnologik innovatsiyalarni birlashtirgan yaxlit yondashuv tijorat banklarining investitsion jozibadorligini oshirib, barqaror moliyaviy muhitni rag‘batlantirishi mumkin. Kapital bozoridagi takomillashuvlar va moliyaviy barqarorlik o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, ayniqsa investitsion jozibadorligini oshirishga intilayotgan tijorat banklari nuqtai nazaridan tobora ko‘proq ilmiy e’tiborni jalb qilmoqda. Moshirian va boshqalar fond bozorini erkinlashtirish va innovatsiyalar kuchli moliyaviy muhitni rag‘batlantirishning asosiy mexanizmlari ekanligini ta’kidlaydi. Mualliflarning fikricha, “milliy kapital

⁴⁴ Phuong, N. T. T., Huy, D. T. N., & Van Tuan, P. The evaluation of impacts of a seven factor model on nvb stock price in commercial banking industry in vietnam-and roles of Disclosure of Accounting Policy In Risk Management. // International Journal of Entrepreneurship, 24, 2020. – pp. 1-13.

bozorining jahon moliya tizimlari bilan integratsiyalashuvi banklar uchun moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilishga yordam beradi va shu bilan an'anaviy depozitlarga asoslangan moliyalashtirishga qaramlikni kamaytiradi. Bu diversifikatsiya nafaqat likvidlikni yaxshilaydi, balki banklarga kapital tuzilmasini boshqarishda ko'proq moslashuvchanlik berish orqali investitsiyalarning jozibadorligini oshiradi"⁴⁵.

Tijorat banklarining kapital bozoriga ta'sirining kuchayishi tizimli xatarlar va ehtimoliy zaifliklar to'g'risida xavotirlar uyg'otmoqda. Ven va boshqalar "kapital bozorida faolroq ishtirok etish bilan bog'liq xatarlarni chuqur o'rganib, bunday ta'sir investitsion jozibadorlikni oshirishi mumkin bo'lsa-da, moliyaviy barqarorlikka xavf solishi mumkin bo'lgan murakkabliklarni ham keltirib chiqarishi"⁴⁶ni ta'kidlaydi. Asosiy xatar omillariga bozorning o'zgaruvchanligi, likvidlik shoklar va o'zaro bog'liq moliyaviy tizimlar natijasida yuzaga keladigan yuqumli ta'sirlar kiradi. Mualliflarning ta'kidlashicha, bu xatarlar moliyaviy barqarorlikka salbiy ta'sirlarni yumshatish uchun mustahkam me'yoriy-huquqiy asoslar va risklarni boshqarish strategiyalarini joriy etishni talab qiladi. Banklarning bozor tebranishlariga bardosh bera olishi va investorlar ishonchini saqlab qolishini ta'minlash uchun kapital yetarliligiga qo'yiladigan talablarni takomillashtirish, stress-testlar va qat'iy nazorat mexanizmlari muhim chora-tadbirlar sifatida keltirilgan.

Bundan tashqari, Ven va boshqalar moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda tijorat banklarining jozibadorligini oshirish uchun samarali aloqa strategiyalarining muhimligini ta'kidlaydi. Bankning kapital bozoriga ta'siri haqidagi aniq va shaffof ma'lumotlar investorlarning kutilmagan holatlar va xatarlar bo'yicha xavotirlarini kamaytirishi mumkin. Bu shaffoflik investorlar o'rtasida ishonchni rag'batlantiradi, bankning barqarorligi va uzoq muddatli istiqboliga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi.

⁴⁵ Moshirian, F., Tian, X., Zhang, B., & Zhang, W. Stock market liberalization and innovation. // Journal of Financial Economics, 139(3), 2021. – pp. 985-1014.

⁴⁶ Wen, H., Lee, C. C., & Zhou, F. Green credit policy, credit allocation efficiency and upgrade of energy-intensive enterprises. // Energy Economics, 94, 2021.

Banklarning investitsion jozibadorligini oshirishda kapital bozori muhim rol o'ynaydi. Kapital bozori banklarga yangi mablag'lar jalb qilish imkoniyatini beradi. Aksiylar va obligatsiyalar chiqarish orqali banklar o'z kapital bazasini kuchaytiradi. Bu esa ularning investitsion loyihalarni moliyalashtirish qobiliyatini oshiradi. Kapital bozori banklar uchun likvidlik manbai bo'lib xizmat qiladi. Banklar o'z aktivlarini bozor sharoitida tezda sotib, naqd pulga aylantirishlari mumkin. Bu ularning qisqa muddatli majburiyatlarini bajarish qobiliyatini oshiradi. Kapital bozori orqali banklar o'z mablag'larini turli xil aktivlarga sarmoya kiritish orqali risklarni diversifikatsiya qilishlari mumkin. Bu ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi.

Kapital bozori banklarga turli xil sektorlar va mintaqalardagi investitsion imkoniyatlarni kengaytirish imkoniyatini beradi. Bu esa ularning investitsion portfelini diversifikatsiya qilish va yuqori daromadli loyihalarni qo'lga kiritish imkoniyatini yaratadi. Kapital bozori banklarga bozor tendensiyalari, investorlar kayfiyati va iqtisodiy ko'rsatkichlar haqida muhim ma'lumotlar beradi. Bu ma'lumotlar banklarga investitsion qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Kapital bozori orqali banklar o'z faoliyati va moliyaviy holati haqida shaffof ma'lumot berishlari mumkin. Bu esa investorlar ishonchini oshirib, banklarning investitsion jozibadorligini oshiradi.

Kapital bozori banklarga yangi moliyaviy mahsulotlar ishlab chiqish va sotish imkoniyatini beradi. Shuningdek, kapital bozori banklar orqali iqtisodiyotga qo'shimcha mablag'lar oqimini ta'minlaydi. Bu esa iqtisodiy barqarorlikni oshirib, banklarning uzoq muddatli investitsion loyihalarni amalga oshirish imkoniyatini kengaytiradi.

Kapital bozori banklarning moliyaviy resurslarini diversifikatsiya qilish imkoniyatini taqdim etishini ham qayd etish lozim. Bu banklarga risklarni kamaytirish va daromadlilikni oshirish imkoniyatini taqdim etadi. Qolaversa, kapital bozori banklarga derivativlar yordamida risklarni boshqarish imkoniyatini beradi. Bu banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga hamda banklarning investitsion strategiyalarini samaraliroq qilishga yordam beradi.

Banklarning investitsion jozibadorligini oshirishda kapital bozori muhim rol o'ynaydi. Kapital bozori banklarga moliyaviy resurslarni muvozanatli tarzda boshqarish, yangi investitsion imkoniyatlarni yaratish va ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash imkoniyatini beradi. Kapital bozori banklarga qo'shimcha mablag'larni jalb qilish orqali ularning kreditlash qobiliyatini oshiradi, bu esa mijozlarga yanada qulay shartlarda xizmatlar ko'rsatish imkoniyatini yaratadi. Kapital bozoridagi qimmatli qog'ozlar (aksiyalar, obligatsiyalar) orqali banklar o'z kapital bazasini kuchaytirib, risklarni diversifikatsiya qilish va daromadlilikni oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Kapital bozori banklarning innovatsion mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqishiga yordam beradi, bu esa ularning raqobatbardoshligini oshiradi. Kapital bozoridagi shaffoflik va tartiblilik banklarga investorlarning ishonchini oshirish va ularning obro'sini mustahkamlash imkoniyatini beradi. Kapital bozori banklarning uzoq muddatli investitsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatini kengaytiradi, bu esa iqtisodiyotning turli sohalarining rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Banklarning xalqaro bozorga integratsiyasini osonlashtirishda kapital bozorining o'рни yuqori hisoblanadi. Bu esa ularning global miqyosda raqobatlashish qobiliyatini oshiradi. Shuningdek, kapital bozori banklarning risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga yordam beradi, bu esa ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, davlat va regulyatorlar tomonidan qo'yilgan tartibga solish talablarini bajarish ham banklar uchun juda muhimdir. Yaxshi regulyatorlar banklar uchun samarali risklarni boshqarish tizimlarini ishlab chiqishga yordam beradi. Ushbu tizimlar bankning moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi va NPL ko'rsatkichini kamaytirishga yordam beradi.

NPL ko'rsatkichining kamayishi nafaqat banklarning moliyaviy holatiga, balki butun moliya tizimining barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Banklar o'zining kredit siyosatini soddalashtirish va mijozlarga mos shartlarni taqdim etish orqali ko'proq foyda olishlari mumkin. Bu esa banklarning investitsion jozibadorligini oshiradi va ular bo'yicha yangi sarmoyalarni jalb qilish imkoniyatlarini yaratadi.

NPL ko'rsatkichining ta'siri bankning xalqaro bozordagi pozitsiyasiga ham ta'sir qiladi. Banklarning NPL ko'rsatkichi past bo'lgan taqdirda, ular xalqaro moliya bozorlarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishadi. Xalqaro investorlar yuqori NPL ko'rsatkichiga ega bo'lgan banklardan ehtiyotkorlik bilan sarmoya kiritadi, bu esa bankning global bozorlaridagi investitsion jozibadorligini kamaytiradi.

Shunday qilib, tijorat banklarining NPL ko'rsatkichini boshqarish va kamaytirish jarayoni banklarning investitsion jozibadorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. NPL ko'rsatkichi yuqori bo'lsa, bankning moliyaviy holati va barqarorligi pasayadi, bu esa investorlarning sarmoya kiritishdan qochishiga olib keladi. NPLni kamaytirish va kredit siyosatini samarali boshqarish banklarning investitsion jozibadorligini oshirishga yordam beradi. Banklar NPL ko'rsatkichini

boshqarish orqali nafaqat o'z moliyaviy barqarorligini ta'minlashadi, balki bozor ishonchini oshirib, yangi sarmoyalarni jalb qilish imkoniyatini yaratadi.

Bankning bozor kapitalizatsiyasi uning aksiyalarining umumiy qiymatini bildiradi. Bu ko'rsatkich bankning bozordagi o'rnini, uning investorlar orasidagi ishonchini va kelajakdagi o'sish potentsialini ko'rsatadi. Yaxshi bozor kapitalizatsiyasi bankning barqaror moliyaviy holatini va yuqori investor ishonchini anglatadi. Yuqori bozor kapitalizatsiyasi bankning aksiyalariga bo'lgan talabni oshiradi, bu esa uning investitsion jozibadorligini oshiradi. Bankning bozor kapitalizatsiyasi shuningdek, uning o'sish va rivojlanish imkoniyatlarini ko'rsatadi, bu esa investorlar uchun ko'proq sarmoya kiritish motivatsiyasini yaratadi.

Tijorat banklarining bozor kapitalizatsiyasi ko'rsatkichi, bankning aksiyalarining umumiy qiymatini bildiradi va bankning bozor o'rnini, raqobatbardoshligini va moliyaviy barqarorligini aks ettiradi. Ushbu ko'rsatkich, bankning investitsion jozibadorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bankning bozor kapitalizatsiyasi ko'rsatkichi yuqori bo'lsa, investorlar uchun xavfsiz sarmoya kiritish imkoniyatlarini yaratadi, bu esa uning investitsion jozibadorligini oshiradi.

Nazariy jihatdan, bozor kapitalizatsiyasining yuqori bo'lishi bankning moliyaviy holatining mustahkamligini, yirik va barqaror bo'lishini ko'rsatadi. Yaxshi moliyaviy holatga ega banklar, odatda, yuqori bozor kapitalizatsiyasiga ega bo'ladi. Bozor kapitalizatsiyasi ko'rsatkichi bankning aksiyalariga bo'lgan talabni ko'rsatadi. Agar bankning aksiyalariga talab yuqori bo'lsa, uning bozor kapitalizatsiyasi oshadi, bu esa uning investitsion jozibadorligini kuchaytiradi.

Amaliy jihatdan, bozor kapitalizatsiyasining oshishi bankning moliyaviy holatini yanada mustahkamlashga yordam beradi. Yuqori kapitalizatsiya, bankning likvidligini va o'z qarzlarini o'z vaqtida to'lash qobiliyatini oshiradi. Investorlar yuqori kapitalizatsiyaga ega banklarga sarmoya kiritishda ko'proq ishonch hosil qilishadi, chunki bu banklar yuqori darajada barqaror va moliyaviy xavfsiz bo'lishi mumkin.

Bankning bozor kapitalizatsiyasi, shuningdek, uning o'sish potentsialini ko'rsatadi. Yuqori kapitalizatsiya bankning rivojlanish imkoniyatlari va o'sish strategiyalarini qo'llab-quvvatlashga yordam beradi. Bank o'z kapitalini kengaytirish va yangi investitsiyalarni jalb qilish uchun ko'proq imkoniyatlarga ega bo'ladi. Shu bilan birga, yuqori bozor kapitalizatsiyasi bankning yangi mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqishi, yangi bozorga kirishi va o'z faoliyatini kengaytirishi uchun zarur bo'lgan kapitalni ta'minlaydi.

Bozor kapitalizatsiyasining oshishi bankning aksiya qiymatiga ham ta'sir qiladi. Agar bankning aksiyalariga bo'lgan talab oshsa, aksiyalar narxi ham ortadi. Bu jarayon bankning investitsion jozibadorligini oshiradi, chunki yuqori aksiya narxlari investorlar uchun qiziqarli bo'ladi. Aksiya narxining oshishi bankning bozor kapitalizatsiyasini oshiradi, bu esa o'z navbatida, bankning investitsion jozibadorligini kuchaytiradi.

Bozor kapitalizatsiyasining yuqori bo'lishi bankning raqobatbardoshligini oshiradi. Yirik va moliyaviy mustahkam banklar bozorda raqobatbardosh o'rin egallaydi va ko'proq investorlarni jalb qilishadi. Bankning yuqori bozor kapitalizatsiyasi, shuningdek, uning obro'si va ishonchliligini oshiradi. Investorlar o'z sarmoyalarini yuqori kapitalizatsiyaga ega banklarga kiritishni afzal ko'rishadi, chunki bunday banklar moliyaviy barqaror va xavfsiz hisoblanadi.

Bundan tashqari, bozor kapitalizatsiyasining yuqori bo'lishi bankning brendini kuchaytiradi. Banklar o'z brendini va obro'sini mustahkamlash orqali mijozlarga yuqori sifatli xizmatlar ko'rsatadi va ularga investitsiya imkoniyatlarini taklif etadi. Bu esa bankning aksiyalariga bo'lgan talabni oshiradi va uning bozor kapitalizatsiyasini yanada oshiradi. Brendning kuchayishi bankning investitsion jozibadorligini oshiradi va uni jozibadorroq qiladi.

Agar bankning bozor kapitalizatsiyasi past bo'lsa, bu investorlar uchun xavfli sarmoya imkoniyatlarini anglatadi. Yuqori xavf, past kapitalizatsiyali banklar uchun investorlar tomonidan kamroq sarmoya kiritilishiga olib keladi. Shu bilan birga, past kapitalizatsiya bankning moliyaviy holatiga shubha tug'diradi va

investorlarni qo'rqitadi. Bu bankning aksiyalarining qiymatini kamaytiradi va uning investitsion jozibadorligini pasaytiradi.

Bankning bozor kapitalizatsiyasining past bo'lishi bankning uzoq muddatli barqarorligiga ham ta'sir qiladi. Past bozor kapitalizatsiyasiga ega banklar iqtisodiy inqirozlar va bozor o'zgarishlariga qarshi chidamli bo'lishda qiynaladi. Bunday banklar, odatda, moliyaviy barqarorlikni saqlashda muammolarga duch keladi, bu esa investorlar uchun xavf tug'diradi. Shu sababli, bozor kapitalizatsiyasining yuqori bo'lishi bankning investitsion jozibadorligini oshiradi.

Bozor kapitalizatsiyasining o'sishi, shuningdek, bankning yangi sarmoya jalb qilish imkoniyatlarini oshiradi. Banklar o'z bozor kapitalizatsiyasini oshirish orqali yangi investorlarni jalb qilishlari mumkin, bu esa ularning moliyaviy holatini mustahkamlaydi. Yangi sarmoya bankning yangi imkoniyatlar yaratishiga yordam beradi va uning bozor o'rnini mustahkamlaydi.

Bankning bozor kapitalizatsiyasining oshishi, shuningdek, uning o'sish strategiyalarini amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Banklar ko'proq sarmoya jalb qilish orqali yangi bozorga kirish, yangi mahsulotlar ishlab chiqish va o'z biznesini kengaytirish uchun zarur bo'lgan kapitalga ega bo'lishadi. Bu esa bankning o'sish va rivojlanish potentsialini oshiradi, bu esa investorlar uchun yana bir jozibador omil bo'ladi.

Bozor kapitalizatsiyasining o'sishi bankning ijtimoiy va atrof-muhitga ta'sirini ham oshiradi. Banklar, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash bilan birga, ijtimoiy mas'uliyatli faoliyat olib borishlari mumkin. Bu omil investorlar uchun muhim bo'lishi mumkin, chunki ular o'z sarmoyalarini ijtimoiy mas'uliyatli va barqaror faoliyat yurituvchi banklarga kiritishni afzal ko'rishadi.

Bozor kapitalizatsiyasining yuqori bo'lishi bankning obro'si va ishonchliligini mustahkamlaydi. Investorlar bankning barqarorligi va moliyaviy xavfsizligini ko'rganida, ular sarmoya kiritishdan ko'proq manfaat olishadi. Shuningdek, yuqori bozor kapitalizatsiyasi bankning o'z mijozlariga yanada ko'proq imkoniyatlar yaratishiga yordam beradi, bu esa uning investitsion jozibadorligini yanada oshiradi.

Bankning bozor kapitalizatsiyasi ko'rsatkichi tijorat banklarining investitsion jozibadorligiga bevosita ta'sir qiladi. Yuqori bozor kapitalizatsiyasi bankning moliyaviy barqarorligini oshiradi, uning raqobatbardoshligini kuchaytiradi, yangi sarmoya jalb qilish imkoniyatlarini oshiradi va investitsiyalarga bo'lgan talabni oshiradi. Aksincha, past bozor kapitalizatsiyasi bankning investitsion jozibadorligini pasaytiradi va sarmoya kiritish risklarini oshiradi. Shuning uchun, bankning bozor kapitalizatsiyasini oshirish, uning investitsion jozibadorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

2.2 §. Tijorat banklarida dividend siyosati tahlili

Tijorat banklarining dividend siyosati aksiyadorlar va bankning moliyaviy barqarorligi uchun muhim ahamiyatga ega. Bank foydani to'g'ri taqsimlash orqali investorlarni jalb qilishi va aksiyalarining jozibadorligini oshirishi mumkin. Dividend siyosati foydaning qanchasi aksiyadorlarga taqsimlanishi va qanchasi reinvestitsiya qilinishini belgilaydi. Barqaror dividend to'lovlari investorlarning ishonchini oshiradi va aksiyalarning bozor bahosiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq juda yuqori dividend to'lovlari bankning kapital yetarliligini pasaytirishi mumkin. Kapitalni saqlash va kengaytirish uchun bank ba'zan dividend miqdorini kamaytirib, foydani ichki investitsiyalarga yo'naltiradi. O'zgaruvchan dividend siyosati bankning moliyaviy natijalariga qarab dividend miqdorini o'zgartirish imkonini beradi. Har bir bank dividend siyosatini o'z strategik maqsadlari va moliyaviy holatiga qarab belgilaydi. Samarali dividend siyosati bankning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashga yordam beradi. Shu sababli tijorat banklari dividend siyosatini tahlil qilishdan avval quyida tijorat banklarida foydani taqsimlash masalalarini tadqiq qilamiz.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizomning "Moliyaviy natijalarni shakllantirish" qismiga ko'ra

“xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatining moliyaviy natijalari foydaning quyidagi ko‘rsatkichlari bilan tavsiflanadi”⁴⁷:

Mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi o‘rtasidagi tafovut sifatida aniqlanadi:

$$\mathbf{YaF=SST-IT \quad (1)}$$

Bunda:

YaF - yalpi foyda;

SST - sotishdan olingan sof tushum;

IT - sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi.

Asosiy faoliyatdan ko‘rilgan foyda mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bilan davr xarajatlari o‘rtasidagi tafovut va plyus asosiy faoliyatdan ko‘rilgan boshqa daromadlar yoki minus boshqa zararlar sifatida aniqlanadi:

$$\mathbf{AFF = YaF-DX+BD-BZ \quad (2)}$$

Bunda:

AFF - asosiy faoliyatdan olingan foyda;

DX - davr xarajatlari;

BD - asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar;

BZ - asosiy faoliyatdan ko‘rilgan boshqa zararlar.

Xo‘jalik faoliyatidan olingan foyda (yoki zarar) asosiy faoliyatdan olingan foyda summasi plyus moliyaviy faoliyatdan ko‘rilgan daromadlar va minus zararlar sifatida hisoblab chiqiladi:

$$\mathbf{UF=AFF+MD-MX \quad (3)}$$

Bunda:

UF - umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda;

MD - moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar;

MX - moliyaviy faoliyat xarajatlari.

⁴⁷ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom

Soliq to'langungacha olingan foyda umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda plus favqulodda (ko'zda tutilmagan) vaziyatlardan ko'rilgan foyda va minus zarar sifatida aniqlanadi:

$$\text{STF}=\text{UF}+\text{FP}-\text{FZ} \quad (4)$$

Bunda:

STF - soliq to'langungacha olingan foyda;

FP - favqulodda vaziyatlardan olingan foyda;

FZ - favqulodda vaziyatlardan ko'rilgan zarar.

Yilning sof foydasi soliq to'langandan keyin xo'jalik yurituvchi subyekt ixtiyorida qoladi, o'zida foydadan to'lanadigan soliqni va minus qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa soliqlar va to'lovlarni chiqarib tashlagan holda soliqlar to'langunga qadar olingan foydani ifodalaydi:

$$\text{SF}=\text{STF}-\text{DS}-\text{BS} \quad (5)$$

Bunda:

SF - sof foyda;

DS - foydadan to'lanadigan soliq;

BS - boshqa soliqlar va to'lovlar.

Tijorat banklarida foydani taqsimlash va dividend siyosati moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va aksiyadorlarning manfaatlarini himoya qilish uchun muhim hisoblanadi. Banklar olingan foydani aksiyadorlarga dividend sifatida to'lash yoki kapitalizatsiyani oshirish uchun qayta investitsiya qilish imkoniyatiga ega. Dividend siyosati bankning strategik maqsadlariga, moliyaviy natijalariga va bozor sharoitlariga bog'liq holda shakllanadi. Ba'zi banklar barqaror dividend to'lovlarini ta'minlashga intiladi, boshqalari esa foydaning qoldiq tamoyiliga asoslanib taqsimot amalga oshiradi. Dividend to'lovlarining muntazamligi aksiyadorlar ishonchini oshirish va bank aksiyalarining jozibadorligini saqlashga yordam beradi. Kapital yetarliligini saqlash uchun ba'zan banklar dividend miqdorini kamaytirishi yoki vaqtincha to'lovlarni to'xtatishi mumkin. Dividend siyosati qabul qilinayotganda bankning rentabelligi, risk darajasi va tartibga soluvchi organlarning talablariga e'tibor qaratiladi. Bankning barqaror moliyaviy

siyosati aksiyadorlar va investorlar uchun muhim bo'lib, ularning uzoq muddatli ishonchini ta'minlaydi. Dividendlarning kamayishi yoki oshishi bankning bozordagi obro'siga va aksiyalarining bahosiga ta'sir qilishi mumkin. Shuning uchun har bir tijorat banki dividend siyosatini muvozanatli va strategik tarzda ishlab chiqishi lozim.

Hozirgi kunda O'zbekistondagi tijorat banklarining aksariyatida dividendlarni hisoblash va to'lash tartibi bir-biriga o'xshash tarzda shakllantirilgan. Jumladan, "Aloqabank" ATBning dividend siyosati bo'yicha amaliyotiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, mazkur bankda dividendlarni hisoblash va to'lash tartiblari boshqa banklarnikidan keskin farq qilmasligini ko'rish mumkin.

O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi 370-sonli Qonuniga ko'ra aksiyadorlik jamiyatlari "moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi, to'qqiz oyi natijalariga ko'ra va (yoki) moliyaviy yil natijalariga ko'ra, agar ushbu Qonun va jamiyat ustavida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga haqli. Moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi va to'qqiz oyi natijalariga ko'ra dividendlar to'lash to'g'risidagi qarori tegishli davr tugagandan keyin uch oy ichida qabul qilinishi mumkin"⁴⁸. Yuqorida belgilangan muddatlar, albatta, tavsiyaviy xarakterga ega bo'lib, aksiyadorlik jamiyatlari, shu jumladan, tijorat banklari ushbu muddatlarni o'z ustavida belgilab qo'yishi mumkin.

"Aloqabank" ATBning dividend siyosatiga muvofiq "aksiyalarning har bir turi bo'yicha dividendlar to'lash, dividendning miqdori, uni to'lash shakli va tartibi to'g'risidagi qaror bank kengashining tavsiyasi, moliyaviy hisobotning ishonchliligi haqida auditorlik xulosasi mavjud bo'lgan taqdirda moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi. Aksiyalarning xar bir turi bo'yicha dividendlar (yilning xar bir choragi, yarim yilligi, yil yakuni bo'yicha) to'lash, dividendning mikdori hamda uni to'lash shakli

⁴⁸ O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi 370-sonli Qonuni, 49-modda, 6.05.2014

to'g'risidagi qaror bank kengashi tavsiyasiga asosan aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi. Bankning moliyaviy yil birinchi choragi, yarim yilligi va to'qqiz oyi natijalariga ko'ra dividendlar to'lash to'g'risidagi qarori tegishli davr tugagandan keyin uch oy ichida qabul qilinishi shart"⁴⁹.

“Aloqabank” ATBda foydani taqsimlashda jami dividendlarning hajmi bank kengashi tavsiya etgan hajmdan ortiq bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi. Aksiyadorlar dividend olish huquqiga ega bo'lishi uchun bank tomonidan shakllantirilgan bir necha hujjatlarda aks ettirilishi lozim. Avvalo, mazkur aksiyador dividendlarni to'lash to'g'risida qaror qabul qilingan aksiyadorlar ro'yxatida mavjud bo'lishi lozim. Shuningdek, mazkur aksiyador aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini tashkillashtirishda shakllantiriladigan bank aksiyadorlari reestrda qayd etilishi zarur. Ushbu hujjatlar aksiyadorlarning haqiqatda aksiyador ekanligi va dividend olish huquqi mavjudligini tasdiqlaydi. Mazkur bankda dividend hajmi tugallangan davr davomida bankning moliyaviy faoliyati natijalaridan kelib chiqqan holda belgilanishini hamda dividend to'lovlariga soliq, majburiy to'lovlar amalga oshirilgandan va faoliyat qayta investitsiyalanganidan so'ng qoladigan foydaning bir qismi yo'naltirilishini ta'kidlash lozim. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi bank aksiyalarining ma'lum bir turlari bo'yicha dividendlar to'lamaslikka qaror qilishi, shuningdek, bank ustavida dividend hajmi belgilangan imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'liq bo'lmagan hajmda dividendlar to'lashi mumkin.

Mamlakatimizda amal qilayotgan qonunchilikka ko'ra “dividendlarni to'lash chog'ida birinchi navbatda imtiyozli aksiyalar bo'yicha, so'ngra oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lanadi. Imtiyozli aksiyalar bo'yicha qat'iy belgilangan dividendlarni to'lash uchun yetarli miqdorda foyda mavjud bo'lgan taqdirda jamiyat mazkur aksiyalarning egalariga dividendlar to'lashni rad etishga haqli emas. Jamiyat rad etgan taqdirda aksiyadorlar dividendlar to'lanishini sud tartibida talab qilishi mumkin. Jamiyat yetarli miqdorda foydaga ega bo'lmagan yoki zarar ko'rib ishlayotgan taqdirda, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar

⁴⁹ “Aloqabank” ATB Dividend siyosati, 2019 yil 8 noyabrda tasdiqlangan; <https://aloqabank.uz/uz/shareholders/corporate-management/documents/other/>

jamiyat tomonidan jamiyatning faqat shu maqsad uchun tashkil etilgan zaxira fondi hisobidan va ushbu fond doirasida to'lanishi mumkin"⁵⁰.

“Aloqabank” ATBda ham amaldagi qonunchilikka muvofiq dividend to'lovlarini amalga oshirishda, avvalo, imtiyozli aksiyalarga e'tibor qaratiladi, undan so'ng esa oddiy aksiyalarga dividend to'lanishini ko'rishimiz mumkin. Ma'lumki, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar qat'iy belgilanadi va ushbu dividendlarni to'lash uchun tijorat bankida yetarli miqdorda foyda mavjud bo'lsa bank imtiyozli aksiyalar egalariga dividendlar to'lashni rad etishga haqli emasligi belgilab qo'yilgan.

O'zsanoatqurilishbank” ATBning 2017-2023 yillardagi sof foydasi turli yo'nalishlarga taqsimlangan (2.1-jadval). Bankning umumiy zaxira fondiga eng katta mablag' 2019 va 2020 yillarda yo'naltirilgan bo'lib, mos ravishda 211360,0 va 279386,0 mln so'mni tashkil etgan. Standart kreditlar bo'yicha zaxira ajratish 2017-2020 yillarda amalga oshirilgan, lekin 2021-2023 yillarda bu maqsadga mablag' yo'naltirilmagan. Imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar har yili deyarli bir xil bo'lib, 1616,9-1617 mln so'mni tashkil etgan. Oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlar esa 2019 yilgacha to'langan, 2020 yildan esa bu bo'yicha mablag' ajratilmagan. Taftish komissiyasi a'zolarini taqdirlashga 2019-2021 yillarda mablag' yo'naltirilgan. Boshqaruv va nazorat organlarini taqdirlash faqat 2017-2018 yillarda amalga oshirilgan. Innovatsiya fondiga faqat 2022 yilda 58893,7 mln so'm ajratilgan. Taqsimlanmagan foyda qoldig'i esa yildan-yilga sezilarli o'sib, 2023 yilda 860238 mln so'mga yetgan. Jami taqsimlangan mablag' 2017 yilda 85707,9 mln so'm bo'lsa, 2023 yilda 907216 mln so'mga yetgan. Umumiy tendensiyaga ko'ra, bankning taqsimlanmagan foydasi va uning qoldig'i yillar davomida o'sish tendensiyasini namoyon qilgan. Eng katta taqsimot 2021 yilda qayd etilgan bo'lib, 993037,8 mln so'mni tashkil etgan. Eng katta taqsimot yo'nalishi odatda umumiy zaxira fondi bo'lgan. Dividend to'lovlari 2019 yilgacha faol bo'lib, keyinchalik to'xtatilgan.

⁵⁰ O'zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi 370-sonli Qonuni, 49-modda, 6.05.2014

2.1-jadval

**“O‘zsanoatqurilishbank” ATBda 2017-2023 yillardagi sof foydasining
taqsimlanishi, mln. so‘mdan⁵¹**

№	Taqsimlan- magan foydaning taqsimlashi maqsadi	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
1	Bankning umumiy xazira fondiga	34283,2	11844,2	211360,0	279386,0	49651,9	29446,9	45361
2	Standart kreditlar bo‘yicha xazira	20000,0	151300,0	138364,0	117779,5	-	-	-
3	Bankning imtiyozli aksiyalari bo‘yicha dividendlar to‘lashga	1616,9	1616,9	1616,9	1616,9	1616,9	1616,9	1617
4	Bankning oddiy aksiyalari bo‘yicha dividendlar to‘lashga	28896,3	71350,2	353150,0	0,0	0,0	0,0	-
5	Taftish komissiyasi a‘zolarini taqdirlashga	-	-	34,9	38,5	47,8	-	-
6	Boshqaruv va nazorat organlarini taqdirlashga	790,3	480,1	-	-	-	-	-
7	Innovatsiya fondiga	-	-	-	-	-	58893,7	-
8	Taqsimlanmagan foydadan qolayotgan qoldiq mablag‘	121,2	292,7	-	399424,9	941721,2	498979,6	860238
Jami:		85707,9	236884,1	704525,9	798245,9	993037,8	588937,0	907216

⁵¹ <https://sqb.uz/uz/for-investors/distribution-banks-profit-uz/> - “O‘zsanoatqurilishbank” ATB rasmiy sayti ma’lumotlari

“O‘zsanoatqurilishbank” ATBning 2016-2023 yillar davomida dividendlarni to‘lash va hisoblash tahlili bankning aksiyadorlar uchun siyosatini aks ettiradi. Oddiy aksiyalar bo‘yicha dividend stavkasi 2016 yilda 3,13% bo‘lsa, 2017 yilda 2% gacha kamaygan. 2018 yilda ushbu ko‘rsatkich 3,30% ga oshgan va 2019 yilda maksimal darajaga – 7,632% ga yetgan. 2020 yildan boshlab oddiy aksiyalar bo‘yicha dividend to‘lanmagan. To‘lash uchun hisoblangan dividendlar miqdori ham 2016 yildan 2019 yilgacha o‘tib, 2019 yilda 353 686,59 mln so‘mga yetgan. 2020 yildan boshlab esa ushbu to‘lovlar butunlay to‘xtatilgan (2.2-jadval).

2.2-jadval

2016-2023 yil natijalari bo‘yicha “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning dividendlarni to‘lash va hisoblash tahlili⁵²

Ko‘rsatkichlar	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Oddiy aksiyalar uchun:	3,13%	2%	3,30%	~7,632% (1,45 sum)	0	0	0	0
To‘lash uchun hisoblangan dividendlar miqdori (mln.sum)	21 656,57	28 896,27	71 350,16	353 686,59	0	0	0	0
Imtiyozli aksiyalar uchun:	23%	23%	23%	23%	23%	23%	23%	23%
To‘lash uchun hisoblangan dividendlar miqdori (mln.sum)	1 555,72	1 616,90	1 616,90	1 616,90	1 616,90	1 616,90	1 616,90	1 616,90

Imtiyozli aksiyalar bo‘yicha dividend stavkasi esa 2016-2023 yillar davomida barqaror saqlanib, har yili 23% darajasida bo‘lgan (2.2-jadval). Ushbu aksiyalar bo‘yicha hisoblangan dividendlar miqdori har yili 1 616,90 mln so‘mni tashkil etgan. Bu bankning imtiyozli aksiyadorlar oldidagi majburiyatlarini barqaror saqlaganligini ko‘rsatadi. 2019 yil bank uchun dividend to‘lovlari bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichlarni qayd etgan yil bo‘ldi. Keyingi yillarda oddiy aksiyalar bo‘yicha

⁵² <https://sqb.uz/uz/for-investors/shares-and-dividends-uz/> - “O‘zsanoatqurilishbank” ATB rasmiy sayti ma’lumotlari

dividend to'lovlarining to'xtatilishi bankning moliyaviy strategiyasida o'zgarishlar bo'lganini ko'rsatadi. Imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlarning doimiy saqlanishi esa aksiyadorlar uchun barqaror daromad manbai sifatida davom etgan. Ushbu davr mobaynida bank oddiy aksiyalar bo'yicha dividend to'lovlarini qisqartirib, resurslarni boshqa yo'nalishlarga yo'naltirishga harakat qilgan. 2020 yildan keyin oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlarning nolga teng bo'lishi aksiyadorlar uchun salbiy signal bo'lishi mumkin. Bankning strategiyasi moliyaviy barqarorlik va investitsion rejalarga mos ravishda shakllangan. 2023 yilga kelib, dividend siyosati 2020-2022 yillardagi tendensiyaning davom ettirdi. Bankning umumiy dividend to'lov siyosati aksiyadorlarga bo'lgan munosabat va moliyaviy strategiyani ifodalaydi. Bu davr mobaynida imtiyozli aksiyalar bo'yicha ishonchli dividend to'lovlari ta'minlangan. Bank kelajakda oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlarni tiklash bo'yicha strategik qaror qabul qilishi mumkin.

“Ipoteka bank” ATIB tomonidan to'langan dividendlar tahlili bankning aksiyadorlar oldidagi majburiyatlari va dividend siyosatining dinamikasini aks ettiradi (2.3-jadval). 2011-2016 yillarda oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlar nisbatan yuqori bo'lgan. 2011 yilda oddiy aksiyalar uchun 40 so'm dividend to'langan bo'lsa, 2013 yilda bu ko'rsatkich 85 so'mga yetgan. 2014-2015 yillarda esa oddiy aksiyalar bo'yicha naqd pul shaklida dividend to'lanmagan, faqat kapitalizatsiya ko'rinishida amalga oshirilgan. 2016 yilda 54 so'm dividend to'langan bo'lsa, keyingi yillarda bu ko'rsatkich keskin pasaygan. 2017 yildan boshlab oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlar juda past darajada bo'lib, 2017-2019 yillarda atigi 0,06-0,08 so'm to'langan. 2020 yildan esa oddiy aksiyalar bo'yicha dividend umuman to'lanmagan. Imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar 2011-2016 yillarda yuqori bo'lib, 2016 yilda 894,50 so'mga yetgan. 2017 yildan boshlab imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar sezilarli darajada kamaygan. 2017-2023 yillarda imtiyozli aksiyalar bo'yicha naqd pul shaklida faqat 0,25 so'm dividend to'langan. Kapitalizatsiya shaklidagi dividendlar 2016 yildan keyin to'xtatilgan. Aksiya nominal qiymati yillar davomida sezilarli darajada o'sgan. 2011 yilda 1 000 so'm bo'lgan nominal qiymat 2016 yilda 3 578 so'mga yetgan. 2017 yildan boshlab nominal qiymat 1 so'm etib belgilangan. Bu

bankning kapital tuzilmasida sezilarli o'zgarishlar yuz berganini ko'rsatadi. Umuman olganda, 2011-2016 yillarda dividend siyosati aksiyadorlar uchun foydali bo'lgan. 2017 yildan keyin esa bankning dividend to'lash siyosati sezilarli darajada o'zgargan. Oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlar 2020 yildan butunlay to'xtatilgan. Imtiyozli aksiyalar bo'yicha esa minimal miqdorda to'lovlar amalga oshirilgan. Kapitalizatsiya shaklida dividend to'lash ham 2016 yildan keyin bekor qilingan. Bu holat bankning moliyaviy strategiyasida o'zgarishlar yuz berganini anglatadi. Ushbu tahlil bank aksiyadorlari uchun dividend siyosatining o'zgarishlarini kuzatishga imkon beradi.

2.3-jadval

“Ipoteka bank” ATIB tomonidan to'langan dividendlar tahlili⁵³

№	To'langan yil	Oddiy aksiyalar uchun to'langan dividend (1 dona aksiyaga so'mda)		Imtiyozli aksiyalar uchun to'langan dividend (1 dona aksiyaga so'mda)		Aksiya nominal qiymati (so'm)
		Pul ko'rinishida	Kapitalizatsiya ko'rinishida	Pul ko'rinishida	Kapitalizatsiya ko'rinishida	
1.	2011	40,00	360,00	250,00	360,00	1 000,00
2.	2012	68,00	340,00	317,50	340,00	1 360,00
3.	2013	85,00	450,00	403,75	450,00	1 700,00
4.	2014	-	672,00	509,40	672,00	2 150,00
5.	2015	-	756,00	705,50	756,00	2 822,00
6.	2016	54,00	448	894,50	448	3 578,00
7.	2017	0,08	-	0,25	-	1,00
8.	2018	0,06	-	0,25	-	1,00
9.	2019	0,08	-	0,25	-	1,00
10.	2020	-	-	0,25	-	1,00
11.	2021	-	-	0,25	-	1,00
12.	2022	-	-	0,25	-	1,00
13.	2023	-	-	0,25	-	1,00

AT “Aloqabank” aksiyadorlar uchun 2016-2019 yillar oralig'ida dividendlar hisoblagan va to'lagan (2.4-jadval). 2016 yilda oddiy aksiyalar bo'yicha 9221,19

⁵³<https://ipotekabank.uz/uzb/investors/dividends/> - “Ipotekabank” ATIB rasmiy sayti ma'lumotlari

mln so‘m, imtiyozli aksiyalar bo‘yicha esa 871,20 mln so‘m dividend hisoblangan. 2017 yilda oddiy aksiyalar uchun hisoblangan dividend 8068,54 mln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, imtiyozli aksiyalar bo‘yicha miqdor o‘zgarishsiz qolgan. 2018 yilda bank oddiy aksiyalar bo‘yicha dividendlarni sezilarli darajada oshirib, 18909,99 mln so‘mni tashkil qilgan, imtiyozli aksiyalar bo‘yicha esa kamaytirib, 435,60 mln so‘m hisoblagan. 2019 yilda bank tarixidagi eng yuqori dividend hisoblangan bo‘lib, oddiy aksiyalar bo‘yicha 35272,26 mln so‘m, imtiyozli aksiyalar bo‘yicha esa yana 871,20 mln so‘mni tashkil qilgan. 2020 yildan boshlab bank dividend hisoblash va to‘lashni to‘xtatgan. 2019 yil natijalari bo‘yicha 2020 yilda na oddiy, na imtiyozli aksiyalar bo‘yicha dividend hisoblanmagan. 2021 va 2022 yillarda ham dividendlar hisoblanmagan. Mazkur holat bankning moliyaviy strategiyasida o‘zgarishlar yuz berganini ko‘rsatadi.

2.4-jadval

AT “Aloqabank” tomonidan 2016-2022 yillar davomida hisoblangan va to‘langan dividendlar tahlili, mln. so‘m⁵⁴

№	To‘langan yil	Aksiya turi	Hisoblangan dividend	Izoh
1.	2016	Oddiy	9221,19	Aksiyalar uchun hisoblangan dividendlar to‘lanishi bo‘yicha qarzdorlik mavjud emas
		Imtiyozli	871,20	
2.	2017	Oddiy	8068,54	
		Imtiyozli	871,20	
3.	2018	Oddiy	18909,99	
		Imtiyozli	435,60	
4.	2019	Oddiy	35272,26	
		Imtiyozli	871,20	
5.	2020	Oddiy	-	2019 yil yakunlari bo‘yicha dividend hisoblanmagan
		Imtiyozli	-	
5.	2021	Oddiy	-	2020 yil yakunlari bo‘yicha dividend hisoblanmagan
		Imtiyozli	-	
5.	2022	Oddiy	-	2021 yil yakunlari bo‘yicha dividend hisoblanmagan
		Imtiyozli	-	

2.4-jadvalga ko‘ra 2016-2019 yillarda dividendlarning barqaror o‘sishi kuzatilgan. 2020 yildan boshlab esa dividend to‘lash to‘xtatilgan. Bu aksiyadorlar uchun daromad manbaining kamayishiga olib kelgan. Imtiyozli aksiyalar bo‘yicha dividendlar ham 2020 yildan to‘xtatilgan. Bank o‘z resurslarini boshqa

⁵⁴ https://aloqabank.uz/uz/page/shareholders/dividendi#content_text – AT Aloqabank rasmiy sayti ma’lumotlari

yoʻnalishlarga yoʻnaltirgan boʻlishi mumkin. Aksiyalar boʻyicha qarzdorlik mavjud emasligi moliyaviy intizomni koʻrsatadi. Dividendlarning kamayishi aksiyadorlar uchun salbiy holat hisoblanadi. Bu bankning moliyaviy barqarorligi yoki investitsion rejalari bilan bogʻliq boʻlishi mumkin. 2019 yil dividendlar boʻyicha eng muvaffaqiyatli yil boʻlgan. Keyingi yillarda esa bank aksiyadorlarga toʻlovlar ajratmagan.

2013-2022 yillar davomida “Mikrokreditbank” ATB aksiyadorlarga dividend toʻlash siyosatida muayyan barqarorlik va cheklovlar mavjud boʻlgan (2.5-jadval). 2013 yil yakuni boʻyicha oddiy aksiyalarga dividend hisoblanmagan, lekin imtiyozli aksiyalar boʻyicha nominal qiymatning 20 foizi miqdorida dividend hisoblangan. Bir dona imtiyozli aksiyaga 213,60 soʻm dividend ajratilgan. Shunga qaramay, ushbu yilda toʻlov amalga oshirilmagan. 2014-2017 yillar davomida ham oddiy, ham imtiyozli aksiyalarga dividend hisoblanmagan va toʻlanmagan. 2018 yilda ham dividendlar hisoblanmagan boʻlsa-da, imtiyozli aksiyalar boʻyicha yana 213,60 soʻm dividend ajratilgan, ammo bu summa toʻlanmagan. 2019 yil yakuni boʻyicha oddiy aksiyalarga dividend ajratilmagan, lekin imtiyozli aksiyalarga nominal qiymatning 20 foizi miqdorida hisoblangan. Biroq, bu yilda ham dividend toʻlanmagan. 2020-2022 yillar davomida bank na oddiy, na imtiyozli aksiyalarga dividend hisoblamagan va natijada hech qanday toʻlov amalga oshirilmagan. Bank tomonidan dividend toʻlovlari amalga oshirilmaganligi aksiyadorlar uchun muhim moliyaviy omillardan biri hisoblanadi. Dividendlarning yoʻqligi aksiyadorlarning daromad olish imkoniyatlarini cheklaydi. Bu esa aksiyadorlarning investitsiya qarorlariga taʼsir qilishi mumkin. Bankning bunday siyosati uning moliyaviy barqarorligini taʼminlashga qaratilgan boʻlishi mumkin. 2013 va 2018 yillardagina imtiyozli aksiyadorlarga dividend hisoblangan. Biroq, toʻlovlar amalga oshirilmagani bankning dividend siyosati sust boʻlganini koʻrsatadi. Ushbu tendensiya bankning ichki strategiyasini aks ettiradi. Bank dividend toʻlash oʻrniga, resurslarni boshqa yoʻnalishlarga yoʻnaltirgan boʻlishi mumkin. Ushbu tahlil “Mikrokreditbank” ATBning aksiyadorlar oldidagi majburiyatlarini qanday boshqarayotganini koʻrsatadi. 2013-2022 yillarda dividend siyosati boʻyicha

sezilarli o'zgarish kuzatilmagan. Shu sababli, aksiyadorlar bankdan dividend olishdan ko'ra, kapitalning o'sishiga ko'proq umid bog'lashlari mumkin. Kelajakda bank dividend siyosatini o'zgartirishi ehtimoli mavjud.

2.5-jadval

“Mikrokreditbank” ATB tomonidan to'langan dividendlar tahlili⁵⁵

№	Yillar yakuni bo'yicha	Hisoblangan dividend (oddiy va imtiyozli)	To'langan dividend (oddiy va imtiyozli)
1	2013 yil yakuni	1.Oddiy aksiyalarga hisoblanmagan 2. Imtiyozli aksiyalarga nominal qiymatning 20 foizi miqdorida	0 Bir dona imtiyozli aksiyaga 213,60 (ikki yuz o'n uch) so'm
2	2014 yil yakuni	Oddiy va imtiyozli aksiyalarga dividendlar hisoblanmagan	0
3	2015 yil yakuni	Oddiy va imtiyozli aksiyalarga dividendlar hisoblanmagan	0
4	2016 yil yakuni	Oddiy va imtiyozli aksiyalarga dividendlar hisoblanmagan	0
5	2017 yil yakuni	Oddiy va imtiyozli aksiyalarga dividendlar hisoblanmagan	0
6	2018 yil yakuni	Oddiy va imtiyozli aksiyalarga dividendlar hisoblanmagan	0 Bir dona imtiyozli aksiyaga 213,60 (ikki yuz o'n uch) so'm
7	2019 yil yakuni	1.Oddiy aksiyalarga hisoblanmagan 2. Imtiyozli aksiyalarga nominal qiymatning 20 foizi miqdorida	0
8	2020 yil yakuni	Oddiy va imtiyozli aksiyalarga dividendlar hisoblanmagan	0
9	2021 yil yakuni	Oddiy va imtiyozli aksiyalarga dividendlar hisoblanmagan	0
8	2022 yil yakuni	Oddiy va imtiyozli aksiyalarga dividendlar hisoblanmagan	0

⁵⁵ <https://mikrokreditbank.uz/about/stock-holders/divid/divident.html> - “Mikrokreditbank” ATB rasmiy sayti ma'lumotlari

“Xalq banki” ATB 2016-2018 yillarda oddiy aksiyadorlarga dividend to‘lagan. 2016 yilda oddiy aksiyalar bo‘yicha 13,65 so‘m dividend ajratilib, foiz hisobida 1,37% tashkil qilgan. 2017 yilda dividend miqdori 13,83 so‘mga yetgan, foiz ko‘rsatkichi esa 1,38% bo‘lgan. 2018 yilda dividend miqdori sezilarli darajada kamayib, 4,92 so‘mni tashkil qilgan va foiz ko‘rsatkichi 0,49% ga tushgan. 2019 yildan boshlab esa oddiy aksiyalar bo‘yicha dividend to‘lanmagan. 2020-2022 yillar davomida ham aksiyadorlarga dividend ajratilmagan. Bu holat bankning moliyaviy strategiyasida o‘zgarishlar yuz berganini ko‘rsatadi. Dividendlarning kamayishi va keyinchalik to‘xtatilishi aksiyadorlarning daromad olish imkoniyatini pasaytirgan. Bank dividend to‘lash o‘rniga, ehtimol, moliyaviy barqarorlik va o‘sishga e’tibor qaratgan (2.6-jadval).

2.6-jadval

“Xalq banki” ATB dividend to‘lovlari tahlili⁵⁶

Aksiya turi	2016		2017		2018		2019	2020	2021	2022
	pul ko‘rinishida	foizda	pul ko‘rinishida	foizda	pul ko‘rinishida	foizda	dividend to‘lanmagan	dividend to‘lanmagan	dividend to‘lanmagan	dividend to‘lanmagan
Oddiy aksiyalar	13,65	1,37%	13,83	1,38%	4,92	0,49%				

“Hamkorbank” ATB 2015-2023 yillar davomida aksiyadorlarga dividend hisoblash va to‘lash bo‘yicha turli strategiyalarni qo‘llagan (2.7-jadval). 2015 va 2016 yillarda bank oddiy va imtiyozli aksiyalar bo‘yicha dividend ajratmagan. 2017 yilda imtiyozli aksiyalarga 30% miqdorida dividend hisoblangan bo‘lsa-da, jami dividend to‘lovi 763,7 mln so‘mni tashkil qilgan. To‘lanmagan dividendlar esa 46,5 mln so‘mga yetgan. 2018 yilda jami dividend to‘lovi 1010,14 mln so‘mga

⁵⁶ <https://www.xb.uz/uz/page/aksiya-va-dividentlar/> - “Xalq banki” ATB rasmiy sayti ma’lumotlari

oshgan bo'lsa ham, to'lanmagan dividendlar miqdori keskin kamayib, 1,5 mln so'mni tashkil qilgan.

2.7-jadval

“Hamkorbank” ATBning bir dona aksiyasi nominal qiymatiga nisbatan hisoblangan dividendlari tahlili⁵⁷

Oddiy aksiya uchun		Imtiyozli aksiya uchun		Jami dividend to'lov i summasi (mln. so'm)	To'lanmagan dividendlar (mln. so'm)
2015					
%	So'm	%	so'm	0	0
0	0	0	0		
2016					
%	so'm	%	so'm	0	0
0	0	0	0		
2017					
%	so'm	%	So'm	763,7	0
0	0	30	46,5		
2018					
%	So'm	%	so'm	1010,14	0
0	0	30	1,5		
2019					
%	so'm	%	so'm	1010,14	0
0	0	30	1,5		
2020					
%	so'm	%	so'm	1010,14	0
0	0	30	1,5		
2021					
%	so'm	%	so'm	1010,14	0
0	0	30	1,5		
2022					
%	so'm	%	so'm	1010,14	0
0	0	30	1,5		
2023					
%	so'm	%	so'm	6060,825	0
0	0	30	1,5		

⁵⁷ <https://hamkorbank.uz/uz/for-investors/divident-information/> - Hamkorbank ATB rasmiy sayti ma'lumotlari

2019-2022 yillarda bank imtiyozli aksiyalar bo'yicha har yili 30% miqdorida dividend hisoblab, jami 1010,14 mln so'mdan dividend to'lagan. Ushbu yillarda to'lanmagan dividendlar miqdori 1,5 mln so'm atrofida saqlanib qolgan. Oddiy aksiyalar bo'yicha esa ushbu yillarda ham dividend hisoblanmagan. 2023 yilda esa bank dividend to'lovlarini sezilarli darajada oshirib, jami 6060,825 mln so'm dividend to'lagan. 2023 yilda ham imtiyozli aksiyalar bo'yicha 30% dividend hisoblangan. To'lanmagan dividendlar miqdori avvalgidek 1,5 mln so'm bo'lib qolgan. Bank 2017 yildan keyin doimiy ravishda imtiyozli aksiyadorlarga dividend ajratgan. Oddiy aksiyalar bo'yicha esa 2023 yilgacha dividend hisoblanmagan. 2023 yilgi dividend to'lovining keskin oshishi bankning moliyaviy barqarorligida ijobiy o'zgarishlar yuz berganini ko'rsatishi mumkin. Bankning dividend siyosati asosan imtiyozli aksiyadorlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. 2015-2016 yillardagi nol dividenddan keyin, 2017 yildan boshlab to'lovlar barqarorlashgan. 2023 yilgacha imtiyozli aksiyalar bo'yicha doimiy dividend ajratilishi bankning aksiyadorlar oldidagi majburiyatlarini bajarishini ko'rsatadi. 2023 yilda dividend hajmining oshishi aksiyadorlar uchun ijobiy signal hisoblanadi. Bankning kelajakdagi dividend siyosati qanday shakllanishi aksiyadorlar uchun muhim masala bo'lib qolmoqda (2.7-jadval).

“Trastbank” XAB 2018-2024 yillar davomida aksiyadorlarga dividend to'lash siyosatini turlicha shakllantirgan (2.8-jadval). Oddiy aksiyalar bo'yicha dividend stavkasi 2018 yilda 92,5% bo'lsa, 2019 yilda 61,3% gacha pasaygan. 2020 yilda ushbu ko'rsatkich 101,4% ga oshgan, 2022 yilda esa 120,5% ni tashkil etgan. 2023 yilda bank dividend stavkasini 160,5% gacha ko'targan, bu esa oldingi yillarga nisbatan eng yuqori ko'rsatkichdir. 2024 yilda esa oddiy aksiyalar bo'yicha dividend keskin kamayib, 13,3% ga tushgan. Hisoblangan va to'langan dividendlar miqdori 2018 yilda 92 709,98 mln so'mni tashkil etgan. 2019 yilda bu ko'rsatkich 98 219,15 mln so'mga yetgan. 2020 yilda bank 228 380,18 mln so'm dividend to'lagan. 2022 yilda dividend miqdori keskin oshib, 458 673,54 mln so'mga yetgan. 2023 yilda rekord darajadagi 899 164,33 mln so'm dividend to'langan. 2024 yilda esa dividend hajmi sezilarli ravishda kamayib, 133 012,88

mln soʻmni tashkil qilgan. Imtiyozli aksiyalar boʻyicha dividend stavkasi 2018-2024 yillar davomida doimiy ravishda 15% boʻlib qolgan. Ushbu aksiyalar boʻyicha har yili 3,45 mln soʻm dividend hisoblangan va toʻlangan.

2.8-jadval

“Trastbank” XABning aksiyalar boʻyicha dividend toʻlovlari tahlili⁵⁸

Koʻrsatkichlar	2018	2019	2020	2022	2023	2024
1	2	3	4	5	6	7
Oddiy aksiyalar boʻyicha:	92,5 foiz	61,3 foiz	101,4 foiz	120,5 foiz	160,5 foiz	13,3 foiz
- Hisoblangan va toʻlab berilgan dividendlar miqdori (mln.soʻm):	92709,98	98219,15	228380,18	458673,54	899164,33	133012,88
Imtiyozli aksiyalar boʻyicha:	15 foiz	15 foiz	15 foiz	15 foiz	15 foiz	15 foiz
- Hisoblangan va toʻlab berilgan dividendlar miqdori (mln.soʻm):	3,45	3,45	3,45	3,45	3,45	3,45

Imtiyozli aksiyalar boʻyicha dividend siyosati barqaror boʻlib, oʻzgarishsiz qolgan (2.8-jadval). 2023 yil bank uchun dividend toʻlovlari boʻyicha eng yuqori natijaga ega yil boʻlgan. 2024 yilda dividend miqdorining kamayishi bankning moliyaviy strategiyasida oʻzgarishlar yuz berganini anglatishi mumkin. Bankning dividend siyosati aksiyadorlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Oddiy aksiyalar boʻyicha dividendlarning oʻzgaruvchanligi aksiyadorlar uchun turli moliyaviy natijalarni keltirib chiqargan. Imtiyozli aksiyalar boʻyicha esa barqaror dividend toʻlovlari aksiyadorlarning ishonchini mustahkamlagan. Bank 2023 yilda dividend miqdorini oshirish orqali aksiyadorlarga yuqori daromad taqdim etgan. Kelajakda dividend siyosati qanday shakllanishi bankning moliyaviy holatiga bogʻliq boʻladi.

⁵⁸ <https://trustbank.uz/uz/shareholders/distribution-of-profits/dividends/> - Trastbank XAB rasmiy sayti maʼlumotlari

2.3 §. Kapital bozorida tijorat banklari faoliyati tahlili

Kapital bozorida tijorat banklarining faoliyatini tahlil qilish moliyaviy barqarorlik va investitsion qarorlarni qabul qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Tijorat banklari kapital bozorida asosiy moliyaviy vositachilar sifatida ishtirok etib, iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishda muhim rol o'ynaydi. Ularning moliyaviy ko'rsatkichlarini o'rganish bozor ishtirokchilari uchun risklarni kamaytirish va samarali investitsiya strategiyalarini ishlab chiqishda yordam beradi. Shuningdek, ushbu jarayon kredit bozori holatini tahlil qilish va bank tizimidagi muammolarni aniqlashga xizmat qiladi. Banklarning kapital yetarliligi va aktivlar sifati baholanmasa, kapital bozorida noaniqlik va ishonchsizlik kuchayishi mumkin. Kapital bozorida tijorat banklari faoliyatini tahlil qilish investitsion jozibadorlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Potensial investorlar banklarning moliyaviy holatini tahlil qilish orqali risklarni kamaytirib, oqilona qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Barqaror va ishonchli banklar mavjudligi kapital bozoriga investorlar ishonchini oshirib, yangi investitsiyalarni jalb qilishga xizmat qiladi. Tijorat banklari faoliyatining tahlili orqali bozor ishtirokchilari moliyaviy risklarni oldindan baholab investitsiya strategiyalarini to'g'ri shakllantirishlari mumkin. Kapital yetarliligi va aktivlar sifatining doimiy monitoringi bank tizimining ishonchliligini ta'minlab, investorlarning uzoq muddatli sarmoya kiritishiga zamin yaratadi. Shuningdek, shaffof moliyaviy tahlil orqali kapital bozorining tartibga solinishi va regulyatorlar nazorati kuchayadi.

2023-yil oktyabr oyi holatiga ko'ra O'zbekistonning turli sohalarida faoliyat yurituvchi xususiy va davlat ishtirokidagi korxonalar tahlil qilinganda ularning ustav kapitalida sezilarli o'zgarishlar yuz berganligini qayd etish lozim. Mazkur jadvalda ustav kapitali o'zgarishlari moliya sektori, sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasidagi ayrim korxonalarni qamrab olgan. Jumladan, Orient Finance Bank o'z ustav kapitalini 364,7 milliard so'mga oshirib, jami 1 470,5 milliard so'mga yetkazgan. Trastbank esa o'z kapitalini 440 milliard so'mga oshirib jami 1 000,3 milliard so'mga yetkazgan (2.9-jadval).

2023-yil oktyabr oyida xususiy va davlat ishtirokidagi korxonalarning ustav kapitalidagi o'zgarishlar, mlrd. so'm⁵⁹


№	Chiqarilish emitenti	Emitentning sohasi	O'zgarish turi	O'zgarishdan oldin	O'zgarish hajmi	O'zgarishdan keyin
1.	Orient Finance bank	Moliya sektori	Qo'shimcha	1 105,8	364,7	1 470,5
2.	O'zkimyo-sanoat	Sanoat	Qo'shimcha	1 393,7	1 913,6	3 307,4
3.	Trastbank	Moliya sektori	Qo'shimcha	560,3	440,0	1 000,3
4.	Asko-vostok	Moliya sektori	Qo'shimcha	35,2	15,0	50,2
5.	Apex Insurance	Moliya sektori	Qo'shimcha	252,0	88,0	340,0
6.	NBU invest group	Moliya sektori	Qo'shimcha	894,7	37,9	932,6
7.	Kafolat sug'urta kompaniyasi	Moliya sektori	Qo'shimcha	45,0	45,0	90,0
8.	Agrobank	Moliya sektori	Qo'shimcha	8 554,0	350,0	8 904,0
9.	Samarqand-kimyo	Qishloqxo'jaligi	Qo'shimcha	2,4	1 547,5	1 549,9
10.	Ziraat bank	Moliya sektori	Qo'shimcha	305,3	67,8	373,1
11.	O'zdonmahsulot	Qishloqxo'jaligi	Qo'shimcha	647,6	0,2	647,8
12.	Solutions lab	Xizmatlar	Qo'shimcha	0,2	0,8	1,0
13.	Angren logistika markazi	Xizmatlar	Kamaytirish	21,0	14,4	6,5
14.	O'zbek geologiya qidiruv	Xizmatlar	Kamaytirish	801,3	92,1	709,2

Moliya sektorida faoliyat yurituvchi Asko-Vostok, Apex Insurance, NBU Invest Group va Kafolat sug'urta kompaniyasi ham o'z kapitalini oshirish bo'yicha muhim qarorlar qabul qildi. Jumladan, Apex Insurance 88 milliard so'mlik qo'shimcha kapital jalb etib, jami 340 milliard so'mga yetkazgan. NBU Invest Group esa 37,9 milliard so'mlik qo'shimcha kapital bilan o'z ustav fondini 932,6 milliard so'mga oshirgan. Kafolat sug'urta kompaniyasi esa kapitalini 45 milliard

⁵⁹ <https://depo.uzcsd.uz/api/Website/GetPdfById1571> - O'zbekiston Respublikasi Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi rasmiy sayti ma'lumotlari

soʻmga oshirib 90 milliard soʻmga yetkazgan. Davlat ulushiga ega Agrobank eng katta oʻsishni qayd etgan va ustav kapitali 350 milliard soʻmga oshirilib umumiy hajmi 8 904 milliard soʻmni tashkil etgan. Ziraat Bank ham 67,8 milliard soʻm qoʻshimcha kapital jalb qilib, ustav kapitalini 373,1 milliard soʻmga yetkazgan.

Ikki va undan ortiq aksiyadorlik jamiyatlari portfeliga ega aksiya egalari tuzilmasi tahlili orqali qayd etish mumkinki, aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalariga egalik qiluvchi subyektlarning tuzilmasi turli iqtisodiy ishtirokchilarni qamrab olgan. Xususan, davlat tashkilotlari 156 756,3 milliard soʻm bilan aksiyalar boʻyicha eng yirik ulushga ega. Boshqa yuridik shaxslar 3 711,1 milliard soʻmlik aksiyalarga egalik qilib, ikkinchi oʻrinni egallaydi. Xoʻjalik boshqaruvi organlari 3 396,8 milliard soʻmlik aksiyalar bilan sezilarli ulushga ega boʻlgan investorlar qatoridan oʻrin olgan. Investitsiya vositachilari aksiyalar boʻyicha 1 934,5 milliard soʻmlik portfelga egalik qilmoqda. Jismoniy shaxslar 1 094,4 milliard soʻmlik aksiyalar bilan muhim ishtirokchilardan biri hisoblanadi. Sugʻurta kompaniyalari esa 481 milliard soʻmlik aksiyalarga egalik qilmoqda (2.1-rasm).



2.1-rasm. Ikki va undan ortiq aksiyadorlik jamiyatlari portfeliga ega aksiya egalari tuzilmasi, mlrd. soʻm⁶⁰

⁶⁰ <https://depo.uzcsd.uz/api/Website/GetPdfById1571> - Oʻzbekiston Respublikasi Qimmatli qogʻozlar markaziy depozitariysi rasmiy sayti maʼlumotlari

Banklar tomonidan egalik qilinayotgan aksiyalar hajmi 401,3 milliard soʻmni tashkil etadi. Hokimiyatlar esa 142,6 milliard soʻmlik aksiyalar bilan bozorga taʼsir koʻrsatmoqda. Investitsiya fondlari aksiyalar boʻyicha 7,6 milliard soʻmlik ulushga ega boʻlib, bozor ishtirokchilari orasida nisbatan kichik rol oʻynaydi. Boshqaruv kompaniyalari esa eng kam aksiyalar portfeliga ega boʻlib, ularning umumiy qiymati atigi 0,04 milliard soʻmni tashkil etgan (2.1-rasm).

Aloqabank ATB tomonidan turli yillarda bir necha marta aksiyalar chiqarilgan (2.10-jadval). Eng yirik emissiya 2024-yil 11-dekabrda amalga oshirilgan boʻlib, uning umumiy hajmi 500 milliard soʻmni tashkil etgan. Ushbu emissiyada 500 million dona oddiy aksiya joylashtirilgan.

2.10-jadval

“Aloqabank” ATBda aksiyalar emissiyalari tahlili⁶¹

№	Identifikatsion raqami	Chiqariluv hajmi, (mln. soʻm)	Nominal qiymati, (soʻm)	Joylashtirilgan aksiyalarning umumiy soni, (ming dona)	Shundan oddiy aksiya (ming dona)	Shundan imtiyozli aksiya (ming dona)	Joylashtirilgan sana
1	RU130P0021R2	500 000	1	500 000 000	500 000 000	-	11.12.2024
2	RU129P0021R4 RU129P0021R2	826 979,2	1	826 979 200	825 467 200	1 512 000	26.09.2024
3	RU129P0021R6 RU129P0021R4	1 191 243,8	1	1 191 243 847	1 189 065 847	2 178 000	27.06.2024
4	02/18-2-2/R-12	240 189	121	1 985 033	1 985 033	-	14.02.2024
5	RU127P0021R8	400 026	121	3 306 000	3 306 000	-	11.08.2022
6	RU124P0021R5	99 999,9	121	826 446	826 446	-	25.04.2018

2.10-jadvalga koʻra 2024-yil 26-sentabrda amalga oshirilgan emissiyada aksiyalar umumiy hajmi 826,9 milliard soʻmni tashkil qilgan boʻlib, 1,5 million dona imtiyozli aksiyalar chiqarilgan. 2024-yil 27-iyunda esa 1,19 trillion soʻmlik aksiyalar joylashtirilgan. 2024-yil 14-fevraldagi emissiya esa 240,2 milliard soʻmni tashkil etgan boʻlib, aksiyalar nominal qiymati 121 soʻm boʻlgan. 2022-yil 11-avgustda 400 milliard soʻmlik aksiyalar chiqarilib, 3,3 million dona oddiy aksiya joylashtirilgan. 2018-yil 25-aprelda esa bank 99,9 milliard soʻmlik aksiyalar

⁶¹ <https://aloqabank.uz/uz/shareholders/bank-shares/issuance/> - AT Aloqabank rasmiy sayti maʼlumotlari

emissiyasini amalga oshirgan. Aloqabank ATB aksiyalarining joylashtirilishi davomiy tarzda amalga oshirilgan va ularning aksariyati oddiy aksiyalar shaklida bo'lgan. Bank tomonidan chiqarilgan imtiyozli aksiyalar soni kamroq bo'lib, ular faqat ayrim emissiyalarda kuzatilgan.

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB tomonidan turli yillarda aksiyalar chiqarilgan va ular turli nominal qiymatlarda joylashtirilgan. Eng yirik emissiya 2019-yil 30-oktabrda amalga oshirilgan bo'lib, uning umumiy hajmi 2,45 trillion so'mni tashkil qilgan. Ushbu emissiyada 129,75 million dona oddiy aksiya joylashtirilgan. 2018-yil 25-dekabrda 417 milliard so'mlik emissiya amalga oshirilgan bo'lib, unda 21,96 million dona oddiy aksiya chiqarilgan. 2018-yil 30-oktabrda esa 300 milliard so'mlik emissiya amalga oshirilgan. 2017-yil 22-dekabrda esa 96,7 milliard so'mlik aksiyalar joylashtirilgan. Bank 2017-yil 5-sentabrda 629,7 milliard so'mlik aksiyalar emissiyasini amalga oshirgan. Ushbu emissiyada 33,14 million dona oddiy aksiya chiqarilgan. 2017-yil 2-avgustdagi emissiyada esa 27,4 milliard so'mlik aksiyalar chiqarilgan bo'lib, bu emissiyada 14 ming dona imtiyozli aksiya joylashtirilgan. 2017-yil 18-iyuldagi emissiyada esa 697,9 milliard so'mlik aksiyalar chiqarilgan. Ushbu emissiyada 356 ming dona imtiyozli aksiya joylashtirilgan. Bankning aksiyalarining aksariyati oddiy aksiyalar bo'lib, imtiyozli aksiyalar kam miqdorda chiqarilgan. Aksiyalarning nominal qiymati har bir emissiyada 19 so'm bo'lib, bu doimiy qiymatda saqlangan. Bank tomonidan amalga oshirilgan aksiyalar emissiyalari uning kapital bazasini mustahkamlashga xizmat qilgan. Aksiyalarning chiqarilishi bankning investorlarni jalb qilish strategiyasining bir qismi hisoblanadi. Ushbu emissiyalar bankning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan. Shu bilan birga, bank aksiyadorlari uchun aksiyalar savdosini yanada qulay qilishga intilgan. "O‘zsanoatqurilishbank" aksiyalarining joylashtirilishi kapitalni oshirish maqsadida amalga oshirilgan. Bank aksiyalari bo'yicha strategiyasida barqaror rivojlanish asosiy omil bo'lib xizmat qilgan. Shu sababli, emissiyalar muntazam ravishda amalga oshirib borilgan. Bank aksiyadorlari uchun chiqarilgan aksiyalar ulushdorlik darajasini oshirish imkonini bergan. "O‘zsanoatqurilishbank"

aksiyalari bozor talablari va investitsion muhitni hisobga olgan holda chiqarilgan. Bank kapitalini oshirish uchun aksiyadorlar tarkibi kengaytirilgan (2.11-jadval).

2.11-jadval

“O‘zsanoatqurilishbank” ATBda aksiyalar emissiyalari tahlili⁶²

№	Identifikatsion raqami	Chiqariluv hajmi, (mln.so‘m)	Nominal qiymati, (so‘m)	Joylashtirilgan aksiyalarning umumiy soni, (ming dona)	Shundan oddiy aksiya (ming dona)	Shundan imtiyozli aksiya (ming dona)	Joylashtirilgan sana
1	RU128P0007R4	2 456 358	19	129 755 678	129 755 678	-	30.10.2019
2	RU127P0007R6	417 313	19	21 963 818	21 963 818	-	25.12.2018
3	RU126P0007R8	300 000	19	15 789 474	15 789 474	-	30.10.2018
4	RU125P0007R0	96 723	19	5 090 685	5 090 685	-	22.12.2017
5	RU124P0007R3	629 747	19	33 144 579	33 144 579	-	05.09.2017
6	RU123P0007R5	27 447	19	1 444 556	1 430 556	14 000	02.08.2017
7	RU122P0007R7	697 927	19	36 732 994	36 376 994	356 000	18.07.2017

Asia Alliance Bank ATB korporativ obligatsiyalari bo‘yicha daromad to‘lash grafigi 2.11-jadvalga muvofiq belgilangan. Ushbu obligatsiyalar bo‘yicha daromadlar har chorakda to‘lanadi. Birinchi davr 2019-yil 16-iyuldan 2019-yil 30-sentabrgacha davom etgan. Har bir oraliq davr tugashi bilan daromad hisoblash uchun obligatsiyalar egalari reyestri shakllantiriladi. 2019-yil 1-oktabrdan boshlab ikkinchi davr boshlanib 2019-yil 31-dekabrgacha davom etgan. 2020-yil 1-yanvardan uchinchi davr boshlangan va 2020-yil 31-martda tugagan. Keyingi davr 2020-yil 1-apreldan 30-iyungacha bo‘lgan. 2020-yil 1-iyuldan 30-sentabrgacha bo‘lgan davr beshinchi hisoblanadi. 2020-yil 1-oktabrdan 31-dekabrgacha oltinchi davr hisoblanadi. 2021-yil 1-yanvardan yettinchi davr boshlangan. 2021-yil 1-apreldan sakkizinchi davr boshlangan. 2021-yil 1-iyuldan to‘qqizinchi davr hisoblanadi. 2021-yil 1-oktabrdan o‘ninchi davr boshlangan. 2022-yil 1-yanvardan o‘n birinchi davr hisoblanadi. 2022-yil 1-apreldan boshlab o‘n ikkinchi davr davom etgan. 2022-yil 1-iyuldan boshlab o‘n uchinchi davr boshlanadi. 2022-yil 1-oktabrdan boshlab o‘n to‘rtinchi davr amalga oshirilgan. 2023-yil davomida ham

⁶² <https://sqb.uz/uz/for-investors/shares-and-dividends-uz/> - O‘zsanoatqurilishbank ATB rasmiy sayti ma’lumotlari

daromad to'lovlari har chorakda amalga oshirilgan. 2024-yilda ham ushbu to'lovlar davom ettiriladi. 2025-yil uchun ham to'lov grafigi tasdiqlangan. 2026-yilda so'nggi to'lovlar amalga oshiriladi. Oxirgi to'lov davri 2026-yil 1-iyuldan 15-iyulgacha bo'lib, shu bilan obligatsiyalar bo'yicha to'lovlar yakunlanadi. Ushbu jadval obligatsiyalar bo'yicha barqaror daromad ta'minlash uchun ishlab chiqilgan.

2.12-jadval

Asia Alliance Bank ATB korporativ obligatsiyalari bo'yicha daromad to'lash grafigi⁶³

№	Oraliq davrining boshlanish sanasi	Oraliq davrining tugash sanasi	Daromad hisoblash uchun obligatsiyalar egalari reestrini shakllantirish sanasi
1	16.07.2019	30.09.2019	30.09.2019
2	01.10.2019	31.12.2019	31.12.2019
3	01.01.2020	31.03.2020	31.03.2020
4	01.04.2020	30.06.2020	30.06.2020
5	01.07.2020	30.09.2020	30.09.2020
6	01.10.2020	31.12.2020	31.12.2020
7	01.01.2021	31.03.2021	31.03.2021
8	01.04.2021	30.06.2021	30.06.2021
9	01.07.2021	30.09.2021	30.09.2021
10	01.10.2021	31.12.2021	31.12.2021
11	01.01.2022	31.03.2022	31.03.2022
12	01.04.2022	30.06.2022	30.06.2022
13	01.07.2022	30.09.2022	30.09.2022
14	01.10.2022	31.12.2022	31.12.2022
15	01.01.2023	31.03.2023	31.03.2023
16	01.04.2023	30.06.2023	30.06.2023
17	01.07.2023	30.09.2023	30.09.2023
18	01.10.2023	31.12.2023	31.12.2023
19	01.01.2024	31.03.2024	31.03.2024
20	01.04.2024	30.06.2024	30.06.2024
21	01.07.2024	30.09.2024	30.09.2024
22	01.10.2024	31.12.2024	31.12.2024
23	01.01.2025	31.03.2025	31.03.2025
24	01.04.2025	30.06.2025	30.06.2025
25	01.07.2025	30.09.2025	30.09.2025
26	01.10.2025	31.12.2025	31.12.2025
27	01.01.2026	31.03.2026	31.03.2026
28	01.04.2026	30.06.2026	30.06.2026
29	01.07.2026	15.07.2026	15.07.2026

O'zsanoatqurilishbankdagi obligatsiyalar emissiyasi bo'yicha tahlil shuni ko'rsatadiki, obligatsiyalar chiqarilishi turli yillarda bosqichma-bosqich amalga

⁶³ <https://aab.uz/uz/shareholders/bank-bonds/revenues-on-bonds/> - Asia Alliance Bank ATB rasmiy sayti ma'lumotlari

oshirilgan. Dastlabki emissiyalar 2010-yilda amalga oshirilgan bo'lib, ularning nominal qiymati 100 ming so'mni tashkil qilgan. 2010-yilda uchta emissiya amalga oshirilgan bo'lib, ularning umumiy hajmi 27,06 milliard so'mni tashkil etgan. 2012-yilgi emissiyada 100 ming dona obligatsiya chiqarilgan bo'lib, umumiy hajm 10 milliard so'mga yetgan (2.13-jadval).

2.13-jadval

O'zsanoatqurilishbank tomonidan muomalaga chiqarilgan korporativ obligatsiyalar tahlili⁶⁴

Chiqarilish raqami	Ro'yxatga olish sanasi	Obligatsiyalar soni, dona	Nominal qiymati, so'm	Umumiy hajmi, ming so'm
1*	05.03.2010	40 000	100 000	4 000 000
2	09.03.2010	60 000	100 000	6 000 000
3	29.12.2010	170 600	100 000	17 060 000
4	10.08.2012	100 000	100 000	10 000 000
5**	11.02.2014	10 000	1 000 000	10 000 000
6	19.11.2019	50 000	1 000 000	50 000 000
7	19.11.2019	50 000	1 000 000	50 000 000
8	19.11.2019	50 000	1 000 000	50 000 000

*Bankning 1-korporativ obligatsiyalari chiqarilishi so'ndirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Davlat raqobat qo'mitasi huzuridagi Qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazining 2016 yil 28 sentabrdagi 15-07/043-sonli qaroriga muvofiq bekor qilingan.

**Bankning 5-korporativ obligatsiyalari chiqarilishi O'zbekiston Respublikasi Kapital bozorini rivojlantirish agentligining 2019 yil 5 apreldagi 15-09/010-sonli qaroriga muvofiq bekor qilingan.

2.13-jadvaldagi ma'lumotlarga ko'ra 2014-yilda amalga oshirilgan emissiya avvalgi chiqarilgan obligatsiyalardan farqli ravishda 1 million so'm nominal qiymatga ega bo'lgan. Ushbu emissiyaning umumiy hajmi 10 milliard so'mni tashkil qilgan. 2019-yil 19-noyabrda esa eng yirik emissiyalar amalga oshirilgan bo'lib, uch marotaba 50 ming donadan obligatsiya chiqarilgan. Ushbu uchta emissiyaning har biri 50 milliard so'm hajmda bo'lib, jami 150 milliard so'm hajmda obligatsiyalar chiqarilgan. 2019-yilgi emissiyalar obligatsiyalar bozorida eng katta ulushni tashkil qiladi. Yillar davomida obligatsiyalar nominal qiymati

⁶⁴ <https://sqb.uz/uz/for-investors/debt-instruments-uz/> - O'zsanoatqurilishbank ATB rasmiy sayti ma'lumotlari

oshgani kuzatiladi. Dastlabki emissiyalar kichik hajmda bo‘lib, keyinchalik yirik miqdorlarda chiqarila boshlangan. Bu esa kapital jalb qilish strategiyasining rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Obligatsiyalar emissiyasi vaqt o‘tishi bilan diversifikatsiyalangan va katta hajmda amalga oshirilgan. 2019-yilda chiqarilgan obligatsiyalar investorlar uchun jozibador bo‘lishi mumkin. Ushbu tahlil obligatsiyalar emissiyasining dinamikasi va moliyaviy strategiyalar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

2.14-jadval

O‘zsanoatqurilishbank ATB tomonidan muomalaga chiqarilgan korporativ obligatsiyalar tahlili⁶⁵

Muddatlari	Yillik ustama foiz miqdori	Emissiya hajmi (mln. so‘m)	Foiz to‘lash tartibi
10 yillik (16.03.2020) yilga qadar	*QMS	6 000	Har yarim yilda
10 yillik (23.11.2020) yilga qadar	QMS	17060	Har chorakda
10 yillik (03.05.2022) yilga qadar	QMS – 1	10 000	Har chorakda
3 yillik (02.12.2022) yilga qadar	QMS + 2	50 000	Har chorakda
5 yillik (29.11.2024) yilga qadar	QMS + 3	50 000	Har chorakda
7 yillik (27.11.2026) yilga qadar	QMS + 4	50 000	Har chorakda

* QMS – qayta moliyalash stavkasi

O‘zsanoatqurilishbank ATB tomonidan muomalaga chiqarilgan korporativ obligatsiyalar tahliliga e‘tibor qaratsak, obligatsiyalar turli muddatlarga chiqarilgan bo‘lib ularning foiz stavkalari qayta moliyalash stavkasiga (QMS) bog‘langan. 2020-yil 16-martda chiqarilgan 10 yillik obligatsiyalar umumiy hajmi 6 milliard so‘m bo‘lib, foiz to‘lovlari har yarim yilda amalga oshiriladi. 2020-yil 23-noyabrda chiqarilgan yana bir 10 yillik obligatsiya esa 17,06 milliard so‘mlik bo‘lib, uning foiz to‘lovlari har chorakda amalga oshiriladi. 2022-yil 3-mayda chiqarilgan

⁶⁵ <https://uzpsb.uz/uz/for-investors/qimmatli-qogozlar-haqida-malumot/> - O‘zsanoatqurilishbank ATB rasmiy sayti ma‘lumotlari

obligatsiyalar QMS – 1 stavkasida bo‘lib, 10 milliard so‘m hajmida chiqarilgan. 2022-yil 2-dekabrda chiqarilgan 3 yillik obligatsiyalar esa QMS + 2 stavkasida bo‘lib, 50 milliard so‘m hajmda joylashtirilgan. 2024-yil 29-noyabrga qadar amal qiluvchi 5 yillik obligatsiyalar esa QMS + 3 stavkasida chiqarilib, umumiy hajmi 50 milliard so‘mni tashkil qiladi. 2026-yil 27-noyabrda muddati tugaydigan 7 yillik obligatsiyalar esa eng yuqori foiz – QMS + 4 stavkasida chiqarilgan. 7 yillik obligatsiyalarning umumiy hajmi 50 milliard so‘mga teng. Foiz to‘lovlarining aksariyati har chorakda amalga oshirilishi investorlar uchun likvidlikni oshiradi (2.14-jadval).

2.15-jadval

O‘zsanoatqurilishbank ATBning yevroobligatsiyalari emissiyasi bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlar⁶⁶

№	Xalqaro identifikatsiya raqami (ISIN)	Nashr hajmi, (mln. AQSH doll.)	Nominal qiymati (ming AQSH doll.)	Chiqarilgan obligatsiyalarning umumiy soni	Joylashtirilgan sana	To‘lov sanasi
1	XS2083131859	300	200	1,500	02.12.2019	02.12.2024
2	Regulation S Notes: ISIN: XS2849506402 Rule 144A Notes: ISIN: US917935AA60	400	200	2,000	24.07.2024	24.07.2029
3	Regulation S Notes: ISIN: XS2855478496 Rule 144A Notes: ISIN: US917935AB44	179	199	900	24.07.2024	24.07.2029

O‘zsanoatqurilishbank ATB tomonidan chiqarilgan yevroobligatsiyalar emissiyasi bankning xalqaro moliya bozoriga chiqish strategiyasining muhim qismi hisoblanadi (2.15-jadval). O‘zsanoatqurilishbank ATB yevroobligatsiyalar emissiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirdi. Ushbu obligatsiyalar xalqaro investorlarga taqdim etilgan. Ularning xalqaro identifikatsiya raqami (ISIN) mavjud bo‘lib, har biri maxsus kodga ega. Emissiya hajmi turlicha bo‘lib, jami 879 million AQSH dollarini tashkil etadi. Birinchi emissiya 2019-yilda 300 million AQSH dollari miqdorida chiqarilgan. Ushbu obligatsiyalar 2024-yil 2-dekabrda

⁶⁶ <https://sqb.uz/uz/for-investors/debt-instruments-uz/> - O‘zsanoatqurilishbank ATB rasmiy sayti ma’lumotlari

to‘lanadi. Keyingi emissiyalar 2024-yil 24-iyulda chiqarilgan. Ularning hajmi 400 va 179 million AQSH dollariga teng. Har bir obligatsiyaning nominal qiymati 199 yoki 200 ming AQSH dollarini tashkil qiladi. Umumiy chiqarilgan obligatsiyalar soni 4,400 donadan iborat. Yangi emissiyalar Regulation S va Rule 144A doirasida joylashtirilgan. Ularning identifikatsiya raqamlari turlicha bo‘lib, investorlar uchun farqlanadi. Ikkinchi emissiyada Regulation S Notes va Rule 144A Notes alohida belgilangan. Uchinchi emissiya ham xuddi shunday tartibda chiqarilgan. Joylashtirish sanalari aniq belgilangan va moliyaviy majburiyatlar kafolatlangan. Yevroobligatsiyalar xalqaro bozor talablariga mos keladi. Bank investorlarga yuqori ishonchlilik darajasini taqdim etadi. To‘lov sanalari aniq belgilangan va muddatida amalga oshiriladi. Bu emissiyalar bankning xalqaro bozordagi obro‘cini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ular moliyaviy barqarorlikni oshirishga yordam beradi. O‘zsanoatqurilishbankning yevroobligatsiyalari O‘zbekiston iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo‘shmoqda.

2.16-jadval

“Ipoteka bank” ATIB tomonidan amalga oshirilgan birinchi yevroobligatsiyalari emissiyasi tahlili⁶⁷

Qimmatli qog‘ozlarning xalqaro identifikatsiya raqami (ISIN)	XS2260457754
Emissiya reytingi	S&P: BB- va Fitch: BB-
Emissiya darajasi	Kafolatlanmagan
Format	Reg S
Valyuta	AQSh dollari
Emissiya miqdori	300 mln. AQSh dollari
Narxi	100.0 (par)
Kupon	Yillik 5,5 %, har yarim yilda – 19 may va 19 noyabr kunlari teng taqsimot bilan to‘lanadi. Birinchi to‘lov sanasi – 19 may 2021 y.
Narxlash sanasi	12 noyabr 2020 y.
Hisob-kitob sanasi	19 noyabr 2020 y.
So‘ndirilish muddati	5 yil, 19 noyabr 2025 y.
Asosiy qarzni qaytarish	Muddat oxirida bir martalik to‘lov
Listing	London Fond birjasi, tartibga solinadigan bozor
Qonunchilik	Ingliz qonunchiligi
Denominatsiya	200 000 AQSh doll. x 1 000 AQSh doll.

“Ipoteka bank” ATIB tomonidan amalga oshirilgan birinchi yevroobligatsiyalar emissiyasi bankning xalqaro moliya bozoriga chiqishidagi

⁶⁷ <https://ipotekabank.uz/uzb/investors/debt-securities/> - Ipotekabank ATIB rasmiy sayti ma’lumotlari

muhim qadam bo'ldi (2.16-jadval). Ushbu emissiya xalqaro ISIN raqami XS2260457754 bilan ro'yxatdan o'tgan. Emissiyaning umumiy hajmi 300 million AQSh dollarini tashkil etadi. Qimmatli qog'ozlar S&P va Fitch agentliklari tomonidan BB- reytingiga ega bo'lib, bu ularning o'rta darajadagi ishonchliligini ko'rsatadi. Ushbu obligatsiyalar AQSh dollarida chiqarilgan bo'lib, Reg S formatiga mos keladi. Yillik kupon foizi 5,5% bo'lib, har yarim yilda 19-may va 19-noyabr kunlari teng taqsimot bilan to'lanadi. Birinchi foiz to'lovi 2021-yil 19-mayda amalga oshirilgan. Obligatsiyalar muddati 5 yil bo'lib, 2025-yil 19-noyabrda asosiy qarz bir martalik to'lov bilan qaytariladi. Ushbu qimmatli qog'ozlar London fond birjasining tartibga solinadigan bozorida listinga kiritilgan. Emissiya ingliz qonunchiligi asosida tartibga solingan bo'lib, xalqaro investorlarga ishonchli yuridik muhit yaratadi. Ushbu obligatsiyalar "Ipoteka bank"ning barqaror moliyaviy siyosati va xalqaro bozorga integratsiyasini aks ettiradi.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar

Mazkur bobda tijorat banklarining investitsion jozibadorlikni oshirishga qaratilgan faoliyatlari tahlilini amalga oshirish orqali quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

Birinchidan, dividend siyosati bankning moliyaviy strategiyasining ajralmas qismidir. Dividendlar orqali aksiyadorlar daromad oladi va bu ularning bankka bo'lgan ishonchini oshiradi. Barqaror va aniq shakllangan dividend siyosati investorlarni uzoq muddatli sarmoyaga jalb etishga yordam beradi;

Ikkinchidan, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividend to'lovlari ko'proq barqarorlikka ega. Ko'plab banklar ushbu aksiyalar bo'yicha doimiy dividend to'lab kelmoqda. Bu esa aksiyadorlar uchun ishonchli daromad manbai hisoblanadi va bu orqali investitsion jozibadorlikni oshirish mumkin;

Uchinchidan, oddiy aksiyalar bo'yicha dividend to'lovlar bankning moliyaviy holatiga bog'liq. Ayrim yillarda bu to'lovlar amalga oshirilmagan, bu esa aksiyadorlar manfaatlariga bevosita ta'sir qiladi. Shu sababli dividend to'lamaslik qarori ehtiyotkorlik bilan qabul qilinishi lozim;

To'rtinchidan, bank dividend siyosati orqali aksiyalar bozoridagi jozibadorligini belgilaydi. Yuqori dividendlar ko'pincha aksiyalar narxining o'sishiga olib keladi. Bu esa bank kapitalining qiymatini oshirishga va investorlar oqimini kuchaytirishga xizmat qiladi;

Beshinchidan, kapital bozorida banklar faol ishtirok etish orqali investitsiyalarni jalb qilishi lozim. Aksiyalar emissiyasi va obligatsiyalar chiqarilishi orqali banklar qo'shimcha mablag'ga ega bo'ladi. Bu esa ularning investitsion imkoniyatlarini kengaytiradi;

Oltinchidan, dividend to'lovlarining muntazamligini ta'minlash orqali aksiyadorlar ishonchini oshirish lozim. Aksiyadorlar uchun barqaror daromad muhim bo'lib, bu ularning aksiyalarni saqlab qolishiga sabab bo'ladi. Bu holat bank aksiyalarining bozordagi barqarorligiga xizmat qiladi;

Yettinchidan, kelgusida banklar dividend siyosatini takomillashtirish orqali investitsion jozibadorlikni oshirishi mumkin. Oddiy aksiyalar bo'yicha to'lovlarni qayta tiklash, dividend stavkalarini oshirish va dividendlarni barqarorlashtirish bozor ishonchini kuchaytiradi. Bu esa banklarning kapital bozoridagi o'rnini yanada mustahkamlaydi.


III BOB. TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO‘NALISHLARI

3.1 §. Tijorat banklari investitsion jozibadorligini oshirishning xorij tajribasi

Hozirda tijorat banklari investitsion jozibadorligini oshirish uchun xorijiy tajribani o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro bank tizimidagi ilg‘or tajribalar kapital jalb qilish samaradorligini oshiradi. Rivojlangan mamlakatlarning tijorat banklari barqaror investitsion muhit yaratishda muvaffaqiyat qozongan. Bank tizimini modernizatsiya qilish uchun global tajribani o‘rganish zarur. Xorijiy banklar uzoq muddatli investitsiyalarni jalb qilish strategiyasiga ega ekanligi sababli xorijiy banklar tajribasidan risklarni boshqarishda samarali foydalanish imkoniyatini taqdim etadi. Bugungi kunda bank sektorining investitsion jozibadorligi kapital bozorining rivojlanishiga bog‘liq. Moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash xorijiy banklarning asosiy ustunligi hisoblanadi. Shu boisdan quyida tijorat banklari investitsion jozibadorligini oshirishning xorij tajribasini o‘rganib o‘tamiz.

AQSh fond bozorida har yili turli kompaniyalar IPO orqali kapital jalb qiladi. IPO operatsiyalari soni yildan-yilga o‘zgarib boradi. 2021-yil IPO bo‘yicha rekord yil bo‘ldi va 1035 ta IPO amalga oshirildi. 2020-yilda ham IPO faoliyati yuqori bo‘lib, 480 ta IPO kuzatildi. 2014-yilda IPO soni 304 tani tashkil etdi. 2000-yilda IPO operatsiyalari soni 397 tani tashkil etgan. 2004-yilda esa bu ko‘rsatkich 314 taga yetgan. 2007-yilda IPO soni 268 ta bo‘lgan. 2018-yilda IPO soni 255 tani tashkil qilgan. 2019-yilda esa 232 ta IPO amalga oshirilgan. 2022-yilda IPO soni keskin pasayib, 181 ta bo‘lgan. 2023-yilda IPO faolligi yana pasayib, 154 taga yetgan. 2024-yilda esa IPO operatsiyalari soni 225 tani tashkil qilgan. 2015-yilda 206 ta IPO amalga oshirilgan. 2016-yilda IPO faolligi pasayib, 133 taga tushgan. 2017-yilda IPO soni biroz oshib, 217 tani tashkil etgan. 2013-yilda IPO operatsiyalari soni 251 tani tashkil qilgan. 2012-yilda esa bu ko‘rsatkich 157 tani tashkil etgan. 2011-yilda IPO soni 171 ta bo‘lgan. 2010-yilda IPO faolligi

biroz oshib, 190 taga yetgan. 2009-yilda IPO soni juda past bo'lib, atigi 79 ta bo'lgan. 2008-yilda esa IPO soni yanada kamayib, 62 tani tashkil qilgan (3.1-rasm).




3.1-rasm. AQSh fond bozorida amalga oshirilgan IPO operatsiyalari soni⁶⁸

2022-2024-yillarda AQSh fond bozorida oylar kesimida IPO operatsiyalari soni sezilarli darajada o'zgarib borgan. 2022-yilda yanvar oyida eng ko'p IPO amalga oshirilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 34 tani tashkil qilgan. 2023-yilda yanvar oyida IPO soni 8 taga tushgan bo'lsa, 2024-yilda 15 taga yetgan. Fevral oyida 2022-yilda 32 ta IPO amalga oshirilgan bo'lsa, keyingi yillarda bu ko'rsatkich sezilarli kamaygan. 2023-yilda fevral oyida 17 ta IPO bo'lib o'tgan, 2024-yilda esa 16 ta IPO qayd etilgan. Mart oyida 2022-yilda IPO soni 17 tani tashkil qilgan,

⁶⁸ <https://stockanalysis.com/ipos/statistics/> - Stock Analysis fond bozori ma'lumotlarini taqdim etuvchi rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

2023-yilda esa bu ko'rsatkich 19 taga oshgan, 2024-yilda esa 12 taga pasaygan. Aprel oyida 2022-yilda 17 ta IPO amalga oshirilgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 15 ta, 2024-yilda esa 20 taga yetgan. Boshqa oylarda ham ko'rsatkichlar o'zgaruvchanligi kuzatilgan (3.2-rasm).



3.2-rasm. AQShda 2022-2024-yillarda oylar kesimida IPO operatsiyalari soni taqqoslama tahlili⁶⁹

⁶⁹ <https://stockanalysis.com/ipos/statistics/> - Stock Analysis fond bozori ma'lumotlarini taqdim etuvchi rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

2023-yil aprel oyida dunyo bo'ylab 15 ta kompaniya IPO orqali birlamchi ommaviy taklifini amalga oshirdi. Ushbu IPO operatsiyalarining natijalari turlicha bo'ldi, ba'zilar muvaffaqiyatli bo'lsa, boshqalari aksiyalarining qiymatida sezilarli yo'qotishlarga duch keldi. Eng yuqori o'sish Top KingWin Ltd (TCJH) kompaniyasi tomonidan qayd etilib, uning aksiyalari 35,75%ga oshdi va \$4,00 dan \$5,26 gacha ko'tarildi. Shuningdek, Ispire Technology Inc. (ISPR) aksiyalari 25,00%ga o'sib, \$7,00 dan \$8,66 gacha yetdi. IPO natijalari bo'yicha eng katta yo'qotish Wang & Lee Group, Inc. (WLGS) kompaniyasida kuzatilib, uning aksiyalari -56,20%ga pasayib, \$5,00 dan \$2,17 gacha tushdi. Ikkinchi eng katta yo'qotish Millennium Group International Holdings Limited (MGIH) kompaniyasida qayd etilib, aksiyalar -52,50%ga pasayib, \$4,00 dan \$2,50 gacha yetdi. Trio Petroleum Corp. (TPET) aksiyalari -31,67%, VCI Global Limited (VCIG) aksiyalari esa -31,50%lik yo'qotishga uchradi. Interactive Strength Inc. (TRNR) aksiyalari ham -17,38%ga pasaydi (3.1-jadval).

3.1-jadval

2023-yil aprel oyida dunyo bo'ylab o'tkazilgan IPO operatsiyalari tahlili⁷⁰

№	IPO sanasi	Tiker	Kompaniya nomi	IPO narxi (1 dona aksiya)	Joriy narxi (1.05.2023 holatiga)	Farq (foizda)
1.	Apr 28, 2023	TRNR	Interactive Strength Inc.	\$8,00	\$6,84	-17,38%
2.	Apr 21, 2023	AACT	Ares Acquisition Corporation II	\$10,00	\$10,12	1,20%
3.	Apr 21, 2023	JYD	Jayud Global Logistics Limited	\$4,00	\$3,71	-5,25%
4.	Apr 20, 2023	UCAR	U Power Limited	\$6,00	\$5,26	-12,33%
5.	Apr 20, 2023	USGO	U.S. GoldMining Inc.	\$10,00	\$9,85	-7,06%
6.	Apr 20, 2023	WLGS	Wang & Lee Group, Inc.	\$5,00	\$2,17	-56,20%
7.	Apr 18, 2023	TCJH	Top KingWin Ltd	\$4,00	\$5,26	35,75%
8.	Apr 18, 2023	TPET	Trio Petroleum Corp.	\$3,00	\$2,10	-31,67%
9.	Apr 14, 2023	GDTC	CytoMed Therapeutics Pte. Ltd.	\$4,00	\$3,52	-12,50%
10.	Apr 13, 2023	VCIG	VCI Global Limited	\$4,00	\$2,55	-31,50%
11.	Apr 12, 2023	GDHG	Golden Heaven Group Holdings Ltd.	\$4,00	\$4,20	2,25%
12.	Apr 5, 2023	ARBB	ARB IOT Group Limited	\$4,00	\$3,78	2,50%
13.	Apr 4, 2023	ISPR	Ispire Technology Inc.	\$7,00	\$8,66	25,00%
14.	Apr 4, 2023	MGIH	Millennium Group International Holdings Limited	\$4,00	\$2,50	-52,50%
15.	Apr 3, 2023	MWG	Multi Ways Holdings Limited	\$2,50	\$1,36	-19,60%

⁷⁰ <https://stockanalysis.com/ipos/> - Stock Analysis fond bozori ma'lumotlarini taqdim etuvchi rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

U Power Limited (UCAR) aksiyalari -12,33%ga tushdi, bu esa kompaniyaning IPO natijasida investorlar ishonchini qozona olmaganligini ko'rsatadi. Barcha IPOlar orasida minimal o'zgarish Ares Acquisition Corporation II (AACT) aksiyalarida kuzatildi. Ularning narxi atigi 1,20%ga o'sib, \$10,00 dan \$10,12 gacha ko'tarildi. Golden Heaven Group Holdings Ltd (GDHG) aksiyalari 2,25%, ARB IOT Group Limited (ARBB) aksiyalari esa 2,50% ga o'sdi, bu esa IPO natijalarining nisbatan barqaror ekanligini ko'rsatadi. Umuman olganda, 15 ta IPOdan faqat 5 tasi ijobiy natija ko'rsatgan bo'lsa, qolgan 10 tasi yo'qotishga duch keldi. Aprel oyidagi IPO natijalari bozorning investitsiyaviy muhitga bo'lgan ehtiyotkorlik bilan yondashayotganini ko'rsatdi. Texnologik kompaniyalar o'sish tendensiyasini namoyon etgan bo'lsa, logistik va xizmat ko'rsatish kompaniyalari katta yo'qotishlarga uchradi. Ushbu tendensiyalar investorlarning IPO orqali daromad olish imkoniyatlarini ehtiyotkorlik bilan baholashlarini talab etadi (3.1-jadval).

Bank of America 2018-2025-yillar davomida dividend to'lovlarini muntazam oshirib kelmoqda. 2025-yilda eng yuqori dividend \$0,26 bo'lib 28-mart kuni to'langan. 2024-yilda dividend miqdori \$0,24 dan \$0,26 gacha oshgan, mart va iyun oylarida \$0,24, sentyabr va dekabr oylarida esa \$0,26 dividend belgilangan. 2023-yilda har chorakda \$0,22 yoki \$0,24 dividend to'langan, sentyabr va dekabr oylarida \$0,24 ga yetgan. 2022-yilda dividend miqdori \$0,21 dan \$0,22 gacha oshgan, iyun va mart oylarida \$0,21, sentyabr va dekabr oylarida esa \$0,22 dividend to'langan. 2021-yilda eng katta o'sish kuzatilib, dividend \$0,18 dan \$0,21 gacha oshirilgan. Mart va iyun oylarida \$0,18, sentyabr va dekabr oylarida esa \$0,21 to'langan. 2020-yilda dividend o'zgarishsiz qolib, har chorakda \$0,18 to'langan. 2019-yilda dividend miqdori yil davomida o'sib, mart va iyun oylarida \$0,15, sentyabr va dekabr oylarida esa \$0,18 bo'lgan. 2018-yilda esa eng past dividend qayd etilgan bo'lib, mart va iyun oylarida \$0,12, sentyabr va dekabr oylarida \$0,15 to'langan. Eng yuqori dividend 2025-yilda \$0,26 bo'lsa, eng past dividend 2018-yilda \$0,12 bo'lgan. Oxirgi yetti yilda dividend miqdori ikki barobarga oshgan. 2018-yildan 2025-yilgacha dividend 116% ga o'sgan, bu esa kompaniyaning barqaror rivojlanishini ko'rsatadi. 2020-yilda dividendlar o'zgarishsiz qolgan bo'lsa-da, 2021-yildan boshlab sezilarli o'sish kuzatilgan. 2023-

2025-yillarda dividend miqdori \$0,22 dan \$0,26 gacha oshgan, bu esa bankning investorlarga ko‘proq daromad taqdim etayotganini ko‘rsatadi. Bank of America dividend siyosati barqaror o‘shish tamoyiliga asoslangan bo‘lib, investorlar uchun dividend daromadining oshib borishi ijobiy tendensiya sifatida baholanadi. So‘nggi yillarda dividend har chorakda oshgan, bu esa bankning moliyaviy mustahkamligini tasdiqlaydi (3.2-jadval).

3.2-jadval

Bank of America Corporation tomonidan to‘langan dividend to‘lovlari tahlili⁷¹

Yillar	Dividend to‘lovlari sanasi	Dividend to‘lovlari hajmi
2025	28-mart	\$0,26
2024	27-dekabr	\$0,26
	27-sentyabr	\$0,26
	28-iyun	\$0,24
	29-mart	\$0,24
2023	29-dekabr	\$0,24
	29-sentyabr	\$0,24
	30-iyun	\$0,22
	31-mart	\$0,22
2022	30-dekabr	\$0,22
	30-sentyabr	\$0,22
	24-iyun	\$0,21
	25-mart	\$0,21
2021	31-dekabr	\$0,21
	24-sentyabr	\$0,21
	25-iyun	\$0,18
	26-mart	\$0,18
2020	24-dekabr	\$0,18
	25-sentyabr	\$0,18
	26-iyun	\$0,18
	37-mart	\$0,18
2019	27-dekabr	\$0,18
	27-sentyabr	\$0,18
	28-iyun	\$0,15
	29-mart	\$0,15
2018	28-dekabr	\$0,15
	28-sentyabr	\$0,15
	29-iyun	\$0,12
	30-mart	\$0,12

⁷¹ <https://stockanalysis.com/stocks/bac/dividend/> - Stock Analysis fond bozori ma’lumotlarini taqdim etuvchi rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

Morgan Stanley 2018-2025-yillar davomida dividend to'lovlarini izchil oshirib kelmoqda. Eng yuqori dividend 2025-yilda \$0,925 bo'lib, fevral oyida to'langan. 2024-yilda dividend miqdori \$0,850 dan \$0,925 gacha oshgan, fevral va may oylarida \$0,850 bo'lsa, avgust va noyabr oylarida \$0,925 ga yetgan. 2023-yilda har chorakda \$0,775 yoki \$0,850 dividend to'langan, fevral va may oylarida \$0,775, avgust va noyabr oylarida esa \$0,850 miqdorida bo'lgan (3.3-jadval).

3.3-jadval

Morgan Stanley tomonidan to'langan dividend to'lovlari tahlili⁷²

Yillar	Dividend to'lovlari sanasi	Dividend to'lovlari hajmi
2025	14-fevral	\$0,925
2024	15-noyabr	\$0,925
	15-avgust	\$0,925
	15-may	\$0,850
	15-fevral	\$0,850
2023	15-noyabr	\$0,850
	15-avgust	\$0,850
	15-may	\$0,775
	15-fevral	\$0,775
2022	15-noyabr	\$0,775
	15-avgust	\$0,775
	13-may	\$0,700
	15-fevral	\$0,700
2021	15-noyabr	\$0,700
	13-avgust	\$0,700
	14-may	\$0,350
	12-fevral	\$0,350
2020	13-noyabr	\$0,350
	14-avgust	\$0,350
	15-may	\$0,350
	14-fevral	\$0,350
2019	15-noyabr	\$0,350
	15-avgust	\$0,350
	15-may	\$0,300
	15-fevral	\$0,300
2018	15-noyabr	\$0,300
	15-avgust	\$0,300
	15-may	\$0,250
	15-fevral	\$0,250

3.3-jadvalga ko'ra 2022-yilda dividend miqdori \$0,700 dan \$0,775 gacha oshgan, fevral va may oylarida \$0,700, avgust va noyabr oylarida esa \$0,775

⁷² <https://stockanalysis.com/stocks/ms/dividend/> Stock Analysis fond bozori ma'lumotlarini taqdim etuvchi rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

dividend berilgan. 2021-yilda esa dividendlar ikki bosqichda oshirilgan, yilning birinchi yarmida \$0,350, ikkinchi yarmida esa \$0,700 ga ko'tarilgan. 2020-yilda barcha choraklarda \$0,350 dividend belgilangan, hech qanday o'sish kuzatilmagan. 2019-yilda dividendlar mart va may oylarida \$0,300, avgust va noyabr oylarida esa \$0,350 bo'lgan, bu yil davomida o'sish kuzatilganini ko'rsatadi. 2018-yilda esa eng past dividend qayd etilgan bo'lib, mart va may oylarida \$0,250, avgust va noyabr oylarida esa \$0,300 dividend to'langan. Eng yuqori dividend 2025-yilda \$0,925 bo'lsa, eng past dividend 2018-yilda \$0,250 bo'lgan. So'nggi yetti yilda dividend miqdori to'rt barobarga oshgan, bu esa kompaniyaning barqaror rivojlanishini ko'rsatadi. 2018-yildan 2025-yilgacha dividend 270% ga o'sgan, bu Morgan Stanley aksiyalarining jozibadorligini oshirgan muhim omillardan biri hisoblanadi. 2021-yilda dividendlardagi eng katta yillik o'sish qayd etilgan, fevral va may oylarida \$0,350 bo'lsa, avgust va noyabr oylarida \$0,700 ga oshgan. 2022-2025-yillarda dividendlar har yili barqaror ravishda oshib borgan, bu esa kompaniyaning moliyaviy barqarorligini aks ettiradi. Morgan Stanley dividend siyosati aksiyadorlar uchun barqaror daromad ta'minlashga qaratilgan. 2023-2025-yillarda dividend miqdori \$0,775 dan \$0,925 gacha oshib, kompaniya aksiyadorlari uchun foydali ko'rsatkichlarni taqdim etmoqda. So'nggi besh yilda dividend har chorakda oshgan, bu esa kompaniyaning kuchli moliyaviy natijalarini aks ettiradi. Ushbu o'sish kompaniyaning daromadli biznes modelga ega ekanligini va aksiyadorlarga bo'lgan e'tiborini namoyon etadi.

JP Morgan Chase 2018-2025-yillar davomida dividend to'lovlarini izchil oshirib kelmoqda. Eng yuqori dividend 2025-yilning yanvar oyida \$1,25 bo'lib, bu kompaniyaning barqaror moliyaviy strategiyasini tasdiqlaydi. 2024-yilda dividend miqdori \$1,05 dan \$1,25 gacha oshgan, yanvar oyida \$1,05, aprel va iyul oylarida \$1,15, oktyabr oyida esa \$1,25 ga yetgan. 2023-yilda dividendlar \$1,00 va \$1,05 orasida bo'lgan, yanvar va aprel oylarida \$1,00, oktyabr oyida esa \$1,05 miqdorida belgilangan. 2022-yilda barcha choraklarda dividend \$1,00 bo'lib, hech qanday o'sish kuzatilmagan. 2021-yilda esa dividendlar bosqichma-bosqich oshgan, yilning birinchi yarmida \$0,90, ikkinchi yarmida esa \$1,00 gacha ko'tarilgan. Bu

kompaniyaning o'sish strategiyasining natijasidir. 2020-yilda dividendlar o'zgarishsiz qolib, har chorakda \$0,90 miqdorida to'langan. 2019-yilda dividend mart va aprel oylarida \$0,80, iyul va oktyabr oylarida esa \$0,90 bo'lgan, bu esa yil davomida sezilarli o'sish kuzatilganligini ko'rsatadi. 2018-yilda eng past dividend qayd etilgan bo'lib, yanvar va aprel oylarida \$0,56, iyul va oktyabr oylarida esa \$0,80 dividend to'langan (3.4-jadval).

3.4-jadval

JP Morgan Chase tomonidan to'langan dividend to'lovlari tahlili⁷³

Yillar	Dividend to'lovlari sanasi	Dividend to'lovlari hajmi
2025	31-yanvar	\$1,25
2024	31-oktyabr	\$1,25
	31-iyul	\$1,15
	30-aprel	\$1,15
	31-yanvar	\$1,05
2023	31-oktyabr	\$1,05
	31-iyul	\$1,00
	30-aprel	\$1,00
	31-yanvar	\$1,00
2022	31-oktyabr	\$1,00
	31-iyul	\$1,00
	30-aprel	\$1,00
	31-yanvar	\$1,00
2021	31-oktyabr	\$1,00
	31-iyul	\$0,90
	30-aprel	\$0,90
	31-yanvar	\$0,90
2020	31-oktyabr	\$0,90
	31-iyul	\$0,90
	30-aprel	\$0,90
	31-yanvar	\$0,90
2019	31-oktyabr	\$0,90
	31-iyul	\$0,80
	30-aprel	\$0,80
	31-yanvar	\$0,80
2018	31-oktyabr	\$0,80
	31-iyul	\$0,56
	30-aprel	\$0,56
	31-yanvar	\$0,56

3.4-jadval ma'lumotlariga ko'ra eng yuqori dividend 2025-yilda \$1,25 bo'lsa, eng past dividend 2018-yilda \$0,56 bo'lgan. Oxirgi yetti yilda dividend

⁷³ <https://stockanalysis.com/stocks/jpm/dividend/> - Stock Analysis fond bozori ma'lumotlarini taqdim etuvchi rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

miqdori 123% ga oshgan, bu esa kompaniyaning barqaror rivojlanishini aks ettiradi. 2018-yildan 2025-yilgacha dividend miqdori ikki barobardan ko'proq o'sgan, bu kompaniyaning aktsiyadorlarga bo'lgan e'tiborini namoyish etadi. 2021-yilda dividendlardagi eng katta yillik o'sish qayd etilgan, fevral va aprel oylarida \$0,90 bo'lsa, iyul oyida \$1,00 ga oshgan. 2022-2025-yillarda dividendlar har yili bosqichma-bosqich oshib borgan, bu esa kompaniyaning moliyaviy barqarorligini tasdiqlaydi. JP Morgan Chase dividend siyosati aktsiyadorlar uchun barqaror daromad ta'minlashga qaratilgan. 2023-2025-yillarda dividend miqdori \$1,00 dan \$1,25 gacha oshib, kompaniya aktsiyadorlari uchun daromadli investitsiya imkoniyatlarini taqdim etmoqda. So'nggi besh yilda dividend har chorakda oshgan, bu esa kompaniyaning moliyaviy barqarorligini aks ettiradi.

Nyu-York fond birjasida ro'yxatga olingan eng yirik banklar bozor kapitallashuvi, aksiyalar narxi va daromad ko'rsatkichlari bo'yicha turlicha natijalarni ko'rsatmoqda. Eng katta bozor kapitallashuvi JPMorgan Chase & Co. kompaniyasiga tegishli bo'lib, u 703,30 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. Uning aksiyalari bozorda \$251,53 narx bilan savdo qilinmoqda va umumiy daromadi 166,78 milliard dollarga yetgan. Ikkinchi o'rinda Bank of America Corporation bo'lib, uning bozor kapitallashuvi 321,60 milliard dollarni tashkil qiladi. Bank aksiyalarining narxi \$42,29 bo'lib, daromadi 96,07 milliard dollarni tashkil qilgan. Wells Fargo & Company esa 243,85 milliard dollarlik bozor kapitallashuvi va \$74,16 aksiyalar narxi bilan uchinchi o'rinda turibdi. Uning umumiy daromadi 77,96 milliard dollarni tashkil qiladi. Eng yuqori aksiyalar narxi Royal Bank of Canadaga tegishli bo'lib, uning har bir aksiya narxi \$115,13 ni tashkil qilgan. Biroq, ushbu bankning bozor kapitallashuvi 162,28 milliard dollar, daromadi esa 39,47 milliard dollar bilan cheklangan. Eng past aksiyalar narxi Banco Santander, S.A.da bo'lib, u \$6,64 narxda savdo qilinmoqda. Bank kapitallashuvi 100,22 milliard dollar, daromadi esa 51,32 milliard dollarni tashkil etgan. Daromad bo'yicha yetakchi JPMorgan Chase & Co. bo'lsa, eng kam daromad ko'rsatkichi ICICI Bank Limitedga tegishli bo'lib, u 20,51 milliard dollarni tashkil qilgan. Mitsubishi UFJ Financial Group va The Toronto-Dominion Bank ham daromadi

past boʻlgan banklar qatoriga kiradi. Sumitomo Mitsui Financial Group, Inc. 98,68 milliard dollarlik bozor kapitallashuvi bilan eng past kapitallashuvga ega boʻlgan yirik banklar qatoriga kiradi (3.5-jadval).

3.5-jadval

Nyu York fond birjasida listingdan oʻtgan banklarning kapital bozoridagi koʻrsatkichlari tahlili, 01.03.2025 yil holatiga⁷⁴

№	Bank nomi	Bozor kapitallashuvi, mlrd. AQSh dollari	Aksiya narxi, AQSh dollari	Daromad, mlrd. AQSh dollari
1	JPMorgan Chase & Co.	703,30	251,53	166,78
2	Bank of America Corporation	321,60	42,29	96,07
3	Wells Fargo & Company	243,85	74,16	77,96
4	HSBC Holdings plc	212,30	61,58	61,25
5	Royal Bank of Canada	162,28	115,13	39,47
6	Mitsubishi UFJ Financial Group, Inc.	149,64	13,03	39,43
7	HDFC Bank Limited	148,83	60,32	31,58
8	Citigroup Inc.	137,49	72,96	71,36
9	UBS Group AG	106,79	34,24	48,06
10	The Toronto-Dominion Bank	103,32	59,24	36,87
11	Banco Santander, S.A.	100,22	6,64	51,32
12	ICICI Bank Limited	98,85	28,11	20,51
13	Sumitomo Mitsui Financial Group, Inc.	98,68	15,46	27,00
14	Banco Bilbao Vizcaya Argentaria, S.A.	79,64	13,93	32,68
15	Bank of Montreal	72,11	99,40	20,90

3.5-jadval maʼlumotlariga koʻra, eng yirik AQSh banklari, xususan JPMorgan Chase & Co. va Bank of America Corporation bozorda yetakchi oʻrinlarni egallaydi. Yevropa banklari orasida HSBC Holdings plc va UBS Group

⁷⁴ <https://www.nyse.com/listings/resources> - Nyu York fond birjasi (NYSE) rasmiy sayti maʼlumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

AG sezilarli kapitallashuv va daromad ko'rsatkichlariga ega. Kanada banklari orasida Royal Bank of Canada va The Toronto-Dominion Bank yetakchilik qiladi. Nyu-York fond birjasida ro'yxatga olingan banklarning aksiyalar narxлари, kapitallashuvi va daromadlari o'rtasida sezilarli farqlar mavjud. Banklar o'z moliyaviy natijalarini aksiyadorlarga raqobatbardosh dividend va barqaror daromad bilan ta'minlashga intilmoqda. JPMorgan Chase & Co. bozor yetakchisi bo'lib qolmoqda, Citigroup Inc. esa daromad bo'yicha raqobatbardosh o'rin egallaydi. Shuningdek, Bank of America Corporation o'sish sur'atini saqlab qolgan holda bozordagi eng barqaror banklardan biri sifatida ajralib turadi. Mitsubishi UFJ Financial Group va HDFC Bank Limited esa Osiyo bozorlarida yetakchi o'rinlarni egallaydi. Yevropa banklari orasida Banco Santander va HSBC Holdings plc daromadlari sezilarli bo'lib, kapitallashuvi yuqori bo'lgan banklar sirasiga kiradi. Nyu-York fond birjasida joylashgan ushbu banklarning bozor kapitalizatsiyasi va aksiyalar qiymati moliyaviy barqarorlik va jahon iqtisodiyotining umumiy holatiga bog'liq ravishda o'zgarib boradi. Kelgusi yillarda yuqori bozor kapitallashuvi va dividend siyosati bank aksiyadorlari uchun muhim faktor bo'lib qoladi.

Tokio fond birjasida ro'yxatga olingan banklar bozor kapitallashuvi, aksiyalar narxi va daromad bo'yicha turlicha natijalarga ega. Eng katta bozor kapitallashuvi Mitsubishi UFJ Financial Group, Inc. kompaniyasiga tegishli bo'lib, uning kapitallashuvi 22 240,0 milliard yenga yetdi. Ushbu bank aksiyalari 1 951,50 yenda savdo qilinmoqda, umumiy daromadi esa 6 199,27 milliard yenni tashkil etgan. Ikkinchi o'rinda Sumitomo Mitsui Financial Group, Inc. joylashib, uning bozor kapitallashuvi 14 660,0 milliard yenni tashkil etadi. Ushbu bank aksiyalari 3 817,00 yenda baholanmoqda, umumiy daromadi esa 4 244,87 milliard yenni tashkil etgan. Mizuho Financial Group, Inc. esa uchinchi o'rinda bo'lib, uning bozor kapitallashuvi 10 540,0 milliard yen va aksiyalar narxi 4 253,00 yenni tashkil etgan. Bankning daromadi 3 834,39 milliard yenni tashkil qilgan. Eng yuqori aksiyalar narxi Shinkin Central Bank'ga tegishli bo'lib, uning aksiyalari 220 700 yenda savdo qilinmoqda. Biroq, ushbu bankning bozor kapitallashuvi 1

912,33 milliard yen, daromadi esa 183,35 milliard yen bilan cheklangan. Eng past aksiyalar narxi Mebuki Financial Group, Inc. ga tegishli bo‘lib, uning aksiya narxi 642,80 yen bo‘lgan. Ushbu bankning bozor kapitallashuvi 632,82 milliard yen bo‘lib, daromadi hozircha e‘lon qilinmagan (3.6-jadval).

3.6-jadval

Tokio fond birjasida listingdan o‘tgan banklarning kapital bozoridagi ko‘rsatkichlari tahlili, 01.03.2025 yil holatiga⁷⁵

№	Bank nomi	Bozor kapitallashuvi, mlrd. yen	Aksiya narxi, yen	Daromad, mlrd. yen
1	Mitsubishi UFJ Financial Group, Inc.	22 240,0	1 951,50	6 199,27
2	Sumitomo Mitsui Financial Group, Inc.	14 660,0	3 817,00	4 244,87
3	Mizuho Financial Group, Inc.	10 540,0	4 253,00	3 834,39
4	JAPAN POST BANK Co., Ltd.	5 397,58	1 494,00	1 497,93
5	Japan Post Holdings Co., Ltd.	4 807,51	1 596,50	11 800,0
6	Resona Holdings, Inc.	2 724,07	1 180,00	930,69
7	Sumitomo Mitsui Trust Group, Inc.	2 706,57	3 807,00	1 178,41
8	Shinkin Central Bank	1 912,33	220 700	183,35
9	Concordia Financial Group, Ltd.	1 034,76	932,70	313,82
10	The Chiba Bank, Ltd.	957,52	1 373,00	258,85
11	Shizuoka Financial Group, Inc.	849,24	1 573,00	249,07
12	Fukuoka Financial Group, Inc.	747,02	3 999,00	310,46
13	Kyoto Financial Group, Inc.	640,94	2 205,50	132,43
14	Mebuki Financial Group, Inc.	632,82	642,80	-
15	SBI Sumishin Net Bank, Ltd.	560,16	3 715,00	124,76

⁷⁵ <https://www2.jpx.co.jp/tseHpFront/JJK020010Action.do?Show=Show> – Tokio fond birjasi rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

Daromad bo'yicha yetakchi Japan Post Holdings Co., Ltd. bo'lib, uning umumiy daromadi 11 800,0 milliard yenni tashkil etgan. Mitsubishi UFJ Financial Group, Inc. esa 6 199,27 milliard yen bilan ikkinchi o'rinda turadi. Eng past daromad ko'rsatkichiga SBI Sumishin Net Bank, Ltd. ega bo'lib, uning daromadi 124,76 milliard yenni tashkil etgan. Eng past bozor kapitallashuvi SBI Sumishin Net Bank, Ltd. ga tegishli bo'lib, u 560,16 milliard yenni tashkil qilmoqda. Kyoto Financial Group, Inc. va Mebuki Financial Group, Inc. ham eng past kapitallashuvga ega banklar qatoriga kiradi. Resona Holdings, Inc. va Sumitomo Mitsui Trust Group, Inc. 2 700 milliard yen atrofidagi kapitallashuv bilan o'rtacha ko'rsatkichni qayd etgan. Ushbu tahlil shuni ko'rsatadiki, yapon banklarining bozor kapitallashuvi bo'yicha eng yiriklari Mitsubishi UFJ Financial Group, Inc., Sumitomo Mitsui Financial Group, Inc. va Mizuho Financial Group, Inc. bo'lib qolmoqda. Ularning kapitallashuvi eng yuqori darajada bo'lib, bozor ulushining katta qismini egallaydi. Yevropa va AQSh banklariga nisbatan Tokio fond birjasidagi banklarning aksiyalari nisbatan barqaror narxlarga ega. Shuningdek, ba'zi banklarning aksiyalari bozorda ancha yuqori baholangan, jumladan Shinkin Central Bankning aksiyalar narxi 220 700 yen bo'lsa-da, daromadi nisbatan past 183,35 milliard yenni tashkil etgan. Osiyodagi yetakchi banklar kapital bozorida barqarorlik va o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda. Eng yirik banklar bozor kapitallashuvini yil sayin oshirib bormoqda. 2025-yil holatiga bozor kapitallashuvi bo'yicha yetakchi bank Mitsubishi UFJ Financial Group, Inc. bo'lsa, eng yuqori daromad ko'rsatkichini Japan Post Holdings Co., Ltd. qayd etdi. Kelgusi yillarda Tokio fond birjasida banklar o'rtasidagi raqobat darajasi yuqori bo'lishi kutilmoqda. Bozor kapitallashuvi va aksiyalar narxi oshib borayotgan banklar uzoq muddatli investitsiyalar uchun jozibador bo'lib qolmoqda.

London fond birjasida ro'yxatga olingan eng yirik banklar turli bozor kapitallashuvi, aksiyalar narxi va daromad ko'rsatkichlarini namoyon qilmoqda. Eng katta bozor kapitallashuviga JPMorgan Chase & Co. ega bo'lib, uning qiymati 546,45 milliard funt sterlingni tashkil etgan. Bank aksiyalari bozorda 114,49 funt narxda savdo qilinmoqda va umumiy daromadi 133,21 milliard funt sterlingga

yetgan. Bank of America Corporation 249,87 milliard funtlik kapitallashuv bilan ikkinchi o‘rinni egallab turibdi. Uning aksiyalar narxi 44,55 funt sterling, daromadi esa 76,73 milliard funt sterlingni tashkil etdi. Uchinchi o‘rinda Wells Fargo & Company joylashib, uning bozor kapitallashuvi 189,47 milliard funtga yetgan. Ushbu bank aksiyalari bozorda 72,97 funt sterling bahoda sotilmoqda, umumiy daromadi esa 62,27 milliard funt sterlingni tashkil etgan (3.7-jadval).

3.7-jadval

London fond birjasida listingdan o‘tgan banklarning kapital bozoridagi ko‘rsatkichlari tahlili, 01.03.2025 yil holatiga⁷⁶

№	Bank nomi	Bozor kapitallashuvi, mlrd. funt sterling	Aksiya narxi, funt sterling	Daromad, mlrd. funt sterling
1	JPMorgan Chase & Co.	546,45	114,49	133,21
2	Bank of America Corporation	249,87	44,55	76,73
3	Wells Fargo & Company	189,47	72,97	62,27
4	HSBC Holdings plc	164,95	928,40	48,93
5	Royal Bank of Canada	126,09	114,85	31,76
6	Mitsubishi UFJ Financial Group, Inc.	116,27	12,53	31,50
7	HDFC Bank Limited	115,64	61,07	25,23
8	Citigroup Inc.	106,83	52,25	57,00
9	UBS Group AG	82,98	16,01	38,39
10	The Toronto-Dominion Bank	80,27	84,69	29,67
11	Banco Santander, S.A.	77,86	519,15	40,99
12	ICICI Bank Limited	76,80	28,04	16,38
13	Sumitomo Mitsui Financial Group, Inc.	76,67	15,18	21,57
14	BNP Paribas SA	70,60	71,69	37,74
15	UniCredit S.p.A.	69,70	51,97	19,99

3.7-jadval ma’lumotlariga eng yuqori aksiyalar narxi HSBC Holdings plcga tegishli bo‘lib, uning aksiyalari 928,40 funt sterling baholanmoqda. HSBCning

⁷⁶ <https://www.londonstockexchange.com/raise-finance/equity/how-list-equity-listing-journey> - London fond birjasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

bozor kapitallashuvi 164,95 milliard funt sterling, umumiy daromadi esa 48,93 milliard funt sterlingni tashkil etgan. Eng past aksiyalar narxi Mitsubishi UFJ Financial Group, Inc. ga tegishli bo'lib, u atigi 12,53 funt sterling bahoda savdo qilinmoqda. Daromad bo'yicha yetakchi JPMorgan Chase & Co. bo'lib, uning umumiy daromadi 133,21 milliard funt sterlingni tashkil qilmoqda. Keyingi o'rinda 76,73 milliard funt daromad bilan Bank of America Corporation va 62,27 milliard funt sterling bilan Wells Fargo & Company bormoqda. Eng past daromad ICICI Bank Limited'ga tegishli bo'lib, uning daromadi 16,38 milliard funt sterlingni tashkil qilgan. Sumitomo Mitsui Financial Group, Inc. (21,57 milliard funt) va UniCredit S.p.A. (19,99 milliard funt) ham past daromadli banklar sifatida qayd etilgan.

3.2 §. O'zbekistonda tijorat banklari investitsion jozibadorligini oshirishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari

O'zbekistonda tijorat banklarining investitsion jozibadorligi hozirgi kunda muhim iqtisodiy-moliyaviy masalalardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda mamlakat bank tizimida islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, tijorat banklari tomonidan raqobatbardoshlikni oshirish uchun yangi moliyaviy xizmatlar taklif qilinmoqda. Raqamli bank xizmatlari rivojlanib mijozlarga innovatsion bank mahsulotlari taqdim etilmoqda. Shuningdek, bozorda masofaviy bank xizmatlarining ulushi oshishi natijasida tijorat banklari daromadlari oshmoqda. Biroq hanzugacha milliy amaliyotda tijorat banklari faoliyati va ularning investitsion jozibadorligini oshirish bilan bog'liq qator muammolar saqlanib qolmoqda. Quyida ular bo'yicha atroflicha to'xtalib o'tamiz.

Dastavval, mamlakatimizda tijorat banklarining umumiy ko'rsatkichlarini tahlil qiladigan bo'lsak, umumiy holatda o'sish kuzatilganligini qayd etish lozim. Jumladan, 3.8-jadvalda tijorat banklari umumiy aktivlarining yillar kesimida o'zgarishi tahlil qilingan. O'zbekistonda tijorat banklari umumiy aktivlarining yillar kesimida o'zgarishi sezilarli darajada o'sib bormoqda. 2020-yildan 2024-yilgacha banklar aktivlari umumiy hisobda 2,4 baravarga oshgan. 2020-yilda

banklar jami aktivlari 272 726,9 mlrd soʻmni tashkil etgan boʻlsa, 2024-yilga kelib bu koʻrsatkich 652 157,1 mlrd soʻmga yetgan. Davlat ulushiga ega banklarning aktivlari 2020-yilda 230 126,4 mlrd soʻm boʻlgan boʻlsa, 2024-yilga kelib 441 777,2 mlrd soʻmga yetgan. Boshqa banklarning aktivlari esa ayni davrda 42 600,5 mlrd soʻmdan 210 379,9 mlrd soʻmga oshgan. Natijada, davlat ulushi mavjud banklar aktivlari 1,9 baravarga, boshqa banklar aktivlari esa 4,9 baravarga oshgan. 2020-2021 yillarda jami aktivlar 93 394,2 mlrd soʻmga oshgan. 2021-2022 yillarda aktivlar 78 801,4 mlrd soʻmga oʻsgan. 2022-2023 yillarda aktivlar oʻsishi 111 823,8 mlrd soʻmni tashkil qilgan. 2023-2024 yillarda esa aktivlar 95 410,8 mlrd soʻmga oshgan. Oʻsish surʼati yillar davomida barqaror boʻlib, eng katta oʻsish 2022-2023 yillarda kuzatilgan. Davlat ulushi mavjud banklarning aktivlari koʻpayishda davom etsa-da, oʻsish surʼati pasaygan. Boshqa banklar esa ancha tez rivojlanib, ularning aktivlari sezilarli darajada oshgan. Xususiy banklarning aktivlari 2020-yilda jami aktivlarning 15,6 foizini tashkil etgan boʻlsa, 2024-yilga kelib bu ulush 32,3 foizga yetgan. Bu esa xususiy sektorning bank sohasida oʻsib borayotganligini koʻrsatadi.

3.8-jadval

Tijorat banklari umumiy aktivlarining yillar kesimida oʻzgarishi tahlili, mlrd.

soʻm⁷⁷

Sana	Aktivlar		
	Jami	shundan:	
		davlat ulushi mavjud banklar	boshqa banklar
01.01.2020 y.	272 726,9	230 126,4	42 600,5
01.01.2021 y.	366 121,1	310 729,5	55 391,6
01.01.2022 y.	444 922,5	362 421,9	82 500,6
01.01.2023 y.	556 746,3	435 135,6	121 610,7
01.01.2024 y.	652 157,1	441 777,2	210 379,9

3.9-jadvalga koʻra Oʻzbekistonda tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlarning hajmi yillar davomida barqaror oshib borgan. 2020-yilda jami kreditlar hajmi 211 580,5 mlrd soʻmni tashkil qilgan boʻlsa, 2024-yilga kelib bu koʻrsatkich 471 405,5 mlrd soʻmga yetgan. Bu esa besh yilda kreditlar hajmi

⁷⁷ <https://cbu.uz/oz/statistics/bankstats/> - Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki hisobotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

qariyb 2,2 baravarga oshganini ko'rsatadi. Davlat ulushi mavjud banklar tomonidan ajratilgan kreditlar 2020-yilda 186 630,3 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilda 333 298,1 mlrd so'mga yetgan. Xususiy banklarning kredit portfeli esa ayni davrda 24 950,2 mlrd so'mdan 138 107,4 mlrd so'mga oshgan. Boshqa banklarning kreditlari 2020-yildan 2024-yilgacha 5,5 baravarga oshgan. 2020-2021 yillarda jami kreditlar 65 394,3 mlrd so'mga oshgan. 2021-2022 yillarda esa kreditlar hajmi 49 410,8 mlrd so'mga oshgan. 2022-2023 yillarda jami kreditlar hajmi 63 663,3 mlrd so'mga ortgan. 2023-2024 yillarda kreditlar o'sishi 81 356,6 mlrd so'mni tashkil qilgan. Davlat ulushiga ega banklar kreditlarining o'sish sur'ati yillar davomida pasaygan. Boshqa banklarning kredit portfeli esa keskin oshib, 2020-yilda jami kreditlarning 11,8 foizini tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilda bu ulush 29,3 foizga yetgan. Bu esa xususiy sektorning kredit bozoridagi ishtiroki ortib borayotganini ko'rsatadi.

3.9-jadval

Tijorat banklari umumiy kreditlarining yillar kesimida o'zgarishi tahlili, **mlrd. so'm⁷⁸**

Sana	Kreditlar		
	Jami	shundan:	
		davlat ulushi mavjud banklar	boshqa banklar
01.01.2020 y.	211 580,5	186 630,3	24 950,2
01.01.2021 y.	276 974,8	244 483,9	32 490,9
01.01.2022 y.	326 385,6	280 073,6	46 311,9
01.01.2023 y.	390 048,9	324 680,8	65 368,2
01.01.2024 y.	471 405,5	333 298,1	138 107,4

So'nggi yillarda O'zbekistonda tijorat banklarining umumiy depozitlari yillar davomida barqaror o'sib brogan (3.10-jadval). 2020-yilda jami depozitlar hajmi 91 009,0 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 241 686,6 mlrd so'mga yetgan. Bu esa besh yil ichida depozitlarning 2,7 baravarga oshganini ko'rsatadi. Davlat ulushiga ega banklardagi depozitlar 2020-yilda 65 739,5 mlrd so'm bo'lsa, 2024-yilda 124 357,7 mlrd so'mga yetgan. Shu bilan birga, boshqa banklardagi depozitlar hajmi 25 269,5 mlrd so'mdan 117 328,9 mlrd

⁷⁸ <https://cbu.uz/oz/statistics/bankstats/> - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisobotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

soʻmga yetib, 4,6 baravarga oshgan. 2020-2021 yillarda jami depozitlar hajmi 23 737,9 mlrd soʻmga oshgan. 2021-2022 yillarda esa depozitlarning oʻsishi 41 442,9 mlrd soʻmni tashkil qilgan. 2022-2023 yillarda depozitlar hajmi eng katta oʻsishga erishib, 60 547,7 mlrd soʻmga koʻpaygan. 2023-2024 yillarda esa jami depozitlar hajmi 24 949,1 mlrd soʻmga oshgan. Davlat ulushiga ega banklarning depozitlari 2022-2023 yillarda sezilarli oshgan boʻlsa-da, 2023-2024 yillarda pasaygan. Boshqa banklardagi depozitlar esa jadal surʼatda oʻsib, 2020-yilda jami depozitlarning 27,8 foizini tashkil qilgan boʻlsa, 2024-yilda bu ulush 48,5 foizga yetgan. Bu esa xususiy sektorning bank depozitlari bozorida ulushi ortib borayotganini koʻrsatadi.

3.10-jadval

Tijorat banklari umumiy depozitlarining yillar kesimida oʻzgarishi tahlili, mlrd. soʻm⁷⁹

Sana	Depozitlar		
	Jami	shundan:	
		davlat ulushi mavjud banklar	boshqa banklar
01.01.2020 y.	91 009,0	65 739,5	25 269,5
01.01.2021 y.	114 746,9	82 460,8	32 286,0
01.01.2022 y.	156 189,8	104 248,0	51 941,8
01.01.2023 y.	216 737,5	135 534,4	81 203,1
01.01.2024 y.	241 686,6	124 357,7	117 328,9

3.11-jadval maʼlumotlariga koʻra 2020-yilda jami kapital hajmi 51 030,7 mlrd soʻmni tashkil qilgan boʻlsa, 2024-yilga kelib bu koʻrsatkich 97 079,2 mlrd soʻmga yetgan. Bu esa besh yil ichida kapitalning qariyb 1,9 baravarga oshganini anglatadi. Davlat ulushiga ega banklarning kapitali 2020-yilda 44 266,8 mlrd soʻmni tashkil qilgan boʻlsa, 2024-yilga kelib 63 239,3 mlrd soʻmga yetgan. Shu bilan birga, boshqa banklarning kapitali 2020-yilda 6 763,9 mlrd soʻm boʻlgan boʻlsa, 2024-yilda 33 839,8 mlrd soʻmga yetib, 5 baravarga oshgan. 2020-2021 yillarda jami kapital 7 320,6 mlrd soʻmga oshgan. 2021-2022 yillarda kapital oʻsishi 12 566,3 mlrd soʻmni tashkil qilgan. 2022-2023 yillarda kapital hajmi 8 647,8 mlrd soʻmga koʻpaygan. 2023-2024 yillarda esa jami kapital 17 513,8 mlrd

⁷⁹ <https://cbu.uz/oz/statistics/bankstats/> - Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki hisobotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

soʻmga oshgan. Davlat ulushiga ega banklarning kapitali nisbatan barqaror oʻsish surʼatini koʻrsatgan boʻlsa-da, 2023-2024 yillarda oʻsish sekinlashgan. Xususiy banklar esa kapital hajmini keskin oshirib, 2020-yilda jami kapitalning atigi 13,3 foizini tashkil qilgan boʻlsa, 2024-yilda bu ulush 34,9 foizga yetgan.

3.11-jadval

Tijorat banklari umumiy kapitalining yillar kesimida oʻzgarishi tahlili, mlrd.

soʻm⁸⁰

Sana	Kapital		
	Jami	shundan:	
		davlat ulushi mavjud banklar	boshqa banklar
01.01.2020 y.	51 030,7	44 266,8	6 763,9
01.01.2021 y.	58 351,3	48 995,3	9 356,0
01.01.2022 y.	70 917,6	57 695,2	13 222,4
01.01.2023 y.	79 565,4	61 919,2	17 646,3
01.01.2024 y.	97 079,2	63 239,3	33 839,8

Tijorat banklarining aktivlar, kreditlar, depozitlar va kapital boʻyicha yillik oʻzgarishlarini tahlil qilish orqali quyidagilarni qayd etish lozim:

Birinchidan, xususiy banklarning kapital yetishmovchiligi holatlari uchraydi. Xususan, davlat ulushi mavjud banklar kapitali 2020-yildan 2024-yilgacha 1,4 baravarga oshgan boʻlsa, xususiy banklar kapitali 5 baravarga oshgan. Ammo xususiy banklarning umumiy kapital ulushi hanuz past boʻlib, 2024-yilda 34,9% ni tashkil qilgan. Bu xususiy banklarning kapital yetishmovchiligi tufayli yirik loyihalarni moliyalashtirishda cheklovlariga duch kelishi mumkinligini koʻrsatadi;

Ikkinchidan, davlat ulushi mavjud banklar kredit portfelining kamayishi ham muammoli jihatlar deya qayd etish mumkin. 2020-yilda davlat ulushiga ega banklar umumiy kreditlarning 88,2% ga egalik qilgan boʻlsa, 2024-yilda bu koʻrsatkich 70,7% gacha kamaygan. Bu esa davlat banklarining kreditlash bozoridagi ulushi qisqarayotganidan dalolat beradi. Natijada ular mijozlar uchun kamroq raqobatbardosh boʻlib borishi yoki kredit resurslarini yetarli darajada samarali taqsimlay olmasligi mumkin;

⁸⁰ <https://cbu.uz/oz/statistics/bankstats/> - Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki hisobotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

Uchinchidan, davlat banklarining depozit portfeli qisqarishi qayd etish lozim. Davlat banklarining depozitlari 2023-yilda 135 534,4 mlrd soʻmni tashkil qilgan boʻlsa, 2024-yilda 124 357,7 mlrd soʻmga tushgan. Bu davlat banklarining aholi va biznes tomonidan ishonch yoʻqotayotganidan dalolat beradi. Aholi va tadbirkorlik subyektlari mablagʻlarini asosan xususiy banklarga joylashtirishni afzal koʻrayotgani kuzatilmoqda;

Toʻrtinchidan, soʻnggi yillarda davlat banklarining aktivlar oʻsish surʼatining sekinlashmoqda. 2020-yildan 2024-yilgacha davlat banklarining aktivlari 1,9 baravarga oshgan boʻlsa, xususiy banklarning aktivlari 4,9 baravarga oshgan. Bu davlat banklarining investitsion jozibadorligi pasayayotganidan dalolat beradi.

Tijorat banklarining investitsion jozibadorligini oshirish bilan bogʻliq muammolarni tahlil qilishda tijorat banklarining kapital bozorida ishtirokini ham tadqiq qilib oʻtish lozim. Jumladan, 3.12-jadvalda tijorat banklari tomonidan chiqarilgan hamda kelgusi davrda soʻndiriladigan mahalliy korporativ obligatsiyalar tahlil qilingan.

3.12-jadval

Tijorat banklari tomonidan chiqarilgan hamda kelgusi davrda soʻndiriladigan mahalliy korporativ obligatsiyalar tahlili, soʻm⁸¹

№	Bank nomi	Miqdori, dona	Nominal qiymati	Joylashtirilgan sana	Soʻndirish sanasi	Fozi stavkasi, % da
1.	Asia Alliance Bank	45 175	1 000 000	27.06.2019	14.07.2026	18
2.	Kapitalbank	50 000	1 000 000	23.04.2020	17.05.2027	19
3.	TBC bank	40 000 000	1 000	24.11.2024	07.12.2025	24
4.	TBC bank	128 000 000	1 000	22.12.2024	31.12.2026	24
5.	Hamkorbank	50 000	1 000 000	12.04.2024	22.04.2025	0

3.12-jadvalga koʻra 2019-yildan 2024-yilgacha boʻlgan davrda bir nechta tijorat banklari mahalliy obligatsiyalarini muomalaga chiqargan. Asia Alliance Bank 2019-yil 27-iyunda 45 175 dona obligatsiya chiqarib, ularni 2026-yil 14-iyulda soʻndirishni rejalashtirgan. Ushbu obligatsiyalarning nominal qiymati 1 000 000 soʻm

⁸¹ <https://uzcsd.uz/corporateBonds> - Qimmatli qogʻozlar Markaziy depozitariysi rasmiy sayti maʼlumotlari

bo‘lib, yillik foiz stavkasi 18% ni tashkil etadi. Kapitalbank 2020-yil 23-aprelda 50 000 dona obligatsiya joylashtirib, ularni 2027-yil 17-mayda so‘ndirish rejalashtirilgan. Ushbu obligatsiyalarning nominal qiymati 1 000 000 so‘m bo‘lib, yillik foiz stavkasi 19% ni tashkil qiladi. TBC Bank 2024-yil 24-noyabrda 40 000 000 dona obligatsiya joylashtirgan bo‘lib, ularning nominal qiymati 1 000 so‘m, foiz stavkasi esa 24% ni tashkil etadi. Ushbu obligatsiyalar 2025-yil 7-dekabrda to‘liq so‘ndiriladi. TBC Bank shuningdek, 2024-yil 22-dekabrda 128 000 000 dona obligatsiya joylashtirib, ularni 2026-yil 31-dekabrda so‘ndirish rejalashtirilgan. Ushbu obligatsiyalarning nominal qiymati ham 1 000 so‘m bo‘lib, foiz stavkasi 24% ni tashkil qiladi. Hamkorbank esa 2024-yil 12-aprelda 50 000 dona obligatsiya chiqarib, ularni 2025-yil 22-aprelda to‘liq so‘ndirishni rejalashtirgan. TBC Bank eng yirik hajmda obligatsiya joylashtirgan bo‘lib, uning umumiy miqdori 168 000 000 donani tashkil etadi. Uzoq muddatli obligatsiyalar asosan Asia Alliance Bank va Kapitalbank tomonidan chiqarilgan bo‘lib, ularning so‘ndirilish muddati 2026–2027-yillarga to‘g‘ri keladi. Obligatsiyalar bozoridagi foiz stavkalarining yuqori bo‘lishi banklar uchun kapital jalb qilish xarajatlarini oshirishi mumkin. Shuningdek, yuqori foiz stavkalari investorlar uchun qiziqish uyg‘otishi mumkin. Tijorat banklari obligatsiyalarining hajmi va muddatlari bo‘yicha farqlar bozor diversifikatsiyasini ta‘minlashga xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonda tijorat banklari tomonidan amalga oshirilgan aksiyalar emissiyasi moliya bozorining rivojlanishini aks ettiradi. Banklar aksiyalar chiqarish orqali kapitalni jalb qilib, moliyaviy barqarorlik va investitsion imkoniyatlarini oshiradi. Milliybank 16 250 670,31 ming dona aksiyalar chiqarib, umumiy qiymati bo‘yicha eng yirik emissiyani amalga oshirgan. Xalq banki ham yirik emissiya amalga oshirib, jami 10 297 308,14 mln so‘mlik aksiyalar chiqargan. Agrobank esa 11 180 191,06 mln so‘mlik aksiyalar emissiyasini amalga oshirib, uchinchi o‘rinda turibdi. Asakabank 7 164 950,77 mln so‘mlik aksiyalar chiqarib, bank sektoridagi yetakchi ishtirokchilardan biri bo‘lib qolmoqda. Mikrokreditbank esa 5 817 893,18 mln so‘mlik aksiyalar emissiyasi bilan barqaror rivojlanmoqda. Biznesni rivojlantirish banki 5 713 607,26 mln so‘mlik aksiyalar chiqarib, o‘z kapital bazasini kengaytirishga

intilmoqda. O‘zsanoatqurilishbank tomonidan chiqarilgan aksiyalar umumiy qiymati 4 628 941,93 mln so‘mni tashkil etgan (3.13-jadval).

3.13-jadval


Tijorat banklari aksiyalari emissiyasi tahlili⁸²

№	Bank nomi	Nominal qiymati, so‘m	Aksiyalar soni, ming dona	Chiqarilgan aksiyalar umumiy qiymati, mln. so‘m
1.	Hamkorbank	5	129 329 796	646 648,98
2.	Trastbank	1000	640	32 000
3.	Turonbank	1700	931 848,48	1 584 142,42
4.	O‘zsanoatqurilishbank	19	243 628 522,51	4 628 941,93
5.	Garant bank	100	5 000 000	500 000
6.	Asakabank	139,01	51 542 700,33	7 164 950,77
7.	Ipak Yo‘li bank	10	60 242 105,26	602 421,05
8.	Aloqabank	1	2 518 223 046,96	2 518 223,04
9.	Kapitalbank	950	528 826,49	502 385,17
10.	Octobank	1000	500 000	500 000
11.	Davrbank	5000	100 000	500 000
12.	Agrobank	1168	9 572 081,39	11 180 191,06
13.	Ziraatbank	1170	473 757,99	554 296,85
14.	KDB Bank	148,63	3 406 858	506 361,30
15.	Mikrokreditbank	1068	5 447 465,53	5 817 893,18
16.	Biznesni rivojlantirish banki	119,25	47 912 849,14	5 713 607,26
17.	Ipotekabank	1	3 834 217 638,94	3 834 217,63
18.	Invest Finance bank	1000	900 000	900 000
19.	Xalq banki	1000	10 297 308,14	10 297 308,14
20.	Asia Alliance bank	250	2 641 051,64	660 262,91
21.	Milliybank	1000	16 250 670,31	16,250,670,31
22.	Orient Finance bank	1250	1 571 300,14	1 964 125,17
23.	Madad Invest bank	5000	100 000	500 000
24.	AVO bank	20	38 044 576,53	760 891,53
25.	Poytaxt bank	1000	100 000	100 000
26.	Tenge bank	5000	229 800	1 149 000
27.	TBC bank	1000	2 120 464,88	2 120 464,88
28.	Anorbank	1000	800 000	800 000
29.	Uzumbank	1000	500 000	500 000
30.	Smart bank	1000	500 000	500 000
31.	Apex bank	1000	500 000	500 000
32.	Hayot bank	1000	500 000	500 000
33.	Yangi bank	1000	350 000	350 000
34.	Yevroosiyo banki	1000	200 000	200 000
35.	Universalbank	5000	100 000	500 000
36.	Saderat bank	Ma’lumot mavjud emas	Ma’lumot mavjud emas	Ma’lumot mavjud emas

3.13-jadvalga ko‘ra TBC Bank 2 120 464,88 mln so‘mlik aksiyalar chiqarib, faol ishtirokchilardan biriga aylangan. Orient Finance Bank 1 964 125,17 mln so‘mlik aksiyalar emissiyasi bilan o‘z pozitsiyasini mustahkamlamoqda.

⁸² <https://uzcsd.uz/issuersList> - O‘zbekiston Respublikasi Qimmatli qog‘ozlar Markaziy depozitariysi ma’lumotlari asosida shakllantirilgan

Turonbank esa 1 584 142,42 mln soʻmlik aksiyalar chiqarib, kapital hajmini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Tenge Bank 1 149 000 mln soʻmlik aksiyalar emissiyasini amalga oshirgan. KDB Bank esa 506 361,30 mln soʻmlik aksiyalar chiqarib, xalqaro moliya bozoridagi ishtirokini mustahkamlashga harakat qilmoqda. Kapitalbank 502 385,17 mln soʻmlik aksiyalar chiqarib, xususiy sektor rivojiga hissa qoʻshmoqda. Garant Bank, Octobank, Davrbank, Invest Finance Bank, Madad Invest Bank, Uzumbank, Smart Bank, Apex Bank, Hayot Bank va Universal Bank har biri 500 000 mln soʻmlik aksiyalar emissiyasini amalga oshirgan. Yangi Bank 350 000 mln soʻmlik, Yevroosiyo Banki esa 200 000 mln soʻmlik aksiyalar chiqarib, kapitalini oshirishga harakat qilmoqda.



3.3-rasm. “Toshkent” RFBda listingdan oʻtgan tijorat banklari aksiyalarining qiymati tahlili, 01.03.2025 yil holatiga⁸³

⁸³ https://uzse.uz/isu_infos - “Toshkent” RFB rasmiy sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

“Toshkent” Respublika Fond Birjasida tijorat banklari aksiyalarining bozor qiymati nominal qiymatdan sezilarli farq qilmoqda. Ayrim bank aksiyalari yuqori talabga ega bo‘lsa, ba’zilar investorlarga kamroq qiziqish uyg‘otmoqda. "Trastbank" aksiyalari bozorda eng yuqori qiymatga ega bo‘lib, 1 000 so‘mlik nominal qiymatga nisbatan 7 600 so‘mga yetgan. Shuningdek, "Universal Bank" aksiyalari ham yuqori narxlanib, 5 000 so‘mlik nominal qiymat bilan 8 000 so‘mga oshgan. Biroq, ba’zi banklarning aksiyalari bozorda arzonlashgan bo‘lib, masalan, “Turonbank” aksiyalari 1 700 so‘m nominal qiymatga ega bo‘lsa-da, bozor narxi 1 030 so‘mgacha tushgan. "Kapitalbank" aksiyalari esa nisbatan barqaror o‘lishni ko‘rsatib, 950 so‘mlik nominal bahoga nisbatan 1 030 so‘mga ko‘tarilgan. "Mikrokreditbank" aksiyalari ham o‘lish tendensiyasini ko‘rsatib, 540 so‘mdan 1 068 so‘mga yetgan. Boshqa tomondan, "Garant Bank" aksiyalari ham nominal qiymatdan yuqoriroq bozor narxiga ega bo‘lib, 100 so‘mlik nominal qiymat 182,61 so‘mgacha oshgan. "Ipotekabank" aksiyalari esa nisbatan barqaror bo‘lib, 1 114 so‘mlik nominal qiymat bilan 1 168 so‘m bozor narxiga ega. Shu bilan birga, "O‘zsanoatqurilishbank" aksiyalari bozorda ancha past bahoda sotilmoqda va investitsion jozibadorligi sustligicha qolmoqda (3.3-rasm).

AT Aloqabank 2020-2024 yillar davomida aktivlar hajmini sezilarli darajada oshirdi. 2020-yilda bankning aktivlari 8 108 166 mln so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 23 251 275 mln so‘mga yetdi. Kredit portfeli ham izchil o‘shib, 2020-yildagi 5 705 937 mln so‘mdan 2024-yilda 12 944 273 mln so‘mga yetgan. Bankning majburiyatlari yillar davomida ortib borgan bo‘lsa-da, 2023-yilda qisqa muddatli pasayish kuzatilgan. Depozitlar hajmi ham izchil o‘shib, 2020-yilda 4 924 088 mln so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2024-yilda 13 814 675 mln so‘mga yetgan. Kapital hajmi 2024-yilda 3 082 241 mln so‘mga yetib, oldingi yillarga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Bankning daromadlari yillar davomida ortib, 2024-yilda 4 114 881 mln so‘mni tashkil qilgan. Xarajatlar ham oshib borib, 2024-yilda 3 924 908 mln so‘mga yetgan. Sof foyda 2023-yilda eng yuqori darajaga – 607 651 mln so‘mga yetgan bo‘lsa, 2024-yilda 189 973 mln so‘mgacha kamaygan. Rentabellik darajasi 2023-yilda 21,8% bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilda 4,8%

gacha tushgan. Bankning ROA va ROE ko'rsatkichlari ham 2024-yilda keskin pasaygan bo'lib, bu bankning rentabelligi va foydalilik darajasida muammolar mavjudligini ko'rsatadi (3.14-jadval).

3.14-jadval


AT Aloqabank asosiy ko'rsatkichlari, mln so'mda⁸⁴

Ko'rsatkichlar	31.12.2020	31.12.2021	31.12.2022	31.12.2023	31.12.2024
Aktivlar	8 108 166	12 638 457	16 083 550	16 044 652	23 251 275
Kredit portfeli, brutto	5 705 937	7 754 314	9 161 877	10 293 932	12 944 273
Majburiyatlar	6 539 636	10 964 951	14 288 217	13 401 479	20 169 034
Depozitlar	4 924 088	6 796 109	7 697 657	9 227 044	13 814 675
Kapital	1 568 530	1 673 506	1 795 334	2 643 173	3 082 241
Daromad	1 480 356	1 633 844	2 335 683	3 392 248	4 114 881
Xarajat	1 310 356	1 526 261	2 107 289	2 784 597	3 924 908
Sof foyda	170 000	107 583	228 394	607 651	189 973
Rentabellik	13,00%	7,00%	10,80%	21,80%	4,80%
ROA	2,80%	1,50%	1,60%	3,80%	1,00%
ROE	14,40%	8,60%	13,20%	27,40%	6,80%

Aloqabank ustav kapitali yillar davomida barqaror o'sib, sezilarli o'zgarishlarga duch kelgan (3.4-rasm). 2013-yilda bankning ustav kapitali atigi 88,6 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2017-yilgacha kapital juda sekin o'sib, 238,5 mlrd so'mga yetgan. 2018-yilda bank ustav kapitalining sezilarli o'sishi kuzatilib, bu ko'rsatkich 833,9 mlrd so'mga oshgan. 2019–2021 yillar oralig'ida kapital 953,6 mlrd so'mga yetib, nisbatan barqaror holatga kelgan. 2022-yilda esa biroz pasayish kuzatilib, ustav kapitali 951,1 mlrd so'mni tashkil qilgan. 2023-yilda bank o'z kapitalini yana oshirib, 1191,4 mlrd so'mga yetkazgan. 2024-yilda esa bank tarixidagi eng yirik kapital hajmiga erishib, 2318,2 mlrd so'mga ko'tarilgan. Bu keskin o'sish bankning investitsion jozibadorligi oshganini va moliyaviy barqarorligini mustahkamlaganini ko'rsatadi. So'nggi yillardagi kapital o'sishi Aloqabankning moliyaviy strategiyasining muvaffaqiyatli amalga

⁸⁴ <https://aloqabank.uz/uz/shareholders/indicators/> - AT Aloqabank hisobotlari asosida shakllantirilgan

oshirilayotganini tasdiqlaydi. Umuman olganda, bank ustav kapitalining keskin oʻsishi uning bozor ishonchliligini oshirib, kelgusidagi rivojlanish uchun mustahkam zamin yaratmoqda.




3.4-rasm. Aloqabank ATB bank ustav kapitali dinamikasi, mlrd soʻm⁸⁵

AT “Aloqabank” aksiyadorlari tarkibi turli davlat va xoʻjalik yurituvchi subyektlardan iborat (3.5-rasm). Oʻzbekiston Respublikasi TTJ eng yirik aksiyador boʻlib, 53,80% ulushga egalik qiladi. "Oʻzbektelekom" AK bankning ikkinchi yirik aksiyadori hisoblanib, uning ulushi 19,18% ni tashkil qiladi. AKTni rivojlantirish jamgʻarmasi bank aksiyalarining 5,49% ulushiga egalik qiladi. Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ham bank aksiyalarining 3,76% qismini nazorat qiladi. "Elektromagnit moslashuv markazi" DUK eng kichik ulushga ega boʻlib, uning hissasi 1,83% ni tashkil etadi. Bankning aksiyadorlik tarkibi davlat tashkilotlari va yirik xoʻjalik yurituvchi subyektlarning ishtirokiga asoslangan. Bu tarkib bankning barqaror faoliyat yuritishini taʼminlab, investitsion ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi. Yirik davlat ulushining mavjudligi bankning davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlanishini anglatadi. Shu bilan

⁸⁵ <https://aloqabank.uz/uz/shareholders/bank-shares/charter-capital/> - AT Aloqabank hisobotlari asosida shakllantirilgan

birga, aksiyadorlarning diversifikatsiyasi bank boshqaruvining yanada samarali amalga oshirilishiga yordam beradi. Umuman olganda, AT Aloqabank aksiyadorlik tarkibi davlat sektorining ustun mavqeiga ega bo'lishi bilan ajralib turadi.



3.5-rasm. AT Aloqabankning yuridik shaxs sifatida faoliyat ko'rsatuvchi aksiyadorlari tarkibi⁸⁶

O'zsanoatqurilishbank ATB aksiyadorlari tarkibi asosan yuridik shaxslardan iborat bo'lib, ular umumiy aksiyalarining 99,13% ulushiga egalik qiladi (3.15-jadval). O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va Taraqqiyot Jamg'armasi bankning eng yirik aksiyadori bo'lib 82,19% ulushga ega. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi 13,48% aksiyaga egalik qiladi. O'ztransgaz AJ aksiyadorlik tarkibida 1,211% ulush bilan ishtirok etadi. Boshqa yuridik shaxslar jami 2,258% ulushga ega bo'lib, bank aksiyadorlari tarkibining kichik qismini tashkil qiladi. Jismoniy shaxslar esa bank aksiyalarining atigi 0,87% qismini egallab, bank kapitalidagi ulushi nisbatan kichik hisoblanadi. Jami 38 263

⁸⁶ <https://aloqabank.uz/uz/shareholders/bank-shares/charter-capital/> - AT Aloqabank rasmiy sayti ma'lumotlari

ta aksiyador mavjud bo‘lib, ulardan 3 843 tasi yuridik shaxslar, 34 616 tasi esa jismoniy shaxslardir. Bank kapitalining deyarli to‘liq qismi davlat va yirik kompaniyalar tomonidan nazorat qilinadi.

3.15-jadval

“O‘zsanoatqurilishbank” ATBning aksiyadorlari to‘g‘risida 2024 yil 1 oktabr holatiga⁸⁷

№	Aksiyadorlar ro‘yxati	Ulushi, mln. so‘m	%
1	Jami yuridik shaxslar (3 843 ta aksiyador)	4 588 896.07	99.13%
1.1	O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi	3 804 574.55	82.19%
1.2	O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi	623 753.46	13.48%
1.3	"O‘ztransgaz" AJ	56 051.93	1.211%
1.4	Boshqalar (3 849 ta aksiyador)	104 509.62	2.258%
2	Jami jismoniy shaxslar (34 616 ta aksiyador)	40 052.36	0.87%
2.3	Boshqalar	40 045.86	0.87%
Jami: (38 263 ta aksiyador)		4 628 941.93	100.00%

Ipotekabank aksiyadorlik tuzilmasida OTP Bank Plc. eng yirik aksiyador hisoblanib, bank ustav kapitalining 79,79% ulushiga egalik qiladi (3.16-jadval). O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi esa 19,14% ulush bilan bankning ikkinchi yirik aksiyadori sanaladi. Boshqa yuridik shaxslar, jami 4 604 ta aksiyador, bank ustav kapitalining 0,77% qismini tashkil qiladi. Jismoniy shaxslar esa 15 928 nafar aksiyador bilan 0,30% ulushga egalik qiladi. Jami 20 534 ta

⁸⁷ <https://sqb.uz/uz/for-investors/key-facts-uz/> - O‘zsanoatqurilishbank ATB rasmiy sayti ma’lumotlari

aksiyador mavjud bo‘lib, aksiyalar taqsimoti asosan yirik institutlar foydasiga shakllangan.

3.16-jadval

“Ipotekabank” ATIB aksiyadorlari tuzilmasi 01.10.2024 holatiga⁸⁸

№	Aksiyadorlar ro‘yxati	Ustav kapitalidagi ulushi, %
1	OTP Bank Plc.	79,79%
2	O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi	19,14%
3	boshqa yuridik shaxslar (aksiyadorlar soni – 4 604)	0,77%
4	jismoniy shaxslar (aksiyadorlar soni – 15 928)	0,30%
Ustav kapitali (jami aksiyadorlar soni - 20 534)		3 834 217 638 941

Mikrokreditbank aksiyadorlik tarkibi to‘liq yuridik shaxslar hissasidan iborat bo‘lib, jismoniy shaxslarning ulushi mavjud emas (3.17-jadval). Bank ustav kapitalining 55,70% ulushiga O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi egalik qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi esa 43,59% ulush bilan ikkinchi yirik aksiyador hisoblanadi. Boshqa yuridik shaxslar esa bank kapitalining 0,71% qismini tashkil qiladi.

3.17-jadval

“Mikrokreditbank” ATB aksiyadorlar ro‘yxati⁸⁹


Aksiyadorlar	Ulush (%)
Jami yuridik shaxslar	100
O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi	55,70
O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi	43,59
Boshqalar	0,71
Jami	100

Biznesni rivojlantirish banki aksiyadorlik tarkibida davlat ulushi ustunlik qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi eng yirik aksiyador bo‘lib, 52,30% ulushga egalik qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi esa 47,16% ulush bilan bankning ikkinchi yirik aksiyadori hisoblanadi. 1% dan kam aksiyaga ega yuridik shaxslar jami 0,52% ulushga ega bo‘lsa, jismoniy shaxslar faqat 0,02% aksiyaga egalik qiladi. Mazkur

⁸⁸ https://www.ipotekabank.uz/uz/investors/shai_sharad/ - Ipotekabank ATIB rasmiy sayti ma’lumotlari


⁸⁹ <https://mkbank.uz/uz/shareholders/bank-shares/charter-capital/> - Mikrokreditbank ATB rasmiy sayti ma’lumotlari

bankda aksiyadorlik tarkibi asosan davlat kapitali asosida shakllangan va xususiy sektor ishtiroki minimal darajada qolmoqda (3.6-rasm).



3.6-rasm. Biznesni rivojlantirish banki ATB aksiyadorlari tarkibi⁹⁰

Xalq banki aksiyadorlari tarkibida davlat ulushi ustunlik qiladi. O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi bank ustav kapitalining 79,23% ulushiga egalik qiladi. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi esa 20,77% aksiyaga ega bo'lib, ikkinchi yirik aksiyador hisoblanadi (3.7-rasm).



3.7-rasm. Xalq banki ATB aksiyadorlari tarkibi⁹¹

⁹⁰ <https://brb.uz/bank-haqida/bank-aksiyalari> - Biznesni rivojlantirish banki ATB rasmiy sayti ma'lumotlari

⁹¹ <https://xb.uz/page/bank-aksiyadorlar-2> - Xalq banki ATB rasmiy sayti ma'lumotlari

Universalbank ATB aksiyadorlari orasida 5% va undan ortiq ulushga ega bo'lgan yirik aksiyadorlar mavjud. OFELOS MChJ eng katta ulushga ega bo'lib, bank kapitalining 9,39% qismini nazorat qiladi. ORION VENTURE MChJ va Abdalimov Anvarjon Soliyevich mos ravishda 7,82% va 7,66% aksiyaga egalik qiladi. "CAPITAL INVEST GROUP" MChJ 6,16% ulush bilan bank aksiyadorlari orasida o'rin olgan. Turgunov Doniyor Abdubannonovich esa 5,16% aksiyaga egalik qilib, bank ustav kapitalining muhim qismini tashkil etadi (3.18-jadval).

3.18-jadval

Universalbank ATB 5 foiz va undan ortiq ulushga ega aksiyadorlar ro'yxati, 2024 yil 1 yanvar holatiga⁹²

Aksiyador nomi	Bank ustavidagi ulushi	Aksiya turi
OFELOS MChJ	9,39%	Oddiy
ORION VENTURE MChJ	7,82%	Oddiy
Abdalimov Anvarjon Soliyevich	7,66%	Oddiy
CAPITAL INVEST GROUP MChJ	6,16%	Oddiy
Turgunov Doniyor Abdubannonovich	5,16%	Oddiy

“Trastbank” XAB aksiyadorlik tarkibida ikki yirik aksiyador bank kapitalining 20% dan ortiq ulushiga egalik qiladi. Parpiyev D.B. bankning 24,635% aksiyalariga egalik qilib, eng yirik aksiyador hisoblanadi. Sharipov T.M. esa 21,915% aksiyalar bilan ikkinchi yirik aksiyador sifatida qayd etilgan. Ushbu ikkita aksiyador bank kapitalining 46,55% qismini nazorat qiladi. Bank aksiyalarining yirik shaxsiy qo'llarda jamlanishi boshqaruvga ta'sir qilish imkoniyatini oshiradi (3.19-jadval).

⁹² <https://universalbank.uz/individual/2> - Universalbank ATB rasmiy sayti ma'lumotlari

3.19-jadval

“Trastbank” XABning aksiyadorlik kapitali tarkibi (20 foizdan ortiq bank aksiyalariga ega aksiyadorlar)⁹³

№	Aksiyadorlar	Aksiyadorning bank ustav kapitalidagi ulushi	
		Soni donalarda	Ulushi foizda
1.	Parpiyev D.B.	246 408 591	Bankning 24,635 foiz aksiyalariga egalik qiladi
2.	Sharipov T.M.	219 201 787	Bankning 21,915 foiz aksiyalariga egalik qiladi

Trastbank aksiyadorlik kapitalida 5% dan ortiq ulushga ega bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar mavjud. Parpiyev D.B. bank aksiyalarining 24,635% qismini egallab, eng yirik aksiyador hisoblanadi. Sharipov T.M. esa 21,915% ulush bilan ikkinchi yirik aksiyador bo‘lib, bank boshqaruvida muhim rol o‘ynaydi (3.20-jadval).

3.20-jadval

“Trastbank” XABning aksiyadorlik kapitali tarkibi (5 foizdan ortiq bank aksiyalariga ega aksiyadorlar)⁹⁴

№	Aksiyadorlar – yuridik shaxslar yoki jismoniy shaxslarning F.I.Sh.	Aksiyadorning bank ustav kapitalidagi ulushi miqdori	Egalik qilayotgan aksiya turi
1.	“MADI GmbH” MChJ	5,00%	Oddiy aksiya
2.	“DIMINUR GROUP” MChJ	12,115%	Oddiy aksiya
3.	“PRESYSTEM UNIVERSAL” MChJ	17,995%	Oddiy va imtiyozli aksiya
4.	Sharipov T.M.	21,915%	Oddiy aksiya
5.	Parpiyev D.B.	24,635%	Oddiy aksiya
6.	Maxmudova D.M.	15,03%	Oddiy va imtiyozli aksiya

⁹³ <https://trustbank.uz/uz/shareholders/structure/over-20-percent/> - Trastbank XAB rasmiy sayti ma’lumotlari

⁹⁴ <https://trustbank.uz/uz/shareholders/structure/over-5-percent/> - Trastbank XAB rasmiy sayti ma’lumotlari

PRESYSTEM UNIVERSAL MChJ 17,995% aksiyaga egalik qilib, oddiy va imtiyozli aksiyalarga ega bo'lgan yirik investor sanaladi. Maxmudova D.M. 15,03% ulush bilan aksiyadorlar tarkibida yuqori o'rin egallaydi. DIMINUR GROUP MChJ va MADI GmbH MChJ mos ravishda 12,115% va 5,00% aksiyaga egalik qilmoqda, bu esa bank kapitalining yirik shaxslar o'rtasida taqsimlanganligini ko'rsatadi (3.20-jadval).

Hamkorbank ATB aksiyadorlari tarkibida jismoniy shaxslar 60,8% ulush bilan eng yirik aksiyadorlar guruhini tashkil etadi. Enterpreneurial Development Bank bank kapitalining 14,55% ulushiga egalik qilib, eng yirik yuridik shaxs aksiyador hisoblanadi. responsAbility esa 13,21% ulush bilan bank boshqaruvida muhim o'rin tutadi. International Finance Corporation aksiyadorlar tarkibida 7,28% ulush bilan ishtirok etadi. Shuningdek, boshqa yuridik shaxslar bank kapitalining 4,16% qismini tashkil qiladi (3.21-jadval).

3.21-jadval

Hamkorbank ATBning aksiyadorlari tarkibi⁹⁵

Aksiyadorlar		Ulushi, foizda
Jismoniy shaxslar		60,8 %
Yuridik shaxslar	Enterpreneurial Development Bank	14,55 %
	responsAbility	13,21 %
	International Finance Corporation	7,28 %
	Boshqalar	4,16 %

Yuqorida tijorat banklari aksiyadorlari tarkibini tahlil qilish orqali quyidagilarni qayd etish lozim:

Birinchidan, ko'plab tijorat banklarida O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hamda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi kabi davlat tashkilotlari yirik aksiyador hisoblanadi. Tijorat banklarida davlat ulushining yuqori darajasi banklarning to'liq raqobat muhitida ishlashiga va xususiy kapital jalb qilishiga to'sqinlik qilmoqda;

⁹⁵ <https://hamkorbank.uz/uz/for-investors/form-of-share-capital/> - Hamkorbank ATB rasmiy sayti ma'lumotlari

Ikkinchidan, ayrim banklarda aksiyalar asosan davlat yoki yirik yuridik shaxslar qoʻlida jamlangani sababli jismoniy shaxslarning ulushi juda past. Xususiy aksiyadorlarning kamligi aksiyalarning ommaviy aylanishini cheklaydi va investitsion jozibadorlikni pasaytiradi;

Uchinchidan, Trastbank, Universalbank, Hamkorbank kabi banklarda yirik aksiyalar bir nechta shaxs yoki kompaniyalar qoʻlida jamlangan. Kapitalning bunday tor doirada taqsimlanishi esa aksiyadorlik tarkibining muvozanatsizligini keltirib chiqarib, boshqaruv qarorlarini faqat yirik aksiyadorlar manfaatiga yoʻnaltirish xavfini tugʻdiradi;

Toʻrtinchidan, bank sektorida xalqaro moliya institutlari (masalan, International Finance Corporation yoki responsAbility) aksiyador sifatida ishtirok etsa-da, ularning ulushi hali ham past darajada qolmoqda. Milliy amaliyotda xorijiy investorlar ulushining cheklanganligi esa xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonining sekin ketayotganini koʻrsatadi;

Beshinchidan, Xalq banki, Mikrocreditbank, Oʻzsanoatqurilishbank kabi yirik banklarda jismoniy shaxslar deyarli ishtirok etmaydi. Bank sektoridagi aksiyadorlar tarkibida jismoniy shaxslar ishtirokining pastligi aksiyadorlik huquqlarining yetarlicha taʼminlanmasligiga va fond bozorining sust rivojlanishiga sabab boʻlmoqda.

Oltinchidan, ayrim banklarda (masalan, Ipotekabank) xususiy investitsiyalar boʻlsa-da, davlat ulushi hamon yuqori darajada saqlanib qolgan. Bu esa boshqaruv jarayonlarida xususiy sektorning mustaqil qarorlar qabul qilishiga toʻsqinlik qilishi mumkin.

Uchinchi bob boʻyicha xulosalar

Mazkur bobda tijorat banklarining investitsion jozibadorligini oshirish yoʻnalishlari boʻyicha quyidagi xulosalar shakllantirilgan:

Birinchidan, davlat ulushini bosqichma-bosqich kamaytirishga eʼtibor qaratish zarur. Bank tizimida xususiy sektor ulushini oshirish maqsadida davlat

aksiyalarini ommaviy savdoga chiqarish yoki strategik investorlar uchun ochiq sotuvni yo'lga qo'yish kerak;

Ikkinchidan, xususiy va institutsional investorlarni jalb qilish lozim. Tijorat banklarining aksiyalari bo'yicha investitsion jozibadorlikni oshirish orqali xususiy kompaniyalar, xalqaro moliya institutlari va yirik tadbirkorlarni bank kapitaliga jalb qilish lozim;

Uchinchidan, kapital bozorida banklarning aksiyalarini ommaviy savdoga chiqarish zarur. Bank aksiyalarini "Toshkent" Respublika fond birjasi orqali keng miqyosda joylashtirish va jismoniy shaxslarning bank kapitalidagi ishtirokini rag'batlantirish maqsadga muvofiq;

To'rtinchidan, xorijiy investorlarga qulay shart-sharoit yaratish shart. Banklarga xalqaro moliya institutlari va yirik xorijiy investorlarni jalb qilish uchun soliqlar, dividend siyosati va boshqa tartiblarni soddalashtirish lozim;

Beshinchidan, aksiyadorlik tarkibini diversifikatsiya qilish, ya'ni bir nechta yirik shaxs yoki kompaniyalar qo'lida aksiyalar yig'ilib qolmasligi uchun bank kapitalini ko'proq aksiyadorlar o'rtasida taqsimlash zarur;

Oltinchidan, bank boshqaruvida mustaqil direktorlar ulushini oshirish va bank aksiyadorlari tarkibining muvozanatli bo'lishi uchun mustaqil direktorlar kengashiga xususiy sektor vakillarini jalb qilish kerak;

Yettinchidan, jismoniy shaxslar uchun aksiyalar sotib olish tartibini soddalashtirishda aholi va tadbirkorlar uchun aksiyalarni qulay shartlar bilan sotib olish mexanizmlarini joriy qilish va aksiyalar bo'yicha dividend siyosatini yaxshilash maqsadga muvofiq;

Sakkizinchidan, yangi aksiyalar emissiyasini amalga oshirish va investitsiya kiritish imkoniyatlarini kengaytirish, tijorat banklari tomonidan qo'shimcha aksiyalar chiqarish orqali investitsiyalar jalb qilish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash lozim.

XULOSA

Tijorat banklari investitsion jozibadorligini oshirish bo'yicha olib borilgan o'rganishlar, tahlillar va ilmiy tadqiqotlarimiz natijasida quyidagi xulosalarni shakllantirishimiz mumkin:

Birinchidan, davlat ulushini bosqichma-bosqich kamaytirishga e'tibor qaratish zarur. Bank tizimida xususiy sektor ulushini oshirish maqsadida davlat aksiyalarini ommaviy savdoga chiqarish yoki strategik investorlar uchun ochiq sotuvni yo'lga qo'yish lozim;

Ikkinchidan, xususiy va institutsional investorlarni jalb qilish lozim. Tijorat banklarining aksiyalari bo'yicha investitsion jozibadorlikni oshirish orqali xususiy kompaniyalar, xalqaro moliya institutlari va yirik tadbirkorlarni bank kapitaliga jalb qilish lozim;

Uchinchidan, zamonaviy yashil bank mahsulotlarini joriy qilish orqali xalqaro kredit tashkilotlari va "yashil investorlar"dan moliyaviy resurslar jalb qilish imkoniyatlarini oshirish zarur. Bu orqali tijorat banklari qo'shimcha moliyaviy resurslar shakllantirishi, moliyaviy ko'rsatkichlarini yaxshilashi hamda investitsion jozibadorligini oshirishi mumkin;

To'rtinchidan, xorijiy investorlarga qulay shart-sharoit yaratish shart. Banklarga xalqaro moliya institutlari va yirik xorijiy investorlarni jalb qilish uchun soliqlar, dividend siyosati va boshqa tartiblarni soddalashtirish lozim;

Beshinchidan, aksiyadorlik tarkibini diversifikatsiya qilish, ya'ni bir nechta yirik shaxs yoki kompaniyalar qo'lida aksiyalar yig'ilib qolmasligi uchun bank kapitalini ko'proq aksiyadorlar o'rtasida taqsimlash zarur;

Oltinchidan, bank boshqaruvida mustaqil direktorlar ulushini oshirish va bank aksiyadorlari tarkibining muvozanatli bo'lishi uchun mustaqil direktorlar kengashiga xususiy sektor vakillarini jalb qilish kerak;

Yettinchidan, jismoniy shaxslar uchun aksiyalar sotib olish tartibini soddalashtirishda aholi va tadbirkorlar uchun aksiyalarni qulay shartlar bilan sotib

olish mexanizmlarini joriy qilish va aksiyalar bo'yicha dividend siyosatini yaxshilash maqsadga muvofiq;

Sakkizinchidan, yangi aksiyalar emissiyasini amalga oshirish va investitsiya kiritish imkoniyatlarini kengaytirish, tijorat banklari tomonidan qo'shimcha aksiyalar chiqarish orqali investitsiyalar jalb qilish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash lozim.

To'qqizinchidan, kapital bozorida banklarning aksiyalarini ommaviy savdoga chiqarish zarur. Bank aksiyalarini "Toshkent" Respublika fond birjasi orqali keng miqyosda joylashtirish va jismoniy shaxslarning bank kapitalidagi ishtirokini rag'batlantirish maqsadga muvofiq;

O'ninchi, tijorat banklarining kapital bozoridagi faolligini ta'minlash va investitsion portfel diversifikatsiyasini samarali tashkil etish maqsadida tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarga investitsiyalari hajmini oshirish lozim;

O'n birinchidan, kapital bozorida tijorat banklarining imtiyozli aksiyalari amaliyotini kengaytirish orqali tijorat banklarining investitsion jozibadorligini oshirish maqsadga muvofiq;

O'n ikkinchidan, tijorat banklarining kapital bozori orqali investitsion jozibadorligini oshirish maqsadida qo'shimcha oddiy aksiyalar emissiyasini tashkil etish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 6 maydagi 370-son "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida" Qonuni;

2. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 5 noyabrdagi 580-son "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni;

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilning 29-yanvardagi PF-60-son "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni;

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yilning 8-yanvardagi PF-5614-son "Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni;

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi 5992-son "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" Farmoni;

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-martdagi PQ-168-son "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini yanada qisqartirish va xususiylashtirishni jadallashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori;

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 18-avgustdagi PQ-283-son "Davlat ishtirokidagi korxonalar va tijorat banklarini isloh qilish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori;

8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi "2021-2025 yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" Qarori

9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish

va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizom;

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumidagi nutqi, 02.05.2024.
<https://president.uz/oz/lists/view/7194>

II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to'plamlar

11. Pahomov, V.A., Factors of investment attractiveness of enterprises - the contractor, Problems of entrepreneurship in Russia's economy, Interuniversity collection of proceedings, Issue No. 8, Moscow, Strategic management Technology, 2005. – pp. 116-125

12. Yurii A. Rolik. A Complex Approach to Evaluating the Innovation Strategy of a Company to Determine its Investment Attractiveness. // Procedia - Social and Behavioral Sciences, Volume 99, 6 November 2013, Pages 562-571

13. I.I. Glotova, E.P. Tomilina, B.A. Doronin, Yu.E. Klishina, O.N. Uglitskikh. Investment Attractiveness of the Company: Definition Approaches and Assessment Methods. // Proceedings of the International Conference on "Humanities and Social Sciences: Novations, Problems, Prospects" (HSSNPP 2019)

14. A.L.Zelezinskii, O.V.Arhipova, D.V.Hodos, V.S.Burko. MODERN APPROACHES TO DETERMINING THE INVESTMENT ATTRACTIVENESS OF A COMPANY FOR THE PURPOSE OF ITS ACQUISITION. // Экономический вектор №1(32) 2023

15. Севрюгин, Ю.В. Оценка инвестиционной привлекательности промышленного предприятия [Текст]: автореф. дис..... канд. экон. наук. Ижевск, 2004. 27с.

16. Матвеев, Т.Н. Оценка инвестиционной привлекательности предприятия [Электронный ресурс] / Т.Н. Матвеев. Труды МГТА: электронный журнал. 26.09.11.

17. Гуськова Т.Н. Методология статистического исследования инвестиционной привлекательности объектов: Автореф. дис. канд. экон. наук. Ростов-на-Дону: 2014.- с.9

18. Крылов Э.И., Власов В.М., Журавкова И.В. Анализ эффективности инвестиционной и инновационной деятельности субъекта хозяйствования. Учебник. – 2-е изд. – М.:Финансы и статистика, 2016. – 326 с.

19. Grishina I., Shakhnazarov A., Roizman I. A Comprehensive Assessment of Investment Attractiveness and Investment Activity in Russian Regions: a Methodology for Determining and Analyzing Relationships // Investments in Russia. 2001. No. 4. Pp. 5-16.

20. Wanli Li, Zhixuan Shen, Xi Wen. Access to banking and corporate dividend policy: Evidence from the distribution of bank branches in China. // Research in International Business and Finance, Volume 75, March 2025. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0275531924005245>

21. Edie Erman Che Johari, Dimitris K. Chronopoulos, Bert Scholtens, Anna L. Sobiech, John O.S. Wilson. Deposit insurance and bank dividend policy. // Journal of Financial Stability, Volume 48, June 2020; <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1572308920300231>

22. L. Allen, A. Gottesman, A. Saunders, Y. Tang. The role of banks in dividend policy. // Financ. Manag., 41 (3) (2012), pp. 591-613

23. T. Rice, P.E. Strahan. Does credit competition affect small-firm finance? J. Financ., 65 (3) (2010), pp. 861-889.

24. Saunders, A., Allen, L., Gottesman, A., Tang, Y. The role of banks in dividend policy. // Working Papers, 2009.

25. Seyed Alireza Athari, Cahit Adaoglu, Eralp Bektas. Investor protection and dividend policy: The case of Islamic and conventional banks. // Emerging Markets Review, Volume 27, June 2016, Pages 100-117.

26. Tobias Basse, Sebastian Reddemann, Johannes-Jörg Riegler, J.-Matthias Graf von der Schulenburg. Bank dividend policy and the global financial

crisis: Empirical evidence from Europe. // European Journal of Political Economy, Volume 34, Supplement, June 2014, Pages S25-S31

27. N. Bhattacharyya. Dividend policy: a review. // Manag. Finance, 2007

28. T. Basse. Dividend policy and inflation in Australia: results from cointegration tests. // Int. J. Bus. Manag., 2009.

29. Franklin Allen, Roni Michaely. Payout Policy. // Handbook of the Economics of Finance, Volume 1, Part A, 2003, Pages 337-429

30. F. Black. The dividend puzzle. // Journal of Portfolio Management, 1976

31. Kashif Imran, Muhammad Usman, Muhammad Nishat. Banks dividend policy: Evidence from Pakistan. // Economic Modelling, Volume 32, May 2013, Pages 88-90.

32. V.V. Acharya, H.T. Le, H.S. Shin. Bank capital and dividend externalities. // Rev. Financ. Stud., 30 (3) (2013), pp. 988-1018

33. H. DeAngelo, L. DeAngelo, D.J. Skinner. Corporate payout policy. // Found. Trends Finance, 3 (2–3) (2009), pp. 95-287

34. Mügge, D. Widen the market, narrow the competition: banker interests and the making of a European capital market. // ECPR press, 2024

35. Pernell, K. Market governance, financial innovation, and financial instability: lessons from banks' adoption of shareholder value management. // Theory and Society, 49(2), 2020. – pp. 277-306.

36. Phuong, N. T. T., Huy, D. T. N., & Van Tuan, P. The evaluation of impacts of a seven factor model on nvb stock price in commercial banking industry in vietnam-and roles of Disclosure of Accounting Policy In Risk Management. // International Journal of Entrepreneurship, 24, 2020. – pp. 1-13.

37. Moshirian, F., Tian, X., Zhang, B., & Zhang, W. Stock market liberalization and innovation. // Journal of Financial Economics, 139(3), 2021. – pp. 985-1014.

38. Wen, H., Lee, C. C., & Zhou, F. Green credit policy, credit allocation efficiency and upgrade of energy-intensive enterprises. // Energy Economics, 94, 2021.

39. Ш.Абдуллаева, А.Омонов. Тижорат банклари капитали ва уни бошқариш. // Ўқув қўлланма. – Т.: “ИҚТИСОД-МОЛИЯ”, 2006. – 120 б.

40. Б.Т. Бердияров. ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ ЛИКВИДЛИЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ НАЗАРИЙ МАСАЛАЛАРИ. // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 4, июль-август, 2016 йил. – 6 бет

41. У.Р.Халиков. Ўзбекистонда фонд бозори орқали инвестицион фаолиятни молиялаштиришни такомиллаштириш. // Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати, Тошкент, 2017. – 15 бет

42. Ашуров Зуфар Абдуллаевич. КОРПОРАТИВ БОШҚАРУВНИНГ ТАШКИЛИЙ-ИҚТИСОДИЙ МЕХАНИЗМИ ВА УНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 4, июль-август, 2017 йил. – 18-19 бетлар

43. Elmirzayev, S. and Omonov, S. (2020) "DIVIDEND POLICY ANALYSIS IN DEVELOPED COUNTRIES AND DIVIDEND ARISTOCRATS," International Finance and Accounting: Vol. 2020 : Iss. 2 , Article 22.

44. Х.Х.Худойкулов. МУЛЬТИПЛИКАТОР КОЭФФИЦИЕНТЛАР ОРҚАЛИ АКЦИЯДОРЛИК ЖАМИЯТЛАРНИ КАПИТАЛ ҚИЙМАТИНИ БАҲОЛАШ. // “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали. № 6, декабрь, 2019 йил

45. Sherquziyeva, N. and Akhmedov, R. (2019) "THE MECHANISM OF DISTRIBUTING THE PROFIT AND DIVIDEND POLICY," International Finance and Accounting: Vol. 2019: Iss. 6, Article 4. <https://uzjournals.edu.uz/interfinance/vol2019/iss6/4>

46. Kurbonov, J. PhD; Kholikov, U. PhD; Shukurullaev, M.; and Atabaev, Sh. (2021) "INCREASING BUSINESS VALUE AND PROFIT DISTRIBUTION MECHANISM: ANALYSIS OF GLOBAL PRACTICE," International Finance and Accounting: Vol. 2021 : Iss. 1 , Article 3. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/interfinance/vol2021/iss1/3>

47. Sherkuzieva, N. and Omonov, S. (2020) "THE CURRENT STATE OF DIVIDEND POLICY IN JOINT-STOCK COMPANIES IN UZBEKISTAN AND ITS DEVELOPMENT WAYS, "International Finance and Accounting": Vol. 2020 : Iss. 5 , Article 16. – P.8. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/interfinance/vol2020/iss5/16>

III. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar

48. <https://cbu.uz/oz/statistics/bankstats/> - O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisobotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

49. <https://uzcsd.uz/corporateBonds> - Qimmatli qog‘ozlar Markaziy depozitariysi rasmiy sayti ma’lumotlari

50. <https://stockanalysis.com/ipos/statistics/> - Stock Analysis fond bozori ma’lumotlarini taqdim etuvchi rasmiy veb-sayti ma’lumotlari
<https://www.statista.com/statistics/1537819/loans-digital-traditional-banks-forecast/#statisticContainer> – Statista rasmiy sayti ma’lumotlari

51. <https://www.nyse.com/listings/resources>

52. <https://www.londonstockexchange.com/raise-finance/equity/how-list-equity-listing-journey>

53. <https://www2.jpx.co.jp/tseHpFront/JJK020010Action.do?Show=Show>

54. <https://www.unipo.sk/public/media/3831/ZBORNIK%202012.pdf>

55. <https://sqb.uz/uz/for-investors/distribution-banks-profit-uz/> - “O‘zsanoatqurilishbank” ATB rasmiy sayti ma’lumotlari

56. <https://ipotekabank.uz/uzb/investors/dividends/> - “Ipotekabank” ATIB rasmiy sayti ma’lumotlari

57. https://aloqabank.uz/uz/page/shareholders/dividendi#content_text –
AT Aloqabank rasmiy sayti ma'lumotlari
58. <https://mikrokreditbank.uz/about/stock-holders/divid/divident.html> -
“Mikrokreditbank” ATB rasmiy sayti ma'lumotlari
59. <https://www.xb.uz/uz/page/aksiya-va-dividentlar/> - “Xalq banki”
ATB rasmiy sayti ma'lumotlari
60. <https://hamkorbank.uz/uz/for-investors/divident-information/> -
Hamkorbank ATB rasmiy sayti ma'lumotlari
61. <https://trustbank.uz/uz/shareholders/distribution-of-profits/dividends/>
- Trastbank XAB rasmiy sayti ma'lumotlari
62. <https://brb.uz/bank-haqida/bank-aksiyalari> - Biznesni rivojlantirish
banki ATB rasmiy sayti ma'lumotlari
63. <https://universalbank.uz/individual/2> - Universalbank ATB rasmiy
sayti ma'lumotlari